



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
X. SULAYMONOVA NOMIDAGI
RESPUBLIKA SUD EKSPERTIZA MARKAZI


O'ZBEKISTON SUD EKSPERTIZASI



Huquqiy, ijtimoiy, ilmiy-amaliy

JURNAL

2023 №1(8)



O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2022-yil 30-apreldagi 315/5-son qarori bilan
“O'zbekiston sud-ekspertizasi” ilmiy jurnali yuridik va
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori
(DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari
asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsya etilgan ilmiy
nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

MUNDARIJA

XALILOV A.U. O'zbekistonda sud ekspertriza instituti huquqiy asoslarning shakllanishi va rivojlanishi	2
SAIDOV M.S. Zamonaviy texnik vositalar yordamida voqeа joyini ko'zdan kechirish va natijalar olish usullarini takomillashtirish	11
RUSTEMOV Y.K. Elektrotexnika ekspertrizasining imkoniyatlari va uning hal etadigan masalalari	17
ROMADANOVA T.A., MUXAMEDJANOVA M.M. Sud-ekspertlik faoliyatida kasbiy etika asoslari va uni takomillashtirish yo'llari	22
YO'L DOSHEV A. A. Vertikal holatda bo'lgan piyodani frontal urib yuborishda yengil avtomobilarda izlar va shikastlanishlar hosil bo'lishining asosiy qonuniyatları.....	28
SAYFUTDINOV Z. X. “Yo'l harakati qoidalari” bo'yicha amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar.....	34
TASHPULATOV M.X. Sud-fonografiya ekspertrizasining bugungi kundagi imkoniyatlari va ekspertriza o'tkazish asoslari	38
BOZOROV M. M. Sud hujjatlarini ijro etmaslik uchun javobgarlik va uning oqibatlari: xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyosiy-huquqiy tahlil	43
MUITOV D.S. Axborot asri siyosiy texnologiyalari va propaganda ...	52
TURGUNOVA N.T. O'zbekistonda yoshlar siyosatining shakllanish bosqichlari	58
QOLQANOV N.T. Xalqaro keskinlik sharoitida siyosiy yetakchi imijini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari	65
MEYLIEV U.F. Jamiyatda mafkuraviy immunitetni shakllantirish va rivojlantirishda ma'naviy va tarbiyaviy omillarning o'rni	69
TOSHEV O.N. Konfliktlar va ularning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'siri	75
ABDULLAYEV M.A. Yangi O'zbekistonning xalqaro maydonidagi ijobjiy imijini yaratish masalalari	81
MADRAXIMOV A.U. Bugungi dunyoning virtuallashuvi va yoshlarning axloqiy tarbiysi	87
XODJAYEV A.A. Jamoat xavfsizligiga ekologik tahdidlar: unga qrashi kurashning huquqiy muammolari.....	93
“TASHKENT LAW SPRING” (“Toshkent huquq bahori”) III xalqaro yuridik forumi doirasida sud ekspertriza yo'nalishi bo'yicha erishilgan yutuqlar	99

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi
Respublika sud ekspertriza markazi

Bosh muharrir:

Akram XALILOV

Bosh muharrir o'rinosari:

Uchkun UZAKOV

Mas'ul kotib:

Nuriddin QOLQANOV

Tahrir hay'ati:

Akbar TASHKULOV

Sherzod RABIYEV

Jamshidxon NURITDINOV

Istam ASTANOV

Narzulla JO'RAYEV

Odil MUSAYEV

Eshmuxamad KADIROV

Shuhrat RAXMANOV

Tolibjon ORZIYEV

Saidillaxodja SAIDXODJAYEV

O'ktam SHAKAROV

Nilufar XALILOVA

Nadejda KORABLYOVA

Mas'ul muharrir:

Husan NISHONOV

Dizayner:

Faxriddin RAHIMOV

Sahifalovchi:

Malohat TOSHOVA

“O'zbekiston sud ekspertrizasi” huquqiy,
ijtimoiy, ilmiy-amaliy jurnalni

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommavii
kommunikatsiyalar agentligida 2021-yil 4-iyunda
1185-tonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili:

100105, Toshkent shahri, Mirobod tumani
Farg'on'a yo'li ko'chasi.

Telefonlar:

(71) 209 11 55 (153 ichki), (93) 171 37 74

web-site: www.sudex.uz

e-mail: info@sudex.uz

facebook.com/sudex.uz

telegram.me/sudex.uz

Jurnal 15.06.2023-yilda bosmaxonaga topshirildi.

Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Offset usulida bosildi.

Shartli 6,75 bosma taboq. Buyurtma № 001. Adadi 100.

“Reliable Print” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Qushbegi ko'chasi, 6-uy.

O'ZBEKISTONDA SUD EKSPERTIZA INSTITUTI HUQUQIY ASOSLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

XALILOV

*Akram Utamurodovich,
X. Sulaymonova nomidagi Respublika
sud ekspertiza markazi direktori*

ANNOTATSIYA

Maqolada O'zbekistonda sud ekspertiza instituti huquqiy asoslarining shakllanishi va rivojlanish evolyutsiyasi yoritilgan. Shuningdek, xorijiy davlatlarning sud ekspertiza tizimi va ularning bu boradagi tajribasi ham tahlil qilinib, ijobji jihatlari e'tirof etilgan.

Kalit so'zlar: qonun, qonun ustuvorligi, ekspert, sud ekspertizasi, sud ekspertiza instituti, xalqaro tajriba.

АННОТАЦИЯ

В статье описывается эволюция становления и развития правовой базы института судебных экспертиз в Узбекистане. Также были проанализированы система судебных экспертиз зарубежных стран и их опыт в этом отношении и признаны их положительные стороны.

Ключевые слова: право, правопорядок, эксперт, судебная экспертиза, институт судебной экспертизы, международный опыт.

ANNOTATION

The article describes the evolution of the formation and development of the legal framework of the institute of forensic examinations in Uzbekistan. The system of forensic examinations of foreign countries and their experience in this regard were also analyzed and their positive aspects were recognized.

Key words: law, law and order, expert, forensic examination, forensic examination institute, international experience.

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta’minlashga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalgalashirildi. Sud-huquq tizimi, jumladan sud ekspertiza tizimi ham tubdan isloq qilindi.

Sud-ekspertiza faoliyati samaradorligini oshirish mazkur institut faoliyatini tashkil etish holatiga, jinoyatchilikka qarshi kurash amaliyotining zamonaviy ehtiyojlariga va ushbu ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan fan va texnika yutuqlariga mos kelishiga bog‘liq. Bunday institut tizimi o‘ziga xos tarzda ma’lum bir mamlakatlarning qonunchiligi va idoraviy normativ hujjalari bilan tartibga solinadi.

O‘zbekistonda sud ekspertiza institutining huquqiy asoslari shakllanishi va rivojlanish bosqichlariga to‘xtalishdan oldin xorijiy davlatlarning sud ekspertiza tizimi va ularning bu boradagi tajribasi bilan o‘rtoqlashishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Jumladan, aksariyat Yevropa mamlakatlarda sud ekspertiza faoliyatini huquqiy tartibga solish jinoyat-protsessual qonunchiligiga asoslanadi va idoraviy normativ hujjalarga asosan tizim ichidagi faoliyatni amalgalashirish tartibini belgilaydi.

Germaniyada har bir shtat (Bundesland) o‘zining mustaqil sud-ekspertiza laboratoriyasiga (das Landeskriminalamt bir qismi), federal politsiya bo‘limmalariga (das Bundeskriminalamt), maxsus ekspertiza va tadqiqotlarni ishlab chiqarish uchun o‘zlarining sud-ekspertiza bo‘limlariga, shuningdek, sud-ekspertiza ma’lumotlar bazasiga ega¹.

Shuningdek, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarda sud ekspertizasining ikkita asosiy tashkiliy shakli mavjud bo‘lib, bular maxsus ekspertiza muassasalari va sud ekspertizasini o‘tkazish huquqiga ega bo‘lgan ekspertiza muassasalaridir².

Buyuk Britaniya Ichki ishlar vazirligining ijro etuvchi agentligi bo‘lgan Buyuk Britaniya

¹ Никитина И.Э. Международное сотрудничество по уголовным делам в сфере судебно-экспертной деятельности. Монография. – М.: ФГКУ «ВНИИ МВД России», 2013. – С. 148.

² Волынский А.Ф. Институт присяжных экспертов и современные тенденции развития организационных форм судебной экспертизы в социалистических странах // Вопросы судебной экспертизы: Материалы конференции аспирантов и соискателей ЦНИИСЭ (март 1969 г.). – М.: ЦНИИСЭ, 1969. – С.11.

Sud-ekspertizasi xizmatining (The Forensic Science Service – FSS) asosiy vazifalari jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish jarayonida professional yordam ko‘rsatishdir. Qayd etish joizki, Buyuk Britaniya sud-ekspertlik xizmati xodimlari 43 ta hududda tezkor-qidiruv va tergov tadbirlarida ishtirok etib, ekspertiza va tadqiqot ishlarini olib boradi. Angliya va Uelsda politsiya bo‘limlari, shuningdek, Qirollik Prokuraturasi, Bojxona va Aksizlar va boshqa bir qator huquqni muhofaza qilish idoralari mavjud. Ayrim mamlakatlarda sud ekspertizasi xizmati Adliya vazirligi (masalan, Portugaliya va Gollandiyada) yoki Mudofaa vazirligi, qurolli politsiya kuchlari tarkibiga kiradi (masalan, Fransiyada).

Fransiyada tarixan ikkita alohida politsiya kuchlari sud-ekspertizasi faoliyati bilan shug‘ulangan bo‘lib, bular Milliy jandarmeriya va Milliy politsiyadir. Milliy politsiyaning vazifalariga 20 ming kishidan ortiq aholisi bo‘lgan shaharlarda jamoat tartibini ta’minlash kiradi, milliy jandarmeriya esa mamlakatning qolgan qismida jamoat tartibi uchun javobgardir. Ikkala politsiya tuzilmasi ham jinoyatlarni tergov qilish huquqiga ega.

Milliy jandarmeriyada politsiya tergovchilar, prokurorlar va sudyalar bilan yaqindan hamkorlik qiladigan noyob sud-ekspertiza instituti (IRCGN) mavjud.

Fransiya qonunchiligiga ko‘ra, sudning o‘zi ekspertiza jarayonida ishtirok etishi mumkin. Shu bilan birga, u ekspertga savollar berishi, uning tushuntirishlarini tinglashi mumkin. Tomonlar ekspertning iltimosiga binoan ekspertiza o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan barcha hujjalarni zdilik bilan taqdim etishlari shart. Ekspert, o‘z navbatida, tomonlarning fikr va e’tirozlarini hisobga olishi, agar ular yozma ravishda taqdim etilgan bo‘lsa, ularni o‘z fikrida aks ettirishi kerak³.

Ayrim xorijiy mamlakatlarda Ichki ishlar vazirligi qoshidagi sud-ekspertiza laboratoriylaridan tashqari Adliya vazirligiga qarashli sud-ekspertiza laboratoriylari ham mavjud (masalan, Ispaniya va Polsha).

Ispaniyada Ichki ishlar vazirligi va Adliya vazirligi tizimida alohida sud-ekspertiza labo-

³ <http://uzmarkaz.uz/uploads/2020/06/20202020.pdf> Yuridik fan va huquqni qo‘llash amaliyotining dolzarb muammolari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. I jild / Mas’ul muharrir yu.f.d., prof. M.M.Mamasiddiqov. – T.: “Lesson press”, 2020. – B. 259.

ratoriyalari mavjud bo'lib, ular sud-ekspertiza faoliyati bilan shug'ullanadi⁴.

Slovakiya va Turkiyada esa universitetlar tarkibida biotibbiyot tadqiqotlari bilan shug'ullanuvchi sud-ekspertiza laboratoriyalari mavjud.

Shunday qilib, aksariyat Yevropa davlatlari da sud-ekspertlik xizmati davlat xizmatining bir turi bo'lib, tashkiliy jihatdan huquqni muhofaza qilish organlari – Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi va Mudofaa vazirligiga bo'ysunadi. Ko'pchilik Yevropa davlatlarida sud-ekspertlari ham politsiyachi hisoblanadi. Biroq bunday politsiya sud-ekspertiza ekspertlari faoliyatiga cheklovlar qo'yiladi. Agar ekspert tergov guruh tarkibida jinoyatlarni tergov qilish jarayonida bevosita ishtirok etgan bo'lsa, uning aniq tergov maqsadlarida amalga oshirgan ishi tadqiqotning obyektivligiga ta'sir qilishi mumkin deb taxmin qilinadi. Aynan shu sabablarga ko'ra Germaniya da jinoiy tergovda ishtirok etgan va keyinchalik sud-ekspertizasi eksperti sifatida ishlagan politsiyachiga ishonchszilik bildirilishi mumkinligi to'g'risidagi qonun qabul qilingan.

Ba'zi mamlakatlarda politsiya xodimlari faqat ma'lum turdag'i tekshiruvlar va tadqiqotlarni amalga oshiradigan sud-ekspert bo'lishi mumkin. Misol uchun, Maltada politsiya sud-ekspertlari barmoq izlari, ballistika va fotografik hujjatlar bo'yicha tekshiruvlar va tadqiqotlar o'tkazadilar. Biroq politsiya ekspertlarining jinoyat joyida qolgan izlar haqida fikr bildirishi cheklangan⁵.

Fransiyada politsiyaga faqat muayyan faoliyat sohalarida (masalan, barmoq izlari va avtotexnik ekspertiza) ekspertiza va tadqiqotlar olib borishga ruxsat berilgan. Boshqa mamlakatlarda politsiya xodimlari tegishli tayinlovga ega bo'lsalar, sud-ekspert sifatida ishlashi mumkin (masalan, Avstriya, Slovakia va Portugaliyada). Biroq ular sud-eksperti sifatida faoliyat yurita turib, tezkor politsiya xodimlari vazifasini bajarmaydilar. Qayd etish joizki, aksariyat Yevropa mamlakatlarda sud eksperti huquqini berish sudning vakolatiga kiradi.

⁴ Cm.: Kopp I. Professor and Director, SKL. Organization and History of the member laboratories, 14th Meeting Linkoping 2002. The European Network of Forensic Science Institutes, 2002. – P. 131.

⁵ Lia van der Westen. Organisation and Regulation on Expert Evidence // Harmonisation in Forensic Expertise. An inquiry into the desirability of and opportunities for international standards, Thela Thesis, the Netherlands, 2000. – P. 451.

Yuqorida qayd etilganlardan ko'rishimiz mumkinki, har bir davlatning o'ziga xos ekspertiza instituti mavjud. Albatta, ekspertlik institutining tashkil etilishi va rivojlanishi har bir mamlakatning milliy xarakteri, shuningdek, jinoyat-larga qarshi kurashishdagi tajribasi bilan bog'liqdir.

Tarixga nazar solsak insoniyatning, jamiyatning rivoji bilan yangi ijtimoiy munosabatlarning yuzaga kelishi jarayonida jinoyatlarning yangi turlari, ko'rinishlari yuzaga kelishi sud ekspertiza institutiga ehtiyojni yanada orttiradi va sud-ekspertlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini kuchaytirish zarururatini oshiradi.

Bugungi globallashuv zamonida jinoyatlarning turlicha yangi shakl va usullarda sodir etilishi jinoyatchilikka qarshi kurash, jinoyatchini fosh etishda o'ziga yarasha qiyinchiliklar va muammolarni keltirib chiqarmoqda. Natijada huquqni muhofaza qiluvchi organlardan yangi ilm-fan yutuqlaridan, yangi tergov olib borish usullaridan foydalangan holda jinoyat ochilishiga yangicha yondashishni talab etmoqda. Mazkur jarayonda sud ekepertiza institutining ahamiyati va roli yanada oshmoqda.

O'zbekistonda sud ekspertiza institutining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari uzoq muddatli tarixiy jarayon bo'lib, yillar davomida ekspertning xizmatidan foydalinish jinoyat ochilishiga xizmat qiluvchi muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Ma'lumki, har bir faoliyatning samaradorligi ko'p jihatdan uning huquqiy asoslari shakllanganligi bilan belgilanadi. Sud-ekspertlik faoliyati ham tom ma'noda shu talabdan mustasno emas.

Sud ekspertizasining huquqiy asoslarini takomillashtirish zarurati quydagilar bilan belgilanadi:

- mustaqil davlatchilik talablariga javob beradigan demokratik prinsiplarga asoslangan sud-ekspertlik faoliyatini ta'minlashga qaratilgan huquqiy bazani yaratish;

- fan va texnika yutuqlarini huquqni muhofaza qilish faoliyatiga tatbiq etish uchun tegishli huquqiy baza zarurati;

- protsessual qonunlardagi sud ekspertiza masalasida kamchiliklarni bartaraf etish;

- sud-ekspertlik faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega, ammo mavjud qonunlarda o'z yechimini topmagan masalalarni hal qilish zarurati.

Sud ekspertizaning huquqiy bazasini rivojlan-
tirish bo'yicha amaliy ishlar mustaqillik yillari-
dan boshlangan. Jumladan, O'zbekiston Respub-
likasining yangi protsessual kodekslarini yaratish
jarayonida sud ekspertiza masalalarini tartibga
soluvchi moddalar soni sezilarli ko'paydi. Xus-
usan, Jinoyat-protsessual kodeksida sud eksperti-
zasiga alohida bob ajratilib, protsessual qonunga
birinchi bor komission, kompleks ekspertizalar,
xulosa berishning iloji yo'qligi to'g'risidagi
hujjat tushunchalari kiritildi.

Biroq protsessual kodekslarni yangidan qabul
qilish, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiri-
tish orqali sud ekspertizaning barcha masalalarini
tartibga solish mumkin emas. Masalan, muayyan
protsess turida sud ekspertiza o'tkazish reglamen-
tatsiyasining benuqson tizimi yaratilganda ham,
bu tizim huquqiy qo'llash sohasining faqat bir
yo'nalishi (jinoiy, fuqarolik, iqtisodiy, ma'muriy)
uchun mo'ljallangan bo'ladi. Hal qilinadigan
masalalar mohiyatidan kelib chiqib, mazkur tizim
asosan ushbu sudlov xususiyatlarini aks ettira-
di va aynan shu protsess turi uchun taalluqlidir.
Bunda protsessual qonunlar boshqaradigan mu-
nosabatlar doirasiga kirmaydigan, ammo sud-ek-
spertlik faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega
masalalarning huquqiy asoslari nazardan chetda
qolishi o'z-o'zidan tushunarlidir. Xuddi shunday
nuqtayi nazardan boshqa soha doirasida ham sud
ekspertizani huquqiy tartibga solish haqida so'z
yuritish mumkin.

Protsessual qonunlar alohida protsess jaray-
onlarini belgilashga qaratilgan bo'lib, ularda
asosan sud ekspertizani tayinlash va o'tkazish-
ga oid masalalar tartibga solingan. Bunda ushbu
masalalar faqatgina O'zbekiston Respublikasining
Jinoyat-protsessual kodeksida nisbatan to'la
yoritilgandir.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-
protsessual kodeksida ekspert tushunchasiga oid
60 dan, ekspertizaga oid 40 dan hamda mutax-
assisiga oid 20 dan ortiq moddalar bag'ishlandi.
Amalda Jinoyat-protsessual kodeksida umumiyligida
609 modda mavjud bo'lsa, ularidan 150 ga yaqini,
ya'ni to'rtdan biri aynan maxsus bilimlar elemen-
ti mavjud bo'lgan normalardan iborat⁶.

Fuqarolik-protsessual, Ma'muriy javobgarlik
to'g'risidagi kodeksda sud ekspertizasini tayin-
lash va o'tkazish bilan bog'liq muhim jihatlar
cheklangan holda berilgan yoki umuman mavjud
bo'lmanan. O'zbekiston Respublikasining "Sud

ekspertizasi to'g'risida"gi qonuni qabul qilingun-
cha sud ekspertiza masalalari Jinoyat-protsessual
kodeksida 98 ta moddada ko'rilgan bo'lsa, Fuqarolik-
protsessual kodeksida ular 41 ta modda, Xo'jalik-
protsessual kodeksida esa 22 ta moddada aks ettirilgan.
Harakatdagi Ma'muriy javobgarlik
to'g'risidagi kodeksda ekspert xulosasi faqat faktik
ma'lumotlarni belgilash vositasi sifatida eslab
o'tilgan (276-modda, "Dalillar") va ekspertining
huquq va majburiyatları (299-modda, "Ekspert")
ko'rsatilgan. Tabiiyki, bu vaziyat huquqni mu-
hofaza qilish idoralari va sudlarga ish bo'yicha
dalillarni aniqlash maqsadida sud ekspertizadan
keng foydalanishga to'sqinlik qilgan va oxir oqibat
fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini
himoyalashga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Sud ekspertizaning huquqiy asoslarini turli
idoraviy hujjatlar orqali belgilash tartibini
qoniqarli deb bo'lmaydi. Birinchidan, qonun
boshqaruvi doirasidan chetda qolgan masalalar
ikkinci darajali emas, chunki ular sud ekspert-
lik faoliyatining muhim jihatlarini belgilaydi. Ik-
kinchidan, umumiyligida huquqiy asos bo'lmanligi
sababli sud ekspertiza sohasidagi idoraviy nizom,
yo'riqnomalar va boshqa hujjatlar uning alohida
tomonlarini, masalan, sud ekspertining statusini
turlicha talqin qilgan.

Sud ekspertlik faoliyati uchun prinsipial
ahamiyatga ega bo'lgan talaygina masalalar
umuman huquqiy boshqaruvi doirasidan chetda
qolgan. Jumladan, sud-ekspertlik faoliyati tush-
unchasi va tashkiliy shartlari, sud ekspertizaning
prinsipleri, sud-ekspertlik faoliyatni moliyalash-
tirish, ilmiy-uslubiy ta'minlash, sud ekspertining
ijtimoiy himoyasi va boshqalar.

Shunday qilib, "Sud ekspertizasi to'g'risida"
gi qonun qabul qilinguncha sud ekspertiza instituti
uchun muhim bo'lgan jihatlar qonun darajasida
umuman tartibga solinmaganligini ko'rshimiz
mumkin.

Yuqoridaqilardan kelib chiqib hamda qonun-
chilikdagi bo'shlislarni bartaraf etish maqsadida
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
2007-yil 20-dekabrdagi 262-sonli qaroriga
muvoofiqlik Adliya vazirligi tomonidan boshqa
manfaatdor vazirlilik va idoralar bilan birgalikda
O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi
to'g'risida"gi qonuni loyihasi ishlab chiqilgan
va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga mu-
hokamasiga kiritilgan.

Mazkur Qonun O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisining Qonunchilik palatasini tomonidan

⁶ Bazarova D., Astanov I.R. Kriminalistika va
ekspertiza. Darslik. – Toshkent: TDYU, 2020. – B. 23.

ko'rib chiqilib, 2009-yil 18-noyabrdagi qarori bilan qabul qilingan va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2010-yil 7-maydagi qarori bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2010-yil 1-iyun kuni imzolangan va 2-iyundan kuchga kirgan.

Sud ekspertizaning huquqiy asosining konsepsiysi uning tartibi va mazmunini to'liq ifodalab, odil sudlovni ta'minlash uchun mustaqil malakali va xolis ekspertiza o'tkazishni kafolatlashi zarur.

Sud-ekspertlik faoliyati bilan bog'liq holda vujudga keladigan munosabatlardan murakkabligi va ko'p tarmoqliligini hisobga olib ularni huquqiy ta'riflash turli toifadagi me'yoriy aktlar bilan amalgalashiriladi. Shuning uchun sud-ekspertlik faoliyatining huquqiy asoslari deb bu sohaga oid munosabatlarni boshqarishga qaratilgan qonunlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar jamlanmasi tushuniladi. Ular qatoriga O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va ularga muvofiq qabul qilingan ijro hokimiyatining me'yoriy-huquqiy hujjatlari va boshqa majburiy tusga ega aktlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatning asosiy qonuni sifatida mamlakatda davlat tuzilishi, sud hokimiyati tizimini belgilab, sud-ekspertlik faoliyati xizmat qiladigan odil sudlovni amalgalashirish sohasiga oid davlat organlari va fuqarolar o'rtafiga munosabatlarning asosiy prinsiplarini o'rnatadi. Bunday prinsiplar qatoriga inson, uning huquqlari va erkinliklari oliy qadriyat deb tan olinishi, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, shaxsning aybsizligi prezumpsiyasi, har bir shaxs uning hayotiga aralashishdan himoyalanganligi va turar joy daxlsizligi ta'minlanishi, shaxsning huquq va erkinliklari sud orqali himoya qilinishi kafolatlanishi va boshqalar kiradi⁷.

Konstitutsiyaviy prinsiplar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonunida ham o'z o'rni topgan (4-8-moddalar).

"Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonun sud ekspertizaga oid huquqiy hujjatlar tizimida markaziy o'rinni egallagan. Uning o'rni qabul qilinishidan maqsad va vazifalari bilan belgilanadi. Mazkur qonun O'zbekistonda huquq tarixida sud

⁷<https://lex.uz/docs/20596> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.

ekspertizani tashkil qilish va o'tkazish masalarini boshqaradigan birinchi maxsus qonundir. Ushbu qonunning asosiy afzalligi – sud ishlarini yuritish turlaridan qat'i nazar, demokratik prinsiplarga asoslangan sud-ekspertlik faoliyatini tartibga soluvchi umumiy me'yirlarni qamrab olishidir.

Qonunda shu sohaning asosiy tushunchalari, sud-ekspertlik faoliyatining asosiy prinsiplari, davlat sud ekspertizasi muassasasi rahbari va sud ekspertining huquq va majburiyatları, sud ekspertizani o'tkazish, sud-ekspertlik faoliyatining moliyaviy, tashkiliy, ilmiy-uslubiy va axborot bilan ta'minlash hamda boshqa masalalari yoritilgan.

"Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonun mavjud protsessual qonunlardagi ularning xususiyatlarini inobatga olgan sud ekspertiza masalalariga oid moddalarning o'rni bosmaydi, ularni takrorlamaydi va bekor qilmaydi. Mazkur qonun harakatdagi protsessual kodekslarga nisbatan sud ekspertiza masalalarida umumlashtiruvchi, to'ldiruvchi va aniqlik kirituvchi vazifasini bajaradi.

"Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonunda ilk bor demokratik tamoyillarga javob beradigan sud-ekspertlik faoliyatining prinsiplari o'z aksini topgan (4-8-moddalar)⁸. Bu prinsiplar O'zbekiston qonunchilik prinsiplariga mos bo'lib, shu vaqtning o'zida umuminsoniy qadriyatlarga ham mosdir. Ular qatorida qonuniylik, inson huquq va erkinliklariga rivoja qilish, sud ekspertining mustaqilligi, ekspert tekshirishlarining xolisligi, ekspert tekshirishlarining har tomonlamaligi va to'liqligi, tekshirishlarining ilmiy asoslanganligi tushunchalari aniq va ravshan yoritilgan.

Qonun sud ekspertining mavqeyi, unga qo'yiladigan talablar, uning protsessual mavqeyi masalalarini to'liq yoritib bergan. Jumladan, sud ekspertlari uchta alohida toyifaga ajratilgan (10-modda). Bular – davlat sud eksperti, boshqa tashkilot xodimi, boshqa jismoniy shaxs.

Qonunda sud ekspertlik faoliyatining eng muhim jihatlaridan biri bo'lgan sud ekspertining mustaqilligi va buning kafolatlariga katta e'tibor qaratilganini ta'kidlab o'tish joiz. Bu talab sud ekspertizaning asosiy prinsiplari qatoriga kiritilgan (7-modda) va boshqa moddalarda ham o'z aksini topgan, jumladan, tadqiqotlarni shaxsan ekspertning o'zi o'tkazadi (7-, 19-moddalar), rahbar tomonidan ekspertga fikrlari mazmunini

⁸<https://lex.uz/docs/1633102> O'zbekiston Respublikasi "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonun.

belgilovchi ko'rsatmalar berish taqiqlanganligi (14-modda). ekspertni xulosa berishdan oldin so'roq qilish taqiqlanishi (10-modda), ekspertning protsessual huquqlari (15-modda), ekspertning ijtimoiy muhofazasi (30-modda), ekspertga boshqa shaxslar tomonidan ta'sir ko'rsatilishi taqiqlanganligi va bu talabni buzganligi uchun javobgar bo'lishi (7, 3 1-moddalar).

Sud-ekspertlik faoliyatning asosiy qoidalari belgilaydigan qonun hujjatlari qatoriga turli sudlov tartibiga oid protsessual kodekslar kiradi. Protsessual kodekslarda sud ekspertizasini tayinlash va o'tkazishning konseptual holatlari ko'p jihatlardan bir xil bo'lsa-da, ularning har birida muayyan sudlov (jinoiy, ma'muriy, fuqarolik, xo'jalik) xususiyatlari o'z aksini topgan.

Yuqorida ayтиб o'tilganidek, sud ekspertiza masalalari eng to'liq Jinoyat-protsessual kodeksida o'z aksini topgan. Jumladan, unda boshqa kodekslarda bo'limgan sud ekspertizasiga oid moddalar mayjud bo'lib, sud ekspertiza o'tkazish shart bo'lgan holatlar, ekspertizani davlat sud-ekspertiza muassasasida o'tkazish, ekspertiza o'tkazish jarayonida protsess ishtirokchilarining huquqlari va boshqalar shular jumlasidandir.

Protsessual qonunlarga o'zgartirishlar kiritish, ularni takomillashtirish, o'z o'rniда, sud ekspertiza masalalarida ham aks etadi. Masalan, sudlov tizimiga apellyatsiya va kassatsiya instituti kiritilishi ishni tegishli instansiyada ko'rish munosabati bilan ekspert xulosalaridan dalil sifatida foydalanish tartibini belgilashga olib keldi⁹.

Sud-ekspertlik faoliyatining huquqiy asoslari orasida katta o'rinni ijro hokimiyatining me'yoriy-huquqiy hujjatlari egallagan. Masalan, mamlakatimizda sud ekspertizani isloq qilishga qaratilgan bиринчи normativ akt O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 22-iyundagi 234-sonli "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining ekspertiza xizmatini rivojlantirish to'g'risida"gi qarori bo'ldi.

"Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonun ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud ekspertiza muammolari bo'yicha kengash faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2010-yil 15-dekabrdagi 299-sonli, "Davlat sud eksperti sifatida attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 2010-yil 16-dekabrdagi 300-sonli, "Davlat sud ekspert-

⁹(O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessul kodeksining 49710, 49711, 505, 506-moddalar, FPKning 362- muddasi, XPKning 204-muddasi).

larining hayoti va sog'ligini davlat tomonidan majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 2010-yil 28-dekabrdagi 321-sonli, "Davlat sud ekspertiza muassasasi yoki boshqa korxona, muassasa, tashkilot tomonidan sud ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi Namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi 2011-yil 5-yanvardagi 5-sonli qarorlari sud-ekspertlik faoliyatini tashkil qilish va samarasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sud ekspertizasining huquqiy asoslari sifatida normativ tusga ega idoraviy hujjatlar baholaniши lozim. Tizimida sud-ekspertiza muassasalar bo'lgan vazirlik va idoralar Adliya, Sog'liqni saqlash, Ichki ishlar, Mudofaa vazirliklari, Davlat xavfsizlik xizmati va Elektron texnologiyalarni rivojlantirish markazi tomonidan sud ekspertizalarini tashkil qilish va o'tkazish masalasida qabul qilingan Nizom, Yo'riqnomma, buyruqlar shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonuni sud-ekspertiza faoliyatining huquqiy asosini yaratib, demokratik prinsiplarga asoslangan sud ekspertlik faoliyatini tartibga solish normalarini belgilab berdi. Bugungi kunda barcha davlatlarda ham fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatli himoya qilinishida, jinoyatchilikning oldini olish va uni fosh etishda sud ekspertiza tadqiqotlari natijalari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Shu bois mamlakatimizda so'nggi yillarda barcha sohalar qatori, sud-huquq tizimining muhim bo'g'inlaridan sanalgan sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish borasida ham izchillik bilan islohotlar amalga oshirilib, ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha keyingi 5 yil ichida qabul qilingan Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning tegishli farmon va qarorlariga asosan ushbu sohadagi normativ hujjatlar takomillashtirilib, sud eksperti kadrlarining kasbiy malakasini oshirish, sohani zamonaviy, yuqori aniqlikdagi tahlil vositalari bilan jihozlash, sud ekspertizasi jarayonida advokatlar hamda nodavlat sud ekspertlari ishtirokini ta'minlash orqali, odil sudlovni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xusan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qonun hujjatlarini tarqatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 8-fevraldaggi PQ-2761-son qarori ijrosini ta'minlash, X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirish, shuningdek davlat sud ekspertlarining malakasini va huquqiy bilim-



larini oshirish tizimini tashkil qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-apreldagi 206-sod “O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirish hamda sud ekspertlarining malakasini oshirish tizimini tashkil qilish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazining Buxoro, Jizzax, Navoiy va Namangan hududiy bo‘limlari hamda Sud ekspertlarining malakasini oshirish o‘quv markazi tashkil etildi. Sud ekspertlarining malakasini oshirish o‘quv markazining asosiy vazifalari etib O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimidagi sud ekspertlarining malakasini va huquqiy bilimlarini, shuningdek, boshqa sud ekspertlarining huquqiy bilimlarini oshirish bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil qilish, muntazam ravishda sud ekspertlarining nazariy va huquqiy bilimlari hamda amaliy ko‘nikmalarini oshirish, ishchanlik va kasbiy fazilatlarini takomillashtirish, o‘quv jarayoniga huquqiy fanlar, sud ekspertizasi va ekspertlik amaliyotiga oid ilg‘or yutuqlarni o‘rganishni joriy qilish va sud ekspertlik faoliyati bo‘yicha amaliy takliflar, tavsiyalar va qo‘llanmalarni ishlab chiqish belgilandi.

Hozirgi kunda Markazda sud ekspertlarining malakasi va huquqiy bilimlarini zamon talablari darajasida oshirish maqsadida O‘quv markazi faoliyati yo‘lga qo‘ylgan bo‘lib, O‘quv markazi da barcha davlat sud ekspertiza muassasalari ekspertlarining huquqiy bilimlarini oshirish hamda yangi tashkil etilayotgan nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari ekspertlarini ham qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish ishlari amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi sud-tibbiy xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4049-sod qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorga asosan Sud-tibbiy ekspertiza bosh byurosi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi etib qayta tashkil etildi. Markazning Toshkent shahar filiali tashkil qilindi.

Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar natijalarini sud-ekspertiza faoliyatiga tatbiq qilish, sud ekspertizalarini o‘tkazish uslublarini takomillashtirish, sud-tibbiy ekspertiza faoliyatiga zamонавиу axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadallik bilan joriy etish kabi vazifalar belgilandi.

2019-yil 17-yanvar kuni qabul qilin-gan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq amaliyotda ilk bor nodavlat tashkilotlar tomonidan sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asoslari yaratildi. Shu bilan birga mazkur qaror bilan 2019-2020-yillarda sud ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha 25 banddan iborat “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. Mazkur qarorning qabul qilinishi sud ekspertlik faoliyatida yangi qadamlar qo‘yilishiga sabab bo‘ldi. Jumladan, Respublika sud ekspertizasi markazi barcha sharoitlarga ega yangi binoga ko‘chirildi, mavjud laboratoriya jihozlari jahon standartlariga javob beradigan, eng zamонавиу asbob-uskuna va texnologiyalar bilan ta’mindandi. Markaz laboratoriyalarini xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida, 2020-yilda

BMTning giyohvandlik va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha Markaziy Osiyodagi mintaqaviy vakolatxonasi ko'magida "Tadqiqot va kalibrovka laboratoriyalari vakolatliliga qo'yildigan umumiy talablar" ISO/IEC 17025 xalqaro standartiga muvofiq akkreditatsiya qilinib, muvofiqlik sertifikatiga ega bo'ldi. Mazkur akkreditatsiya Markazga tadqiqotlarni xalqaro standartlar darajasida bajarish imkonini beradi, bu esa olin-gan natijalarning barcha tomonlar va ishtirokchilar tomonidan tan olinishini ta'minlaydi. Ya'ni, ISO 17025 standart talablari bo'yicha xalqaro akkreditatsiyadan o'tish laboratoriylar tomonidan berilgan tadqiqot natijalarining (xulosalarning) xalqaro miqyosda shubhasiz tan olinishi, fuqarolarning buzilgan huquq va manfaatlari ishonchli himoya qilinishiga va odil sudlov ta'minlashiga xizmat qiladi.

Sud ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida tarixda ilk bor 2021-yil 5-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon bilan O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning 2021–2025-yillarga mo'ljallangan konsepsiysi tasdiqlandi. Konsepsiyaning asosiy maqsadi xalqaro normalar va standartlar talablarini hisobga olgan holda, sudsular va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ishonchli sud ekspertizasi xulosalariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, sud-ekspertlik faoliyatini tizimli takomillashtirib borish, barqaror va ilmiytalabga javob beradigan sud ekspertizasi tizimini shakllantirish, sud jarayonlarida jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, qonuniy manfaatlari himoyasini kuchaytirish hamda sud ekspertlari xolisligi, mustaqilligini ta'minlashdan iborat. Konsepsiya bo'yicha 2021–2023-yillarda amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan "yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Unda sohadagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, sud-ekspertlik amaliyotini kengaytirish hamda sud ekspertizalari sifati va ishonchlilagini oshirish, sohaga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini ko'paytirish, nodavlat sud ekspertizasi institutini va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, sohaning moddiy-texnik bazasini va kadrlar salohiyatini mustahkamlash kabi bir qator ustuvor yo'nalishlar belgilandi. Shuningdek, Farmon bilan sud ekspertizasi muassasalariga ilmiy-uslubiy ko'mak ko'rsatish, uslubiy qo'llanmalarni tanqidiy ko'rib chiqish va amaliyotga uyg'unlash-

tirish maqsadida Respublika sud ekspertizasi markazi tuzilmasida yuridik shaxs tashkil etmagan holda, Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Shuningdek, Farmonga muvofiq iqtisodiy, fuqarolik va ma'muriy ish yuritishda advokatning sud ekspertizasi tashkilotlarida shartnomalar asosida ekspertiza o'tkazish tashabbusi bilan chiqishiga ruxsat berildi. Mazkur huquq odil sudlov jarayonida tomonlarning tortishuvi, mustaqilligi va qonun ustuvorligi prinsiplarini ta'minlash maqsadida sud va tergov organlaridan mustaqil ravishda ekspertiza tayinlash orqali advokatlar faoliyatini yuksaltirishga zamin yaratadi.

Farmondagi yana bir e'tiborli jihat, nodavlat sud ekspertlarining o'z kasbiy majburiyatlarini buzishi oqibatida yetkaziladigan zarardan jismoniy va yuridik shaxslarni himoya qilish maqsadida nodavlat sud ekspertizasi tashkiloti sud ekspertlarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish tartibi va ularni har uch yilda bir marotaba attestatsiyadan o'tkazish tizimi joriy qilinadi.

Yuqorida qayd qilingan Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida bir qator Hukumat qarorlari qabul qilindi. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-noyabrda qabul qilingan "Sud ekspertiza sohasini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 706-son qaroriga asosan bir qator hujjatlar tasdiqlanib, sud ekspertiza faoliyatiga tatbiq etildi. Xususan, sud-ekspertiza sohasida dual ta'lim prinsipi asosida kadrlarni tayyorlash tizimi yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga mazkur qaror bilan Nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti sud ekspertlarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalari hamda 51 xil sud ekspertizasi turlarini o'z ichiga olgan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq o'tkazilishi mumkin bo'lgan sud ekspertizasi turlari bo'yicha tadqiqotlar ro'yxati tasdiqlandi.

Farmon ijrosi yuzasidan, 2022-yilning 3-avustur kuni qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi 786-sonli qonuni bilan mamlakatimizda ilk bor iqtisodiy, fuqarolik va ma'muriy ish yuritishda advokatga sudga qadar tayyorgarlik va sud jarayonida ekspert xulosasini sud muhokamasida taqdim etish uchun davlat va nodavlat sud-ekspertiza muassasalarida shartnomalar asosida advokat so'rovi bilan ekspertiza o'tkazish tashabbusi huquqi berildi. Bu o'z navbatida sudda

tortishuv instituti to'laqonli ta'minlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Hukumatning 2022-yildagi 705-sonli qaroriga muvofiq Sud ekspertlarining faoliyatini reyting tizimida baholab borish tartibi belgilandi, shuningdek, Adliya vazirligi huzuridagi Sud-ekspertlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi.

Sud ekspertizasi sohasidagi islohotlar davom ettirilib, Prezidentimiz tomonidan 2022-yil 8-fevralda imzolangan "Ichki ishlar organlari ning Ekspert-kriminalistika faoliyatini zamonaviy ilm-fan yutuqlarini keng joriy etgan holda yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 122-sonli qaror bilan Ichki ishlar vazirligi Ekspert-kriminalistika bosh markazi tuzilmasida Genetik tadqiqotlar va Shaxsnинг genom axborotini davlat ro'yxatiga olish bo'limlarini tashkil etish belgilandi.

Shuningdek, Qaror bilan raqamli texnologiyalarni, kriminalistikaning yangi ilmiy usul va vositalarini qo'llash, zamon talablariga mos avtomatlashtirilgan kriminalistik axborot qidiruv tizimlari va axborot bazalarini yaratish hamda shaxsga doir biometrik ma'lumotlar (genomga oid axborot, yuz qiyofasi, qo'l barmoq izlari) asosida avtomatlashtirilgan identifikasiya tizimlarini qo'llash kabi ustuvor vazifalar belgilandi.

So'ngi islohotlar natijasida, sohadagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va rivojlantirish yuzasidan samarali ishlarni amalga oshirishga erishilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonunning yangi tahrirdagi loyihasi ishlab chiqildi. Mazkur yangi tahrirdagi qonun loyihasida quyidagilar qamrab olindi:

- sud ekspertlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalalarini takomillashtirish;
- nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarining maqomi, ularga qo'yiladigan talablar, ular tomonidan sud ekspertizalari va tadqiqotlarini o'tkazish tartib-taomili hamda ish reglamentlarini belgilash;

– nodavlat sud-ekspertlik faoliyatini metodik ta'minlash hamda tartibga solish mexanizmini joriy etish;

– jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarga asosan ekspertlar tomonidan beriladigan mutaxassis fikrini berish; qayta ekspertiza o'tkazish vakolati beriladigan ekspertlar reestrini yuritish tizimini joriy etish va unga kiritishga doir talablarni belgilash; maxsus vakolatli organning huquq va majburiyatlarini belgilash; sud ekspertlari tomonidan qasamyod qabul qilish va kasb-etika qoidalarini belgilash;

– sud-ekspertlik faoliyatining yanada ishonchiliginи oshirish maqsadida akkreditatsiya va validatsiya institutlarini joriy etish kabi masalalar o'rinni organ.

Hozirda mazkur qonun loyihasi tegishli manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlab chiqilib, Adliya vazirligi orqali Vazirlar Mahkamasi ga kiritilgan.

Yuqorida sanab o'tilgan islohotlar natijasida Respublikadagi sud ekspertiza tashkilotlarida sud ekspertiza tadqiqotlarini amalga oshirishning huquqiy asoslari mustahkamlandi va zamonaviy imkoniyatlari yaratilib, sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda jismoniy va yuridik shaxslarning malakali sud ekspertiza tadqiqotlariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash bo'yicha barcha sharoitlar yaratildi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Sud ekspertizaning huquqiy asoslari mun-tazam rivojlanib bormoqda. Ularni takomillashtirish va ijrosini ta'minlash odil sudlovni amalga oshirishning muhim sharti bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida qayd etilgan normativ hujjalarda nazarda tutilgan islohotlar mamlakatimizda sud ekspertizasini yanada rivojlantirish, sud ekspertiza tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar, yuridik va jismoniy shaxslarning malakali ekspertiza tadqiqotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonuni. Toshkent sh., 2010-yil 1-iyun, № O'RQ-249 <https://lex.uz/acts/-1633102>
 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6256-son farmoni. <https://lex.uz/docs/-5491507>
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagagi "Ichki ishlar organlarining Ekspert-kriminalistika faoliyatini zamonaviy ilm-fan yutuqlarini keng joriy etgan holda yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 122-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-5851527>

ZAMONAVIY TEXNIK VOSITALAR YORDAMIDA VOQEA JOYINI KO'ZDAN KECHIRISH VA NATIJALAR OLISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

*SAIDOV
Muhiddin Sadirovich
O'zbekiston Respublikasi
FVV Yong'in xavfsizligi va
favqulodda vaziyatlar muammolari
ilmiy-tadqiqot instituti
t.f.f.d. (PhD)*

ANNOTATSIYA:

Maqolada portlash va yong'in bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar joyini ko'zdan kechirishi aerofoto va video tasvirga olishda uchuvchisiz uchish qurilmalaridan foydalanish orqali samadorlikka erishish jihatlari yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: portlash, yong'in, uchuvchisiz uchish qurilmalari, foto-video tasvir, voqeа joyini ko'zdan kechirish, matematik hisoblar, ekspertiza tadqiqoti.

ANNOTATION:

The article gives information about aspects of achieving efficiency through the use of drones in aerial photography and video imaging of explosion and fire emergencies.

Key words: explosion, fire, drones, photo-video image, inspection of the scene, mathematical equations, expert research.

АННОТАЦИЯ:

В статье освещены аспекты достижения эффективности за счёт использования беспилотные летательные аппаратов (дрон) при осмотре места чрезвычайных ситуаций, для аэрофото и видео съемке, связанных со взрывами и пожарами.

Ключевые слова: взрыв, пожар, беспилотные летательные аппараты, фото и видео съемка, осмотр места происшествия, математические расчёты, исследование в рамках экспертизы.

Portlash va yong‘in bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lgan joylarda uchuvchisiz uchish qurilma (UUQ)laridan foydalanishning afzalligi – yuqori tezlik va aniq natijalar bilan ta’minlashligidir. Uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanish qidiruv ishlariga ketadigan vaqtini yetarlicha kamaytiradi. Shu bilan birga UUQLar yetib borish qiyin bo‘lgan joylardagi obyektlarni aniqlay oladi hamda eng past balandlikda va shahar ichida foydalanish qulay. Manyovr bajarish uchun o‘lchamlari kichikligi sababli juda qulay [1; 2;]. Falokat epitsentridera ishlay olishi va ekspertlar xavfsiz joyda qolishini ta’minlay olishi ham uning afzalliklari qatoriga kiradi. Sababi, UUQLar masofadan turib boshqarilishi natijasida xodimlar falokat joyi epitsentriga borib hayotlarini xavfga qo‘yishlariga zarurat qolmaydi. Teplovizor bilan jihozlangan UUQLar inson ko‘zi bilan payqamaydigan obyekt yoki insonlarni aniqlay oladi. Shuningdek, UUQLar voqealoyida tungi vaqtida ishlashga qulaylik yaratish maqsadida maxsus yoritish qurilmalari bilan ham jihozlanishlari mumkin. UUQLariga o‘rnatalgan teplovizorli ko‘rish kamerasi uni ko‘plab sohalarda ishlatilishi mumkin bo‘lgan kuchli vositaga aylantiradi. Teplovizorlar bilan jihozlangan dronlar ko‘plab ilovalarga ega bo‘lib, deyarli barcha obyektlar va materiallardan keladigan issiqlikni aniqlaydi, ularni tasvir va videolarga aylantiradi. Malakali UUQ operatori keng qamrovli mutaxassis bo‘lib, bir vaqtning o‘zida bir nechta harakatlarni amalga oshirishga qodir bo‘lsa, to‘g‘ri koordinatsiya qilishi natijasida ofatlarni bartaraf etishda nisbatan kam

xodimlar talab etilishi mumkin. Favqulodda vaziyatlarni tadqiq va ekspertiza qilishda UUQLardan foydalanishning afzalliklari:

- portlash va yong‘in bilan bog‘liq favqulodda vaziyat maydoni, tarqalish yo‘nalishlari va tezligini aniqlash;

- portlash va yong‘in bilan bog‘liq favqulodda vaziyat o‘choqlari (markazi) va ularning koordinatalarini, yong‘inning taxminiy sabablarini aniqlash;

- ma’lum hududda radiatsion va kimyoviy razvedka o‘tkazish;

- portlash va yong‘in bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlar hududlari va zararlangan obyektlarning aniq koordinatalarini aniqlash;

- portlash va yong‘in bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda qatnashayotgan kuch va vositalar harakatini monitoring va razvedka qilish;

- qidiruv-qutqaruv kuchlarini favqulodda vaziyatni bartaraf etishda kuzatib borish.

Ko‘rinishi va bajaradigan funksiyasiga qarab barcha turdag‘i UUQLar ikki turga bo‘linadi: uchuvchisiz samolyot va uchuvchisiz vertolyotlarga. Favqulodda vaziyat sodir bo‘lgan joyni tekshirish oldindan belgilangan vazifaga muvofiq yoki operator tomonidan tezkorlik bilan o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan parvoz marshruti bo‘ylab amalga oshirilishi mumkin. Uchuvchisiz uchish apparatlari kuzatuv tizimlari, bort radar tizimlari, sensorlar va videokameralar bilan jihozlangan bo‘ladi.


1-rasmida FVV ekspertiza bo‘linmalari tizimida foydalanishda bo‘lgan UUQLar ko‘rsatilgan bo‘lib, ularning texnik imkoniyatlari yuqori hisoblanadi. DJI Mavic Pro turidagi UUQda portlash va yong‘in bilan bog‘liq favqulodda vaziyat sodir bo‘lgan obyekt maydon



UUQ DJI Phantom 4



UUQ DJI Mavic Pro UUQ



Hubsan Zino 2

1-rasm. FVV ekspertiza bo‘linmalarida foydalanishda bo‘lgan UUQLar

jihatdan ham, balandlik jihatdan ham kengligi jihatdan ham katta o'lchamlarga ega bo'lishi mumkin. Shu munosabat bilan favqulodda vaziyat sodir bo'lgan joyni tekshirishda UUQlardan foydalanish istiqbolli va dolzarbli o'z isbotini topdi. Favqulodda vaziyat sodir bo'lgan joyni tekshirishda UUQlardan foydalanish favqulodda vaziyat joyida yaxshiroq harakatlanish, uning turi, lokalizatsiya joylari, tarqalish tezligi va yo'naliishlari to'g'risida operativ ma'lumot olish va berish, shuningdek, eng og'ir issiqlik zonasini hamda aniq vayronagarchilikning kattaligi, materiallar va inshootlarning termik shikastlanish darajasini aniqlash imkonini beradi.

Uchuvchisiz uchish apparatlari voqeа joyida tasvirga olish va taqdim etishni ta'minlash bilan birga, ekspertlarga hamda FVV inspektorlari voqeа joyida harakatlarini to'g'ri muvofiqlashtirishiga yordam beradi.

1-jadval

"Mavic Pro" turidagi UUQ o'tkazilgan tadqiqot natijalari

UUQ	Video-kamerasining burilish burchagi	10 metr balandlikda ko'rish maydoni	20 metr balandlikda ko'rish maydoni	30 metr balandlikda ko'rish maydoni
Mavic Pro	84°	16x8 metr o'lchamdagи maydonni yoki 128 kvm maydonni	34x20 metr o'lchamdagи maydonni yoki 680 kvm maydonni	50x26 metr o'lchamdagи maydonni yoki 1300 kvm maydonni

1-rasmda keltirib o'tilgan UUQ qurilmasini 10, 20 va 30 metr balandlikka ko'tarib, kuzatuv kamerasi 84° burchak ostida qancha maydonni qamrab olinishi o'rganildi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirildi. Zamonaviy texnik vositalardan foydalangan holda favqulodda vaziyatlar joyida tadqiqot va ekspertiza o'tkazish usullarini takomillashtirish orqali har qanday xavf ekspertlarning hayotiga xavf solmasligi imkoniyatini yaratadi. Tasvirga oladigan va teplovizorli kameralar bilan jihozlangan UUQ tutunlangan zona, ko'rish cheklangan joylar, borishning imkoniyati yo'q joylarda insonlarni aniqlashga imkon beradi. Ma'lumotlarni tezkor shtabga real vaqtida yuboradi hamda shtab tomonidan tezkor va aniq ma'lumotlar qabul qilinishiga imkoniyat beradi. Favqulodda vaziyatlar joyida uchuvchisiz uchish apparatlaridan quyidagi hollarda foydalanish maqsadga muvofiqligi aniqlandi. Jumladan:

- tabiiy ofat zonalarida odamlarni qidirish va qutqarish;
- favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha qarorlar qabul qilish uchun favqulodda vaziyatning yuzaga kelish nuqtalari haqidagi ma'lumotlarni real vaqtida ekranga chiqarish;
- tabiiy ofat bilan qoplangan hududning kartografik xaritasini yaratish;
- dori va zarur vositalar yetkazib berish orqali jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish;
- hamkorlikda harakatlarni muvofiqlashtirish maqsadida favqulodda vaziyatlar xizmatlari faoliyatini monitoring qilish;
- favqulodda vaziyatlardan eng ko'p zararlangan joyni aniqlash;
- favqulodda vaziyatlar tarqalish yo'li, epitsentrini aniqlash maqsadida tadqiqotlarda foydalanish;
- tunda maxsus jihozlangan kameralar yordamida favqulodda vaziyatlar joyini uzluksiz kuzatib turish.

Favqulodda vaziyat sodir bo'lgan obyektni yuqorida ko'rish va favqulodda vaziyat portlash oqibatida eng ko'p zarar ko'rgan joyni aniqlash maqsadida, dronni 130 metr balandlikka ko'tarib, dron kamerasini 84 darajagacha burib ko'rolganda, portlash oqibatida eng ko'p zarar ko'rgan joy, ya'ni epitsentri, binoning shimoli-sharqiy tomonidagi darvozadan birinchi qavatga kirilganda



2-rasm “Mavic Pro” markali UUQda real sharoitda olib borilgan tadqiqot

g‘arbiy tomondagi devordan taxminan 15 metr, binoning shimoliy devordan taxminan 10 metr uzoqlikdagi temir-beton kolonnalar orasi ekanligi ma’lum bo‘ldi (2-rasm). Ushbu obyektga kirib o‘rganilganda mazkur joydagi kolonnalar eng ko‘p shikastlanganligi hamda obyekt ichida tadqiqot olib borish hayot uchun xavfli ekanligi aniqlandi.

2022-yil mart oyida Toshkent shahri Chilonzor tumanida joylashgan ko‘p tarmoqli omborxonada sodir bo‘lgan favqulodda vaziyatda uning eng ko‘p rivojlangan yoki shikastlangan (zararlangan) joyini aniqlash maqsadida, dronni 115 metr balandlikka ko‘tarib, dron kamerasini 72 darajagacha burib ko‘rilganda, favqulodda vaziyat oqibatida eng ko‘p zarar ko‘rgan joy, ya’ni epitsentri, binoning janubisharqiyl tomonida ekanligi ma’lum bo‘ldi (3-rasm). Ushbu omborga kirib o‘rganilganda favqulodda vaziyatni boshlanish joyi elektr tarqatish qutisi ekanligi va bino konstruksiyalari termik shikastlanishi natijasida qulash xavfi yuqori ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Portlash va yong‘in bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlar joyini ko‘zdan kechirish va ekspertiza o‘tkazish usulini takomillashtirish maqsadida taklif etilgan ishlarning bajarilishini ko‘rib chiqish va to‘g‘riligini asoslash maqsadida 1-matematik formula ishlab chiqilishi asosida ilmiy asoslandi. Ya’ni ekspertiza tadqiqotining 1-formula yordamida va ketma-ketlikda olib borilishi hamda vaqt sarflarini hisoblash taklif etiladi. Bunda ekspertiza tayinlangan kundan voqeа joyini ko‘zdan kechirish, portlash yoki yong‘in o‘chog‘ini, uning tarqalish yo‘llarini aniqlash hamda foto-video tasvirga olishga sarflanadigan vaqt ifodalangan [3,4,5.].



3-rasm “Mavic Pro” markali UUQda real sharoitda olib borilgan tadqiqot

$$\tau_{\text{БЖТ}} = \tau_{\text{ТВҴ}} + \tau_{\text{БЖК}} + \tau_{\text{ФВҴ}} + \tau_{\text{ФВТЯ}} + \tau_{\text{БЖФ/Б}}$$

Bu yerda: $\tau_{\text{БЖТ}}$ – portlash va yong‘in bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlar joyini ko‘zdan kechirishga sarflangan vaqt; $\tau_{\text{твҴ}}$ – voqeа joyidagi tezkor vaziyatni o‘rganishga sarflangan vaqt (aerofoto-video tasvirga olish); $\tau_{\text{вжк}}$ – voqeа joyini ko‘zdan kechirishga sarflangan vaqt (aerofoto-video tasvirga olish); $\tau_{\text{фвҴ}}$ – favqulodda vaziyat o‘chog‘ini aniqlashga (ekstremal tadqiqot va guvoh yoki maxsus fuqarolar bilan suhbatlashish orqali) (aerofoto-video tasvirga olish) sarflangan vaqt; $\tau_{\text{фвтя}}$ – favqulodda vaziyatning tarqalish yo‘llarini aniqlashga sarflangan vaqt (aerofoto-video tasvirga olish); $\tau_{\text{вжф/б}}$ – voqeа joyida foto-video tasvirga olishga sarflangan vaqt;

O‘tkazilgan dala tadqiqotlari asosida UUQ va video kuzatuv qurilmalaridan foydalangan holda favqulodda vaziyatlar joyida tadqiqot va ekspertiza o‘tkazish usullarini takomillashtirishning matematik ifodasi quyidagi ko‘rinishda taklif etildi. Favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lgan joyda ekspertizani o‘tkazishga sarflangan vaqtini $\tau_{\text{зввjt}}$ – matematik ifodalasak.

$$\tau_{\text{ЗВВЖТ}} = \tau_{\text{ууқ}} + \tau_{\text{вкм}} + \tau_{\text{ома}} + \tau_{\text{мкни}}$$

Bu yerda: $\tau_{\text{ЗВВЖТ}}$ – zamonaliv yositalar yordamida portlash va yong‘in bilan bog‘liq favqulodda vaziyat joyini tadqiq qilishga sarflangan vaqt; $\tau_{\text{ууқ}}$ – UUQlar orqali tasvirlar olish vaqt; $\tau_{\text{вкм}}$ – tezkor YTLga o‘rnatilgan videokuzatuv moslamasidan foto va videotasvirga olish vaqt; $\tau_{\text{ома}}$ – tezkor boshqaruв shtabi bilan onlayn ma’lumot almashishga sarflanadigan vaqt; $\tau_{\text{мкни}}$ – ma’lumotlarni qayta ishlashga sarflanadigan vaqt.

Mazkur samaradorlikka erishishni quyidagi 2-jadvalda va 3-formulada keltirilganlardan ko'rish mumkin.

2-jadval

Portlash va yong'in bilan bog'liq favqulodda vaziyat joyini ko'zdan kechirish va ekspertiza o'tkazish vaqtini takomillashtirish bo'yicha solishtirma jadvali:

Matematik ifoda yordamida ekspertiza o'tkazishga sarflanadigan vaqt, daqiqa		UUQni qo'llagan holda ekspertiza o'tkazishga sarflanadigan vaqt, daqiqa	
τ_1	daqiqa	τ_2	daqiqa
Texnik ekspertiza o'tkazish vaqtida voqeа joyini ko'zdan kechirish usullari samaradorligini hisoblash			
τ_{tvo}	720		
τ_{vjk}	1440		720
$\tau_{fvo'a}$	720		
τ_{fvtea}	720		
$\tau_{vjf/va}$	60	τ_{zvvjt}	
τ_{vjt}	3660		720

$$\tau_{cx} = \frac{\tau_2}{\tau_1} * 100\% = \frac{720}{3660} * 100\% = 19,67\%$$

Bu yerda: τ_{sx} – erishiladigan samaradorlikni hisoblash; τ_1 – ekspertiza o'tkazishga sarflanadigan umumiy vaqt yoki kun; τ_2 - ekspertiza o'tkazishda uchuvchisiz uchish qurilmalaridan foydalanish orqali sarflanadigan vaqt. 3.4-jadvaldan ko'rish mumkinki tezkor vaziyatda texnik ekspertiza





o‘tkazish jarayonida uchuvchisiz uchish qurilmalarini qo‘llash 19,67% gacha samara berishi isbotlandi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra uchuvchisiz uchish qurilmalari yordamida texnik ekspertiza o‘tkazishda voqeа joyini ko‘zdan kechirish, aerofoto-videoatasvirga olish, olingan natijalarni rasmiylashtirishga sarflanadigan vaqtни tejash samaradorligini 19,67% gacha oshirish mumkinligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Емельянова О.В., Поляков Р.Ю., Ефимов С.В., Ятсун С.Ф. Мобильный летательный комплекс для раннего обнаружения очагов возгорания // Известия Юго-Западного государственного университета. МГУ–2018. – № 2 (77)
2. Емельянова О.В., Поляков Р.Ю., Ефимов С.В., Ятсун С.Ф. Мобильный летательный комплекс для раннего обнаружения очагов возгорания. // Фундаментальные и прикладные проблемы техники и технологий, НИИ механики МГУ – 2018. –№ 3 (329)
3. Saidov M.S., Suleymanov A.A. Texnik ekspertiza jarayonida voqeа joyini ko‘zdan kechirishni takomillashtirish usullari // FAN MUHOFAZA XAVFSIZLIK. – Toshkent, 2022. - №1(8).
4. Сулейманов А.А., Толибов О.С., Мусаев М.Н., Абдурахманов М.Р. Теория вероятности для обеспечения безопасности сложных систем. В сборнике: Инновации, качество и сервис в технике и технологиях. Сборник научных трудов ВИИИ Международной научно-практической конференции. Ответственный редактор А.А. Горохов. 2018.
5. Saidov M.S., Suleymanov A.A. Favqulodda vaziyatlar yuzasidan ekspertiza o‘tkazishning ilmiy-texnik yechimlarini takomillashtirish asoslari// Yong‘in-portlash xavfsizligi – Toshkent, O‘zR FVV Akademiyasi, Toshkent № 1 (8).

ANNOTATSIYA

Maqolada sud elektrotexnikaviy ekspertizasining joriy etilishi, ushbu tur ekspertizasi obyektlari, tadqiqotlari, bugungi kundagi imkoniyatlari va hal etadigan masalalari to'g'risida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: ekspertiza, elektr energiya, energiya turlari, texnik nosozlik, mikroskop, rentgen, elektr uskuna, moslama va jihozlar.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассказывается о внедрении «Судебно-электротехнической экспертизы», исследования её объектов, решения задач и возможности на сегодняшний день данного вида экспертизы.

Ключевые слова: Экспертиза, электрическая энергия, виды энергии, техническая неисправность, Микроскоп, Рентген, электрооборудование, приборы и оборудование.

ANNOTATION

This article talks about the introduction of «Forensic electrotechnical expertise», the study of objects, problem solving and the possibility of this type of expertise today.

Key word: expertise, electrical energy, types of energy, technical failure, microscope, X-ray, electrical equipment, instruments and equipment.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi 4125-sonli "Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazida 2020-yili Yong'in texnik ekspertizasi laboratoriyasida yangi tur "Sud elektrotexnikaviy ekspertizasi" joriy etildi.

Ushbu tur ekspertizasi oldiga qo'yilgan masalalarni mukammal hal etish maqsadida, ekspertlar tomonidan elektrotexnika eksper-tizasining nazariy jihatlari o'rganildi, bunda, mutaxassislikka doir adabiyotlar bilan yaqindan tanishildi, mazkur ekspertizaning dolzarblik ahamiyati va mavjud uslubiyotlar o'rganilib, mutaxassislikka oid dolzarb mavzuda ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Shuningdek, elektrotexnika ekspertizasini o'tkazish uchun talab etiladigan mutaxassislar, mazkur ekspertizaning fani, obyektlari, ekspertiza oldiga qo'yiladigan masalalar, vakolatidagi savollar doirasi va ushbu ekspertiza hal etadigan masalalarni yechish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar o'rganib chiqildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi 5997-sonli "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

farmonida (2-bob) sud ekspertizasi sifatini izchil yaxshilash, sud ekspertizasi amaliyotiga yangi innovatsion ishlanmalarни joriy etish, ekspert tadqiqotlarining turlari, xususan, sud-psixologik va sud-elektrotexnik ekspertizalari, oziq-ovqat mahsulotlari sud ekspertizalarining sifati va ishonchliligin oshirish masalasi qo'yilgan bo'lib, bu borada ushbu tur ekspertizasini rivojlantirish maqsadida bir qator ishlar bajarildi.

2019-2020-yillarda Markazning Yong'in texnik ekspertizasi (YTE) laboratoriyasida qaror ijrosi yuzasidan elektrotexnikaviy ekspertiza o'tkazish yuzasidan uslubiyotni boyitish, elektrotexnikaviy obyektlarni tekshirish usullarni o'rganish, yangi usullarni ishlab chiqish, mavjud usullarini takomillashtirish maqsadida Toshkent davlat texnika universiteti professor o'qituvchilari rahbarligida "Elektr uskunalaridagi nosozliklarni o'rganib chiqish va ularni tekshirish usullari" mavzusida ilmiy-tadqiqot ishi olib borildi. Shuningdek, ekspertlar xizmatda foydalnishi uchun "Sud elektrotexnika ekspertizasi va uning obyektlarini tekshirish usullari" uslubiy qo'llanmasi ishlab chiqildi va 2021-yilda nashr etildi.

Bundan tashqari, Yong'in texnik ekspertizasi (YTE) laboratoriyasida 2021-2022-yillarda "Sud elektrotexnikaviy ekspertizasi obyektlari – mis va alyuminiy elektr simlarida qisqa tutashuv alomatlarini va ularning yong'indan oldin va yong'in vaqtida bo'lganligini "Empyrean" rusumli (PANalytical Netherlands) rentgen uskunasi yordamida aniqlash" mavzusida ilmiy-





tadqiqot ishi olib borilib, 2022-yilda yakuniga yetkazildi va ekspertlar uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Shuni ta’kidlab o’tish kerakki, Markazda sud elektrotexnikaviy ekspertizasi tadqiqotlarini o’tkazishda “Empyrean” rusumli (PANalytical Netherlands) Rentgen difraktometri, “Axiotech” (Caurl Zess) rusumli metallografik mikroskopni kabi zamonaviy uskunalardan keng foydalaniladi.

Bugungi kunda, ya’ni XXI asrda dunyodagi aholi yashaydigan yerlarni elektr energiyasi va uning turli sohalardagi amaliy tatbiqlarisiz tasavvur etib bo’lmaydi. Elektr energiyasi jamiyat hayotining barcha jabhalarini keng qamrab olgan va undan foydalanib ishlaydigan mashinalar va mexanizmlar kun sayin takomillashib bormoqda. Chunki yangi asrda elektr energiyasi barcha energiya turlari ichida eng qulay va arzon manbaga aylandi desak mubolag‘a bo’lmaydi. Bugungi kunda dunyo olimlari elektr energiyasi ishlab chiqarishning yangi muqobil manbalarini rivojlantirish ustida ishlamoqdalar. Buning asosida, gidro elektr stansiyalari, shamol elektr stansiyalari, issiqlik elektr stansiyalari qatori, atom elektr stansiyalari, quyosh nuri elektr stansiyalari kabi zamonaviy elektr manbalari rivojlanmoqda. Shunday ekan, elektr energiyasidan foydalanib ishlaydigan barcha elektr sohasi mashina va mexanizmlarining fizikaviy asoslari va elektr energiyasidan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar yo‘q emas.

Elektr energiya shahar va qishloqlarni obodonlashtirishda katta rol o‘ynaydi. Inson hayotida elektr energiyasining ulkan ahamiyati uning yutuqlari bilan izohlanadi: elektr energiyani yirik elektrostansiyalarda ishlab chiqarish, uzoq masofalarga uzatish va turli iste’molchilar orasida





taqsimlash mumkin. Bundan tashqari, elektr energiyani boshqa energiya turlariga, jumladan elektr energiyasini issiqlik energiyasiga, elektr energiyasini mexanik energiyaga, elektr energiyasini yorug'lik energiyasiga o'zgartirish mumkin.

Elektrotexnika — elektr zanjirlarida va elektromagnit maydonlarida elektr hamda magnit energiyalarining hosil bo'lish va o'zgarish qonuniyatlarini o'rGANADIGAN fan va texnika sohasidir. Hozirgi paytda elektr energiyasi ma'lum bo'lgan barcha energiyalardan farqli o'laroq sanoatda, transportda, qishloq xo'jaligida, maishiy xizmatda va xalq xo'jaligining barcha sohalarida alohida tengi yo'q o'rIN egallaydi.

Bu energiyaning ustunlik tomonlari:

a) elektr energiyani boshqa energiyaga, yoki boshqa turdag'i energiyani elektr energiyasiga aylantirish mumkin;

b) elektr energiyasini juda katta tezlik bilan uzoq masofalarga uzatish mumkin;

d) ekologik jihatdan toza, atrof muhitni ifloslantirmaydi, o'zidan chiqindi chiqarmaydi.

Sud elektrotexnikaviy ekspertizasi diagnostik va klassifikatsion masalalarni hal etadi.

Elektrotexnika ekspertizasi elektr tarmoqlari yoki elektr jihozlarining buzilishi yoki ishdan chiqish sabablarini aniqlash uchun mo'ljallangan. Belgilangan maqsadga erishish jarayonida elektrotexnika ekspertizasi quyidagi vazifalarni hal qiladi:

o'rGANILAYOTGAN qurilma yoki elektr tarmoqidan foydalanish vaqtida aniqlangan buzilish yoki nosozlik sababini aniqlash;

tekshirilayotgan qurilma va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etilishini aniqlash;

tekshirilayotgan qurilmaning elektr tarmoqlari texnik xususiyatlariga mosligini tahlil qilish.

O'rGANILAYOTGAN qurilmaning ushbu mexanizmlar kategoriyasi uchun umumiyl qabul qilingan standartlarga javob berishini aniqlash yuzasidan tadqiqotlar o'tkaziladi.

Shuningdek, elektr uskuna va moslamalari, har xil texnikaviy qurilmalar hamda texnologik jihozlar, isitish yoki sovutish elektr jihozlaridagi nosozliklarni va bu nosozliklar nima sababdan kelib chiqqanligini aniqlash elektrotexnikaviy ekspertizaning asosiy vazifalari hisoblanadi.



Shu bilan bir vaqtida, sud elektrotexnikaviy ekspertizasi ekspertlari oldiga elektr uskuna va asboblarining ishdan chiqish mexanizmini tiklash, ya’ni uning texnik nosozligi, ishlab chiqarishda yo’l qo‘yilgan kamchilik, elektr moslama yoki uskunaning sifatsizligi, ishlatalgan detallarning nuqsonini aniqlash yoki uning ekspluatatsiyasi noto‘g‘ri qilinganligini o‘rganishga qaratilgan savollar qo‘yilishi mumkin.

Shuni e’tiborga olish lozimki, ekspert xulosalarining sifatini ta’minlashda, albatta, yangi uslub-uslubiyotlarni va yuqori sezgir kriminalistik uskunalarni, innovatsion texnologiyalarni hamda ilmiy ishlar natijalarini tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi 4125-sonli “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagи 5997-sonli “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmoni.
3. Черкасов В.Н. “Пожарная профилактика электроустановок”. – Москва, 1978.
4. Rustemov Y.K., Yunusov X.B., Asilbekov A.G. Sud elektrotexnika ekspertizasi va uning obyektlarini tekshirish usullari. – Toshkent: Adolat, 2021.

SUD-EKSPERTLIK FAOLIYATIDA KASBIY ETIKA ASOSLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

ROMADANOVA
*Taisiya Aleksandrovna,
 X. Sulaymonova nomidagi RSEM
 "Sud-ballistika va trasologik
 ekspertizasi" laboratoriyasi
 yetakchi sud-eksperti*

MUXAMEDJANOVA
*Madina Maxkamjanovna,
 "Sud-ballistika va trasologik
 ekspertizasi" laboratoriyasi
 sud-eksperti*

ANNOTATSIYA

Maqolada sud-ekspertlik faoliyatida kasbiy etika asoslari, "Sud ekspertizasi to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni hamda mazkur qonunga kiritilayotgan o‘zgarish va qo‘sishchalar tahlillari natijalarini inobatga olgan holda sud ekspertlarining kasbiy etikasining rivojlanishi va takomillashtirish masalalari o‘rganilgan, shuningdek, bu faoliyatdagi axloqiy normalarni tizimlashtirishga muayyan yondashuv taklif qilingan. Sud ekspertizasi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga kasbiy etikaga rioya qilish hamda ekspertizalarni o‘tkazishda ekspertning halloligi prinsiplarini kiritish taklif etilgan. Ma’naviy-axloqiy normalarni birlashtiruvchi yo‘nalish sifatida sud ekspertlarining kasbiy axloq kodeksini yaratish taklif qilingan.

Kalit so‘zlar: sud eksperti, sud ekspertizasi, kasbiy etika qoidalari, kasbiy etika kodeksi, prinsip, takomillashtirish, rivojlantirish.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются основы профессиональной этики в судебно-экспертной деятельности, ее развитие и совершенствование с учетом анализа Закона Республики Узбекистан «О судебной экспертизе», а также изменений и дополнений в законодательство. Предлагаются определенный подход к систематизации этических норм, включение принципа соблюдения профессиональной этики в законодательство о судебно-экспертной деятельности и принципа добросовестности эксперта при производстве экспертиз. В качестве направления унификации нравственно-этических норм представляется возможным создание четко структурированного Кодекса профессиональной этики судебного эксперта.

Ключевые слова: судебный эксперт, судебная экспертиза, норма профессиональной этики, кодекс профессиональной этики, принцип, совершенствование, развитие.

ANNOTATION

The article examines the basics of professional ethics in forensic expertise, its development and improvement, taking into account the analysis of the law «On Forensic Examination» of the Republic of Uzbekistan, as well as amendments and additions to this law, and suggests a certain approach to the systematization of ethical standards. It is proposed to include the principle of compliance with professional ethics in the legislation on forensic expertise, as well as the principle of the integrity of the expert in the production of examinations. As a direction for the unification of moral and ethical norms, it seems possible to create a clearly structured Code of Professional Ethics for a forensic expert.

Key words: a forensic scientist, a forensic examination, a standard of касбий ethics, a principle, an improvement, a development, systematization.

Kasb etikasining mavjudligi va rivojlanib hamda takomillashib borishi umuman jamiyat va xususan fuqarolik jamiyatni rivojlanishining belgisi hisoblanadi, chunki xulq-atvorning axloqiy me’yorlari davlat tomonidan emas, balki muayyan sohaning (kasbning) alohida vakillari tomonidan ishlab chiqiladi va kuchga kiradi.

Shu bois, fikrimizcha, sud-ekspertlik faoliyatida kasbiy etikani rivojlantirish va takomillashtirish, shuningdek, ushbu turdag'i kasbiy, ya’ni yuridik etikada mavjud axloqiy normalarni tizimlashtirish bilan bog‘liq masala juda dolzarbdir, chunki “kasbiy etikaning dolzarbliqi nafaqat uning tarbiya funksiyasining alohida ahamiyati bilan, balki kasbga oid vazifalarni bajarishda axloqiy rag‘batlarning rolini kengaytirish zarurati bilan ham bog‘liq” [1].

Ma’lumki, sud ekspertizasi – fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat va ma’muriy sud ishlarini yuritishda ish holatlarini aniqlashga qaratilgan hamda sud eksperti tomonidan fan, texnika, san’at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlar asosida sud-ekspert tekshirishlarini o‘tkazish va xulosa berishdan iborat bo‘lgan protsessual harakat yoki boshqacha qilib aytganda, sud ekspertizasi – bu maxsus bilimlardan foydalanishning tegishli vositalar va metodlar rivojlanishini hisobga olgan holdagi shakllaridan biridir [2]. Sud eksperti – huquqiy hamjamiatning bir vakili hisoblangani bois, sud ekspertining etikasi yuridik etikaning bir turi ekanligini tasdiqlash tabiiydir. Sud eksperizasiga oid barcha fanlar huquqshunoslik fanlarining bir tarmog‘i hisoblanadi.

Yuridik etikani alohida (mustaqil) turlarga tasniflash odad tusiga kirgan, chunki ularning har biri muayyan o‘ziga xoslikka ega.

Kasbiy etika alohida kasblarning o‘ziga xos xususiyatlari, korporativ qiziqishlari va kasbiy madaniyati bilan belgilanadi. O‘zaro o‘xshash va uzviy aloqada bo‘lgan kasbiy funksiyalarni bajaradigan odamlarda o‘ziga xos etika qoidalari shakllanadi. Har bir kasbning o‘z axloqiy muammolari bor, lekin barcha kasblar orasidan, bu kabi muammolar ayniqsa tez paydo bo‘ladigan

va shuning uchun amalga oshiriladigan funksiyalarning axloqiy tomoniga e'tibor berishni talab qiladigan bir guruhni ajratish mumkin.

Masalan, bugungi kunda yuridik etikaning quyidagi turlari yetarli darajada rivojlangan va bir turdag'i yagona tizimlarga birlashtirilgan:

- sudyalar etikasi;
- advokatlar etikasi;
- notariuslar etikasi;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining etikasi.

Kasb etikasini bir necha jihatlarga bog'liq holda talqin qilish mumkin, ularning asosiyalarini ko'rib chiqaylik:

birinchidan, muayyan kasb vakillarining munosib xulq-atvorining muayyan axloqiy qoidalari majmuyi sifatida; “axloqiy qoidalari sud ekspertidan tergovchi, suda bilan muomala qilishda ekspert to‘g‘riso‘zlik, xushmuomalalik va bosiqlikni, o‘z xatolarini tan olishda halollik va o‘z xulosalarining ishonchlilikiga qat’iy ishonchni talab qiladi. Sud eksperting principialligi uning xulosalari manfaatdor shaxslarning fikrlaridan, jinoyat ishi materiallaridan, jinoyatchining, jabrlanuvchining shaxsidan mustaqilligida ifodalanadi” [3];

ikkinchidan, kasbiy axloq haqidagi ilmiy bilimlar sohasi sifatida – kasbning mohiyatini aks ettiradigan, mehnat jarayonida yuzaga

keladigan odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni ta'minlaydigan va kasbiy faoliyatining mazmunidan kelib chiqadigan g‘oyalar va qadriyatlar, axloqiy tamoyillar va xulq-atvor qoidalari majmuyi [4]; etikaning fan sifatida roli katta, chunki u jamiyatning axloqiy holatini o‘rganadi, bunday holatni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlaydi, jamiyatning axloqiy yo‘nalishlarini yana ham yaxshilashga qaratilgan takliflarni ishlab chiqadi;

uchinchidan, predmeti kasb etikasini muayyan kasb va fan vakillarining munosib xulq-atvorining muayyan axloqiy qoidalari majmuyi sifatida o‘rganishdan iborat bo‘lgan o‘quv fani sifatida;

to‘rtinchidan, ish jarayonida shaxsning (xodim) axloqiy o‘zini tutishi (harakatlari) sifatida.

Fikrimizcha, muayyan sud ekserti tomonidan kasbiy etikaga oid qoida va me'yorlarni (standartlar) o‘zlashtirish darajasi avvalo tarbiyaga, shaxsiy xislatlariga, jumladan, mas’uliyat, burch va nomusga bog‘liq bo‘lib, ta‘lim, mehnat jamoasining o‘ziga xos xususiyatlari va boshqalar bilan belgilanadi. Ushbu omillarni ikki guruhga birlashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- tarbiyaga bog‘liq axloqiy g‘oyalar, me'yorlar, baholar majmuyi; yaxshilik va yomonlik nima ekanligi haqidagi fikr, ya’ni axloq haqidagi g‘oyalar;



– kasbiy faoliyat bilan belgilanadigan qoidalar va me'yorlar (standartlar): tashkilotning ichki qoidalari, korporativ etika kodeksi, rahbarlarning og'zaki ko'rsatmalari hamda jamoadagi ruhiy muhit.

Etika umuman yuridik sohada, shu jumladan sud ekspertizasida ham muhim ahamiyatga ega, chunki pirovard natijada bu faoliyat turi global, masalan, siyosiy yoki iqtisodiy muammolarni emas, balki shaxsiy va mulkiy manfaatlarga ta'sir etuvchi muammolarni hal etishga qaratilgan.

Kasbiy etika sohasi mutaxassislarining fikricha, "yurist kasbiy faoliyatining xususiyatlari insonlarning huquq va manfaatlariga ta'sir ko'rsatadi va shuning uchun maxsus xususiyatlarni talab qiladi" [5].

L.E. Arosker, R.S. Belkin, A.I. Vinberg, A.M. Zinin, N.P. Mailis va boshqa kriminalist-olimlar yuridik etikaning bir turi sifatida sud ekspertining kasbiy etikasini rivojlantirishga katta hissa qo'shganlar.

Bu sohaga bo'lgan ilmiy qiziqish sud-ekspertlik faoliyatida o'ziga xos axloqiy muammolar mavjudligi bilan izohlanadi hamda ular chuqur o'ylangan holda va izchil hal etilishi lozim: "sud-ekspertlik faoliyatining axloqiy asoslari haqida gapirish oddiy va bir vaqtida murakkab masala. Oddiy – chunki, nomus (sharaf), vijdon, burch, vijdonlilik haqidagi asosiy qoidalarni sanab o'tish bilan ekspertning o'zini tutish mezonlari ayon bo'ladi. Biroq aniq, kundalik ishlarda mavhum shiorlardan foydalanish juda katta qiyinchilik tug'diradi" [6]. Shu sababli, sud eksperti kasbiy faoliyatining axloqiy nuqtayi nazardan muvofiqlashtirishni talab qiluvchi jihatlarini, shuningdek, ushbu axloqiy me'yorlarni birlashtirish yo'nalishini ko'rib chiqishga ehtiyoj seziladi.

Sud ekspertiza nazariyasiga ko'ra, sud ekspertining vakolatini ikki jihatdan ko'rib chiqish mumkin [7, C.131]. Sud ekspertining kasbiy vakolatlari, birinchidan, muayyan sud eksperti uchun, ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazishda qo'llaydigan aniq (maxsus) vakolat va kompetensiyalar, ikkinchidan, sud eksperti odil sudlov ishtirokchisi bo'lganligi sababli, protsessual-huquqiy bilim va talablardan iborat bo'ladi. Undan tashqari, fikrimizcha, sud eksperti kasbiy etika qoidalarni bilishi va amal qilishi bilan bog'liq uchinchi jihatni ham ajratish lozim.

Shu munosabat bilan, R.S. Belkinding "ekspert etikasi – ekspert kasbiy faoliyatining barcha sohalari: protsessual, tashkiliy, ishlab chiqarish va kommunikativ sohalarida umumiy axloq va o'zini tutish qoidalarni amalga oshirish hisoblanadi" [8] degan fikrlariga to'liq qo'shilish mumkin.

Kasbiy etika qoidalaringa rioya qilishning ahamiyati juda yuqori bo'lishiga qaramasdan, sud eksperti vakolatlarining (kompetensiyasi) oxirgi komponenti, ya'ni kasbning axloqiy tomoniga, odatda, kam e'tibor beriladi. Bundan tashqari, ushbu qoidalarning muvofiqlashtiruvchisi sud ekspertining vijdonidir, ya'ni subyektiv kategoriya hisoblanadi, shuningdek, davlat tomonidan sanksiyalaranmagan jamoatchilik fikridir. Shu bois, kasbiy etika qoidalarni sud ekspertlariga yetkazish uchun etika qoidalarni moddiy shaklga solish zarurati tug'iladi.

Ta'kidlashjoizki, huquqiy va axloqiy normalar o'rtaida uzviy bog'liqlik mavjud, chunki bir qator axloqiy qoidalarni tegishli normativ-huquqiy hujjalarda mustahkamlangan. Jumladan, "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunida ma'naviy va axloqiy mazmunga ega bo'lgan bir qator normalar mavjud, masalan, sud ekspertining mustaqilligi hamda tadqiqotlarning xolisligi, har tomonlamaligi va to'liqligi prinsiplari [9].

"Sud ekspertizasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 16-moddasiga binoan, sud ekspertining majburiyatları qatoriga sud ekspertizasini o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan, ishning natijasidan o'zining manfaatdor emasligini shubha ostiga qo'yadigan masalalar yuzasidan protsess ishtirokchilari bilan shaxsiy aloqaga kirishmaslik; sud ekspertizasini o'tkazish uchun mustaqil ravishda materiallar to'plamaslik; sud ekspertizasi natijalarini sud ekspertizasini tayinlagan organidan (shaxsdan) tashqari biron-bir shaxsga xabar qilmaslik kabilar kiradi [9].

Respublikamizda sud-ekspertlik faoliyatida kasbiy etikani takomillashtirish borasida ishlar boshlab yuborildi. Jumladan, sud-ekspertlik sohasini har tomonlama takomillashtirish, bu sohadagi muammolar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda mamlakatda sud ekspertizasi nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini shakllantirish, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash, sud-ekspertlik sohasini o'rta

muddatda tizimli isloh qilishning aniq chora-tadbirlarini belgilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyuldag'i "O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6256-son Farmoni qabul qilindi [10]. Mazkur Farmon bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning 2021–2025-yillarga mo'ljallangan Konsepsiyasi"da "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonunning yangi tahririni ishlab chiqish va unda sud ekspertlarining xolisligi va mustaqilligini ta'minlash, sohadagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirib borish bo'yicha bir qator dolzarb yo'nalishlar qatorida "**sud ekspertlari tomonidan qasamyod qabul qilish va kasb-etika qoidalari belgilash**"ni nazarda tutish belgilandi.

Ta'kidlash joizki, mazkur Konsepsiyaning amalga oshirilishi quyidagi natijalarga olib keladi:

sud ekspertlari mustaqilligini ta'minlash choralarini ko'rildi; jismoniy va yuridik shaxslarning sud-ekspertiza tizimiga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlashga erishiladi; mamlakatda sud ekspertizasi nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishga erishiladi; davlat va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari moddiy-teknik bazasi mustahkamlanadi, sohaga davlat-xususiy sheriklik tamoyillari keng tatbiq etiladi; sud ekspertizasi sohasida ilmiytadqiqot, ekspertlik ishlari yanada rivojlanadi, soha faoliyatiga fan va texnika yutuqlari joriy etiladi; sud ekspertlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi yanada takomillashadi; sud ekspertizasi to'g'risidagi qonunchilik takomillashtiriladi va xalqaro normalarga muvofiqlashtiriladi; sud-ekspertlik faoliyati sohasida xalqaro hamkorlik rivojlanadi; O'zbekistonning xalqaro nufuzli reyting va indekslarda, jumladan, Huquq ustuvorligi indeksi (The Rule of Law Index) va Korrupsiyani qabul qilish indeksi (The Corruption Perceptions Index)-dagi ko'rsatkichlari samaradorligi oshadi [10].

Yuqorida fikrlarga to'liq qo'shilgan holda ta'kidlash joizki, fikrimizcha, yangi tahrirdagi

"Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonunga kiritilayotgan sud ekspertining kasb-etika qoidalari "Sud ekspertizalarini o'tkazishda sud ekspertining halolligi prinsipi"ni ham o'z ichiga olishi kerak.

Shuningdek, mazkur kasb etikasi qoidalari sud ekspertining odil sudlovning boshqa ishtirokchilari, sud ekspert muassasasi (tashkiloti) rahbari va boshqa sud ekspertlari bilan o'zaro munosabatlariga doir axloqiy jihatlarga ham e'tibor qaratish lozim. Xususan, ekspertizalar ekspertlar komissiyasi tomonidan o'tkazishda, turli sabablar, masalan, ekspertlar komissiyasi a'zolarining yoshi, tajribasi va malaka saviyasi turlichaligi sababli tadqiqotlarni o'tkazishda zarur metodikani tanlashda nizoli vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin: "komissiyaviy ekspertizani tashkil qilish va o'tkazish bir mutaxassislikdagi hamda kompleks ekspertizalarni tashkil qilish va o'tkazish uchun turli mutaxassislikdagi sud ekspertlarini birlashtirish (jamlash) muayyan kommunikativ qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi" [9].

Shu bois, sud eksperti kasbiy faoliyatining bu jihatlarini tartibga soluvchi kasb etikasi qoidalari huquqiy mustahkamlashga ehtiyoj mavjud.

Mavzuga oid adabiyotlarda turlicha kasb etikasi qoidalaringin mohiyatini ta'riflashda, kasb etikasi kodeksi yoki qoidalari ma'lum bir kasbiy jamoa tomonidan qabul qilingan va kodifikatsiyalangan, kasbiy xulq-atvorni tartibga soluvchi majburiy axloqiy-etik qoidalari va me'yorlarni o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan normativ hujjat deb qayd etiladi [11, S.66-67].

Fikrimizcha, sud ekspertining kasbiy etika qoidalari tuzilish jihatdan kirish (preamble); sud ekspertizasini o'tkazishning kasb etikasi prinsiplari; sud ekspertining odil sudlovning boshqa ishtirokchilari, sud ekspertiza muassasasi (tashkiloti) rahbari hamda boshqa sud ekspertlari bilan o'zaro munosabatlarining kasbiy etika qoidalari kabi bo'limlardan iborat bo'lishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Бойков А.Д. Этика профессиональной защиты по уголовным делам. – Москва, 1978.
2. Xasanov SH.X., Romadanova T.A. Trasologik-mexanoskopik ekspertizalarning zamonaviy muammolari // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. №3 (2021) – Б.77-81.
3. Сорокотягин И.Н., Маслеев А.Г. Профессиональная этика юриста: учебник для бакалавров. – Москва, 2013.
4. Медведева Г.П. Этика социальной работы: учеб. пособие. – Москва, 2002.
5. Салимзянова Р.Р. Профессиональная этика юриста: учебник. – Казань, 2012.
6. Кузнецов П.С. Вопросы этики в деятельности судебного эксперта. Доступ из справ.-правовой системы «КонсультантПлюс».
7. Россинская Е.Р., Галышина Е.И., Зинин А.М. Теория судебной экспертизы (судебная экспертология): учебник. – Москва, 2016. – С.131.
8. Белкин Р.С. Криминалистическая энциклопедия. – М., 2000.
9. O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 1-iyundagi «Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi qonuni. /O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2010. – 22-son. – 173-m.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyuldag“O‘zbekiston Respublikasida sud ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6256-son Farmoni / Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.07.2021-y., 06/21/6256/0636-son.
11. А.В.Дулов. Петербургская академия наук и судебная экспертиза // Труды ЦНИИСЭ. Вып. 2. – С. 66-67.

ANNOTATSIYA

Sud-tergov organlari tomonidan piyodalarni urib ketish bo'yicha yo'l-transport hodisalari bo'yicha, yo'l-transport hodisasi payti tik yoki shunga yaqin holatda turgan piyodani urib ketish holatini aniqlash talab etiladi.

Odamni urib yuborish bo'yicha o'tkaziladigan izshunoslik ekspertizalarida ko'plab turli vazifalar bajariladi. Bu vazifalarning asosiyalaridan biri to'qnashuv payti jabrланuvchining qanday (gorizontal yoki vertikal) holatda bo'lganligini aniqlash hisoblanadi.

Kalit so'zlar: iz, trasologiya, mikrotrassalar, sud-trasologik ekspertiza, kompleks ekspertiza, integratsiyaviy ekspertiza.

АННОТАЦИЯ

Органам судебного следствия требуется определить ситуацию наезда на пешехода, стоявшего или близкого к нему во время дорожно-транспортного происшествия. В научной экспертизе, проводимой при нанесении удара человеку, решается множество различных задач. Одной из основных задач является определение положения (горизонтального или вертикального) пострадавшего при столкновении.

Ключевые слова: след, трасология, микроследы, судебно-трасологическая экспертиза, комплексная экспертиза.

ANNOTATION

The judicial investigation bodies are required to determine the situation of a collision with a pedestrian who was standing or close to him during a traffic accident.

In the scientific examination carried out when striking a person, many different tasks are solved. One of the main tasks is to determine the position (horizontal or vertical) of the victim in a collision.

Key words: trace, trasology, microtraces, forensic trace examination, complex examination, complex examination.

VERTIKAL HOLATDA BO'LGAN PIYODANI FRONTAL URIB YUBORISHDA YENGIL AVTOMOBILLARDA IZLAR VA SHIKASTLANISHLAR HOSIL BO'LISHINING ASOSIY QONUNIYATLARI

YO'LDOSHEV

*Akromjon Alijon o'g'li,
X.Sulaymonova nomidagi RSEM
Sud-ballistika va izshunoslik
ekspertizasi laboratoriysi eksperti*

Vertikal holatda bo‘lgan piyodani frontal urib yuborishda yengil avtomobilarda izlar va shikastlanishlar hosil bo‘lishining asosiy qonuniyatları. Vertikal yoki shunga yaqin holatda bo‘lgan piyodani frontal urib yuborishda (avtomobilning old qismi bilan) yengil avtomobilarda hosil bo‘ladigan izlar va shikastlanishlarning hosil bo‘lish mexanizmini o‘rganish natijasida, *quyidagi qonuniyatlar aniqlangan:*




– ta’sirlashish sohasi (transport vositasining o‘rtasi yoki chetlari), urilish kuchi, piyoda tanasining og‘irlik markazining joylashishi (piyodaning bo‘yi, holati va harakat tezligi, shuningdek, to‘qnashish payti haydovchi tormozni bosganligi yoki to‘qnashishdan qochish maqsadida turli harakatlar qilganligi bilan bog‘liq), urib yuborish bosqichlariga bog‘liq holda izlar va shikastlanishlarning ikki guruhi hosil bo‘lishi mumkin: *birlamchi* – avtomobil kuzovining turtib chiqib turuvchi qismlarida joylashgan va *ikkilamchi* – odam tanasining urilishdan keyingi kapot (peshoyna) ustiga yoki kapotga tegmasdan peshoyna va kuzov tomiga uloqtirilishida hosil bo‘ladigan izlar va shikastlanishlar;

– izlar harakatning bir xil yo‘nalishida (oldindan orqaga) taqsimlanadi: avtomobilning oldingi sirti – kapot – peshoyna – kuzov tomi. Avtomobilning harakat tezligiga bog‘liq holda izlar avtomobilning ayrim oraliq qismlarida bo‘lmasligi mumkin, masalan, avtomobil oldingi qismi bilan birlamchi urilishdan keyin, piyoda tanasi kapotga tegmasdan peshoyna yoki kuzov tomiga uloqtirilishi mumkin;

– birlamchi izlarning hosil bo‘lishida iz hosil qiluvchi kuchlarning ta’sir yo‘nalishi, piyodaning bo‘yi uzunligiga bog‘liq ravishda (uning og‘irlik markazi joylashishining darajasi), agar odamning og‘irlik markazi avtomobilning uriluvchi qismidan pastda bo‘lsa – oldindan orqaga, agar odamning og‘irlik markazi avtomobilning uriluvchi qismidan yuqorida bo‘lsa – bir vaqtda oldindan orqaga va yuqoridan pastga bo‘lishi mumkin. Ayrim hollarda avtomobil kapotida ta’sir kuchi yo‘nalishi yuqoridan pastga yo‘nalgan ezilish hosil bo‘lishi mumkin;

– avtomobil oldingi qismidagi detallarda odam tanasiga urilish izlari uning kapotida, radiator panjarasida, bumperda, bumper osti va ustki qismida, yoritish chirog‘i va kichik yoritish chiroqlarida, davlat raqami belgisida, qanotining oldingi burchaklarida hosil bo‘lishi mumkin. Bu izlar yagona, odatda vertikal chiziq bo‘ylab joylashadi. Izlar, shuningdek, kapotning yuqori sirtida, peshoyna va uning ustunlarida, oyna tozalagich tayanchlarida va kuzov tomida ham mavjud bo‘lishi mumkin;

– yuqorida sanab o‘tilgan detallardagi urilish izlari (yoritkich chiroqlari va peshoynadan tashqari) chetlari tekis, tubi silliq, ternalish va qirilishlarsiz ovalsimon (to‘g‘ri va noaniq) shakldagi ezilishdan iborat bo‘ladi. Bu ezilishlar ko‘p hollarda avtomobilning urilishi to‘g‘ri kelgan sohasida odam tanasi tuzilishini aks ettiradi. Ezilishlarning o‘lchami turlicha (kuchli ta’sirlashish to‘g‘ri kelgan tana sohasi va urilish kuchiga bog‘liq) bo‘ladi. Odam tanasi tuzilishi va transport vositasi detallarining qattiqligiga bog‘liq holda, kapotdagи ezilishlar bumper yoki radiator panjarasidagi ezilishlarga qaraganda kengroq bo‘ladi. Davlat raqami belgilaridagi ezilishlar metallning vertikal va unchalik keng bo‘lmagan egilishi shaklida bo‘ladi va u piyoda oyog‘iga urilish natijasida hosil bo‘ladi. Ba’zida davlat raqami belgisi odam oyog‘iga urilgach



boshqacha tarzda eziladi: uning yuqori va pastki chetlari oldindan orqaga qarab, xuddi bamperni o'rab olgan kabi eziladi va vertikal bo'yicha egilmagan bo'ladi;

– metall qismlarning yetarlicha katta egilishlarida, ezilishning chetlarida avtomobil lak-bo'yoq materialining yorilishlari kuzatiladi, ba'zida bunday materiallarning parchalari ko'chib ketadi, bunday ko'chishlar metallning kontaktsiz deformatsiyalanishi hisobiga bo'lgani uchun bo'yoq qatlamining qirilishlari mavjud bo'lmaydi. Bunday ko'chgan qatlamlarni ternalish va mikroternalishlar bilan kuzatiladigan bo'yoq qirindilaridan farqlash lozim;

– ezilgan yoki egilgan sohalarda lak-bo'yoq materiallari qatlami va boshqa (plastmassa, yo'l qoplamasi qatlami) materiallarning, ternalish va boshqa turdag'i qattiq obyektlar izlarisiz bo'lgan ishqalanishlari aniqlanishi mumkin. Bunday ishqalanish izlari jabrlanuvchi kiyimining ishqalanish izlari yoki kiyim matosi relyefining aksizlari bilan kuzatiladi. Kiyimlarning ishqalanish izlari o'zaro parallel mayda hoshiyalardan iborat bo'ladi, ko'p hollarda ular tarkibida kiyim materiali tolalarining mikrozarrachalari mavjud bo'ladi yoki sun'iy materialdan qoldirilgan, bu materialning ishqalanish ta'sirida kuygan shaffof pylonka shaklidagi ishqalanishlari aniqlanadi;

– avtomobilning detallarida qon (dog'lar, sachrash, tomchi va oqishlar ko'rinishida) izlari, epidermis qatlami va boshqa turli odam tanasi a'zolari qoldiqlari (masalan, bosh suyagi zarralari), sochlari ham qolishi mumkin (bunday iz-moddalar sud-tibbiy ekspertizalarda tekshiriladi). Ko'p hollarda transport vositasining turli qismlariga ilinib qolgan kiyim parchalari va bo'laklari aniqlanadi;

– avtomobilning peshoynasi (uch qatlamlı – tripleks)ga odam tanasi uloqtirilganda, urilish sirti chegaralangan obyektlar – tosh, tayoq va h.k.lardan qoladigan izlardan keskin farqlanadigan o'ziga xos izlar vujudga keladi. Urilish sirti chegaralangan obyektlardan qoladigan izlar nuqtaviy urilish markaziga va yagona, radial yoriqlarga ega bo'ladi, shisha parchalari qirilishlari deyarli bo'lmaydi. Odamning boshi yoki tirsaklari bilan yetkazilgan shikastlanishlar esa urilish markazi keng bo'lgan ko'plab radial va konsentrik yoriqlarga ega bo'ladi va tashqi qatlama shisha parchalarining qirilishlari kuzatiladi. Agar urilish piyodanining boshidan hosil bo'lgan bo'lsa, urilish markazi bitta bo'ladi. Agar jabrlanuvchi faqat boshi bilangina emas, yana yelkasi yoki tirsagi bilan ham urilgan oynadagi shikastlanish ikkita urilish markaziga, ba'zida esa, agar jabrlanuvchining boshi, yelkasi va tirsagi ham urilgan bo'lsa, uchta urilish markaziga ega bo'ladi. Urilish markazida ba'zi hollarda qon dog'lari va mavjud yoriqlarga qisilib qolgan soch tolalari aniqlanishi mumkin.

Transport vositalaridagi izlar va shikstlanishlarning hosil bo'lish mexanizmi va lokallahishi bo'yicha jabrlanuvchi tanasidagi jarohatlar bilan o'zaro solishtirilib aniqlash mumkinki, avtomobilning oldingi detallaridagi shikastlanishlar va urilish izlari har doim ham jabrlanuvchining beli yoki oyog'inining sinishi («bamper-sinish» deb ataladi) bilan kuzatilmaydi, ammo deyarli barcha shunday holatlarda jabrlanuvchilarning oyoqlarida qontalash sohalar va momataloqlar kuzatiladi. Bunday holatlarda jabrlanuvchining oyog'i sinmasligi quyidagi bir qator omillar bilan izohlanishi mumkin: avtomobilning harakat tezligi, shuningdek, uning tuzilish xususiyatlari



(bamper sirtining shakli va uning kuzovning oldi qismidan ajralganligi) va bamperner joylashish balandligi, jabrlanuvchining oyoqlar va tos qismida jarohatlar hosil bo'lishining oldini oladi. Maxsus adabiyotlardagi ma'lumotlarga ko'ra, yuqoridagi kabi jarohatlar avtomobilning tezligi soatiga 40 km. gacha bo'lganda hosil bo'lmasligi mumkin. Amaliyotdan ma'lumki, jabrlanuvchi oyoqlarining sinishi yana piyoda yugurganda va oyoqlariga tayanmaganda ham kuzatilmasligi mumkin.

Vertikal va unga yaqin holatda bo'lgan piyodalarini urib yuborishda, kiyimlar va poyabzallarda izlar va shikastlanishlar hosil bo'lishining asosiy qonuniyatlari. Urib yuborish – dinamik jarayon, shuning uchun, odatda, avtomobil (ayniqsa yengil avtomobil)ning oldingi qismidagi detallar bilan frontal urib yuborish, piyoda tanasining yuqoriga uloqtirilishi bilan kuzatiladi. Shu bois, barcha ishqalanish izlari (kapot, qanot va h.k.da ishqalanish), odatda, yuqoridan pastga qarab yo'nalgan bo'ladi (piyodaning tanasi avval yuqoriga va keyin kapot, peshoyna yoki kuzov tomiga uloqtiriladi yoki qanotga urilib, keyin chetga uloqtiriladi). Bunda qatlamlanish ko'rinishidagi ishqalanishlar hosil bo'ladi va har bir qatlamlanishning quyi chetida qattiq qabariqlar mavjud bo'ladi. Ba'zida bu qatlamlanishlarda lak-bo'yoq materialari yoki boshqa ifloslanishlarning ishqalanishlari mavjud bo'ladi (rezina mahkamlagichlarning ishqalanish izlari; plastmassa qismlar bilan ta'sirlashish natijasida hosil bo'lgan ishqalanishlar; ba'zida transport vositasining ifloslanishlari bilan

ta'sirlashishda hosil bo'lgan ishqalanishlar). Sun'iy (sintetik) materiallardagi ishqalanishlar esa, bu materiallar tolalarining yaltiroq va qattiq holatdagi kuyishlari bilan kuzatiladi, ba'zida qatlamlanishlarning qabariqlarida material yirtiladi — bunday shikastlanishlarning chetlari tekis va kesilishga o'xshagan bo'ladi (faqat mikroskop ostida ko'rilganda bu iplarning uchlari kesilgan emas, balki ishqalangan ekanligini ko'rish mumkin).

Urib yuborish paytida jabrlanuvchi qanday holatda bo'lganligini uning kiyimlari va poyabzali bo'yicha aniqlash, jabrlanuvchining kiyimi va poyabzaliga tegishli barcha element va qismlarni tekshirish, har bir xususiy holatda ularda mavjud izlar va shikastlanishlarni aniqlash va ularning hosil bo'lish mexanizmi, lokallahishi, o'zaro joylashishi, siljish yo'nalishi va darajasiga ko'ra baholash yo'li bilan amalga oshiriladi. Masalan, jabrlanuvchining kiyimlarida quyidagi izlar va shikastlanishlar mavjud bo'lsa: shimining pastki qismida yoritkich chirog'i shishasidan hosil bo'lgan kesilishlar; ularning ustki qismida bo'yoqning ishqalanishlari; kurtkasi (pidjagi)-ning yelkasi orqa qismida – peshoyna siniqlaridan hosil bo'lgan kesilish va ishqalanishlar mavjud bo'lsa, shuningdek, poyabzali tagcharmida (bittasida yoki har ikkisida) – yo'l qoplamasidan hosil bo'lgan bo'ylama yoki ko'ndalang ishqalanish izlari aniqlangan bo'lsa, urib yuborish jabrlanuvchi tik (vertikal) yoki shunga yaqin holatda bo'lganda sodir etilganligini ta'kidlash mumkin.

Agar kiyimlarda bu kabi izlar bilan birga yoki bunday izlarsiz, chetlari buralib qolgan keng shilinishlar, mato “minusi”gacha ternalishlari, kiyim materialiga yo'l sirti ifloslanishlarining ko‘plab ishqalanishlari yoki yonilg‘i-moylash materiallarining ishqalanishlari ham aniqlansa, birlamchi urib yuborishda jabrlanuvchi vertikal yoki shunga yaqin holatda bo‘lgani va keyingi urib yuborishda esa jabrlanuvchi gorizontal yoki shunga yaqin holatda bo‘lganligi bo‘yicha yoki bo‘lmasa, birlamchi urib yuborishlarsiz, yotgan holatdagi odamning urib yuborilganligi bo‘yicha xulosa qilish mumkin.

Kiyimlardagi tomchi, sochilish shaklidagi qon izlari, vertikal va qiya vertikal qon oqishlari, shuningdek, poyabzaldagi qon tomchilari, avtohalokat natijasida ochiq jarohat olgan payti vertikal yoki shunga yaqin holatda bo‘lganligini bildirishi mumkin. Bu kabi xulosalar jabrlanuvchi halok bo‘lgan yo‘l-transport hodisasida, qon izlariga asoslanib chiqariladi. Agar jabrlanuvchi tirik bo‘lib, uni kasalxonaga o‘tirgan holatda jo‘natilgan bo‘lsa, yuqoridaq kabi qon izlari hosil bo‘lishini yodda tutish zarur.

Kiyimning ko‘krak yoki yelka sohasidagi jarohat olinganda qon sochilishini ko‘rsatuvchi mayda qon tomchilarining mavjudligi, jabrlanuvchining ushbu jarohatni olgan paytda tik (vertikal) yoki shunga yaqin holatda turganligini bildiruvchi belgilardan biri hisoblanadi.

Zarur (aniqlangan izlar va shikastlanishlarni baholash turi xulosalarga olib keladigan yoki izlar va shikastlanishlarning ko‘pligi yoxud bir-birining ustiga tushib qolganligi sababli baholash qiyin) bo‘lganda esa jabrlanuvchi olgan tan jarohatlarining xususiyatlari va ularning lokallashishi bo‘yicha ma’lumotlardan foydalanish lozim, bu kabi ma’lumotlar sud-tibbiy ekspertiza xulosasida mavjud bo‘ladi. Ayrim hollarda (kiyim va poyabzaldagi izlar va shikastlanishlardagi belgilarning kamligi hollarida) esa, kompleks tibbiy-trasologik ekspertiza tayinlanishi mumkin.

Jabrlanuvchining poyabzal tagcharmidagi izlar urib yuborish paytida piyodaning tik (vertikal) holatda bo‘lganligini aniqlashga imkon beradigan muhim izlar hisoblanadi.

Urib yuborish jarayonida transport vositasining piyodaning tanasiga urilishida, odam oldinga yoki chet tomonga uloqtirib yuboriladi. Bunda urib yuborishning boshlang‘ich bosqichida piyoda muayyan (qisqa) vaqt davomida poyabzali (poyabzallari) tagcharmida bilan yo‘l sirtida sirg‘anadi. Buning natijasida poyabzal tagcharmida yo‘l qoplamasidagi turli notejisliklar va o‘nqir-cho‘nqirlardan mikrochiziqlar ko‘rinishidagi ishqalanish izlari hosil bo‘ladi. Bu ishqalanishlarning yo‘nalishi mikroskop ostida ko‘rib, quyidagi belgilar bo‘yicha aniqlanadi: chiziqlarning boshlanishi — chuqurligi minimal bo‘lgan sohalar, keyin chuqurlik asta-sekin ortib boradi; chiziq oxiri (poyabzal tagcharmining yo‘l bilan ta’sirlashishi tugagan)da esa keskin uzilib qoladi.

Mikroskop ostida ko‘rilganda, chiziqlarning tugash qismida tuproq, qumning mikrozarrachalari kuzatilishi mumkin, chunki ushbu ishqalanish izlari aynan shu mikrozarrachalar ta’sirida yuzaga keladi. Shuningdek, tagcharmda uning materialining juda kichik o‘lchamli (mikro) laxtaklari hosil bo‘lishi bilan kuzatiladigan siljishlar aniqlanishi mumkin, bu siljishning yo‘nalishi chiziqlarning turgan tomoniga yo‘nalgan bo‘ladi. Bu kabi belgililar tagcharm chetlarida yaxshiroq ko‘rinadi. Tagcharm relyefli suratga yoki mixlarga ega bo‘lsa, ulardan hosil bo‘lgan chuqurchalarda ishqalanish yo‘nalishini bildiruvchi belgililar aniqlanishi mumkin, ifloslanishlar relyefdani hosil bo‘lgan chuqurchaning bir chetiga ishqalanadi, mixning metall boshchasidan hosil bo‘lgan chuqurcha chiziqlarning tugash tomoniga yo‘nalgan bo‘ladi. Masalan, tagcharmdagi chiziqlarning yo‘nalishi oldindan orqaga va chapdan o‘ngga yo‘nalgan bo‘lsa (chiziqlarning yo‘nalishi piyodaning harakat yo‘nalishiga nisbatan aniqlanadi), piyodaning oyog‘i oldinga va o‘ngga siljiganligini bildiradi. Shu bois, poyabzal tagcharmidagi izlarni kiyimdagisi boshqa izlar bilan birlgilikda baholab, urib yuborish orqa chap tomonidan sodir bo‘lgan deb xulosa qilish mumkin.

Shunday qilib, poyabzal tagcharmidagi ishqalanish izlariga ko‘ra, jabrlanuvchining urib yuborish paytidagi vertikal holati bilan birga, urib yuborishning yo‘nalishi bo‘yicha ham fikr yuritish mumkin.

Quyida poyabzal tagcharmidagi izlar urib yuborishdagi birlamchi urilishda piyodaning yurganligi yoki bir joyda turganligini aniqlash bilan birga, avtohalokatga uchragan avtomobil salonidagi shaxslarning qaysi biri rulda o'tirganligini aniqlashga ham imkon beradigan muhim belgilar ekanligi haqida fikr yuritiladi.

Afsuski, poyabzal tagcharmida izlar har doim hosil bo'lmaydi yoki saqlanib qolmaydi – bu birinchi navbatda tagcharm materialiga bog'liq bo'ladi. Charm materialdan tayyorlangan tagcharmlarda izlar yaxshi ifodalanadi, poliuretan materialdan tayyorlanganlarida esa izlar yaxshi hosil bo'lmaydi. Vertikal yoki shunga yaqin holatda bo'lgan piyodalarni urib yuborishning turlaridan biri yonboshdan urinma urib ketishlar va jabrlanuvchini ikkita transport vositasi bilan siqib qo'yish hisoblanadi.

Urinma urib ketish. Urinma urib ketishlarning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, ularda kiyimlardagi shikastlanishlar

(asosan, frontal urib yuborishdagi kabi izlar va shikastlanishlar, faqat bu holda yoritkich chirog'i shishasidan hosil bo'lgan kesilishlar va birorta transport vositasi alohida detallarining aks-izlari mavjud bo'lmaydi) juda kam ifodalanган bo'ladi. Bu kabi urib yuborishlar uchun ishqalanishlar (materialning yaltiroqlikkacha siyqalanishlari yoki kuyishi), ba'zida lak-bo'yoq materialining qatlamlanishi va ishqalanishlariga xos bo'ladi. Avtomobilning yon sirtidagi birorta detalga ilinib qolish natijasida yirtilishlar ham kuzatilishi mumkin. Ayrim hollarda, jabrlanuvchining tanasi burilishi natijasida, odam tanasining peshoyna chetiga urilishi yuzaga keladi va buning natijasida kiyimning yuqori elementlarida o'ziga xos kesilishlar qolishi mumkin. Odatda, urinma urib ketish holati barcha o'zaro ta'sirlashgan obyektlar: transport vositasi, kiyim va poyabzalni bir vaqtida tadqiq etish bilan aniqlanadi.

ADABIYOTLAR

1. R.R. Shakurov va boshq. Trasologik ekspertiza / Darslik. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – B.323
2. Б.И.Шевченко. Научные основы современной трасологии. – М., 1947; Л.Г.Эджубов. Использование некоторых методов и средств кибернетики в дактилоскопии: Автореф. ... канд. юрид. наук. – М., 1962; Е.И.Зуев. Трасологическая экспертиза следов обуви. – М., 1964; Г.Л.Грановский. Основы трасологии (общая часть). – М., 1965; и др.
3. Т.В.Аверьянова. Судебная экспертиза. Курс общей теории. – М., 2006; Теория и практика судебной экспертизы в гражданском и арбитражном процессе: Науч.-практ. пособие / Под ред. Е.Р.Россинской. – М., 2006; Н.П.Майлис. Руководство по трасологической экспертизе. – М., 2007; и др.
4. Н.П.Майлис. Руководство по трасологической экспертизе. – С.323.
5. А.М.Зинин, Н.П.Майлис. Судебная экспертиза: Учебник. – М., 2002. – С.61.
6. Ю.Г.Гамаюнова. Комплексная трасолого-волокноведческая экспертиза: Науч.-методич. пособие / Под ред. проф. В.Ф.Орловой. – М., 2009. – С.47-50.
7. Н.И.Нестеров, Г.Н.Степанов, Ю.П.Фролов, В.И.Шапочкин, К.В.Ярмак. Сборник примерных заключений по трасологической экспертизе: Учеб-метод. пособие. – Волгоград, 2003. – С.44-46.
8. С.М.Колотушкин, В.А.Федоренко. Взрывные устройства и следы их применения: Учебник. – Волгоград, 2004. – С.240-246.

ANNOTATSIYA

“YO‘L HARAKATI QOIDALARI” BO‘YICHA AMALIYOTDA YUZAGA KELAYOTGAN MUAMMOLAR

SAYFUTDINOV

*Zafarjon Xusanboyevich,
X.Sulaymonova nomidagi
Respublika sud ekspertriza markazi
yetakchi eksperi*

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda yo‘l-transport hodisalarining sodir bo‘lishi ortib bormoqda. Bu esa, ularning sodir bo‘lish sabablari va muammo yechimlarini topish zaruriyatini vujudga keltiradi. Maqolada amaldagi “Yo‘l harakati qoidalari”ning quvib o‘tish bandiga kiritilgan o‘zgartirishlar va transport vositalari haydovchilariga o‘ng tomondan quvib o‘tishga ruxsat berilishi, buning oqibatida sud-tergov organlari va sud ekspertlari tomonidan ushbu masalaning hal etilishidagi mavjud muammolar va ularning yechimlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: yo‘l-transport hodisalari, yo‘l harakati qoidalari, haydovchi, quvib o‘tish, qayta tizilish, o‘zib ketish.

АННОТАЦИЯ

С каждым годом увеличивается количество дорожно-транспортных происшествий. Это порождает необходимость поиска причин возникновения проблем и путей их решения. В статье внесены изменения в пункт об обгоне действующих «Правил дорожного движения». В результате этого судебно-следовенным органам и экспертам были разъяснены проблемы, которые предстоит решить в данном вопросе, и пути их решения.

Ключевые слова: дорожно-транспортное происшествие, правила дорожного движения, водитель, обгон, перестановка, обгон.

ANNOTATION

The number of traffic accidents is increasing every year. This gives rise to the need to search for causes, problems and solutions to their occurrence. The article amended the paragraph on overtaking the existing «Rules of the Road». As a result, the judicial investigation bodies and experts were explained the problems to be solved in this matter, and ways to solve them.

Key words: Traffic accident, Rules of the road, driver, overtaking, rearrangement, overtaking.

Mamlaktimizda yo‘l-transport hodisalarining oldini olish, yo‘l harakati qoidalarini yanada takomillashtirish hamda harakat xavfsizligini nazorat qilish va samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-aprelda “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qaror asosida yangi tahrirdagi “Yo‘l harakati qoidalari” amalga kirdi va yo‘l harakati qoidalariiga o‘zgartirishlar kiritildi. Shunga ko‘ra e‘tiboringizni quvib o‘tish tushunchasi va quvib o‘tish qoidalariqa qaratmoqchiman. Buning uchun avvalgi va oxirgi tahrirdagi tushunchalar tahlilini keltirib o‘tmoxchiman.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 24-dekabrdaagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 370-sonli qarori bilan tasdiqlangan yo‘l harakati qoidalariada quvib o‘tish tushunchasi quyidagicha yoritilgan. **Quvib o‘tish – egallangan harakatlanish bo‘lagidan chiqib, oldinda harakatlanayotgan transport vositasidan o‘zib ketish.**

Bugungi kunda amaldagi yo‘l harakati qoidalariida quvib o‘tish tushunchasiga to‘ldirish

kiritilib, “bir yoki bir nechta transport vositalarini qarama-qarshi yo‘nalishda harakatlanish uchun mo‘ljallangan tasmaga chiqib, so‘ngra ilgari egallagan qatoriga qaytib o‘tish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zib ketish” (1) degan ta’rif berilgan.

Ko‘rinib turibdiki, transport vositasi qarama-qarshi yo‘nalishga chiqib transport vositasidan o‘zib ketishi, so‘ng egallagan qatoriga qaytib olishi quvib o‘tish deya belgilangan.

Shuningdek, ushbu qoidalalar bilan qayta tizilish va o‘zib ketishga quyidagi ta’riflar berilgan:

Qayta tizilish – dastlabki harakat yo‘nalishini saqlagan holda o‘z harakatlanish tasmasidan boshqa harakatlanish qatoriga o‘tish;

o‘zib ketish – transport vositasining bir yo‘nalishda transport vositasi tezligidan ortiq tezlikda harakatlanishi.

Xorijiy davlatlarning amaldagi yo‘l harakati qoidalari tahlil qilinganda quvib o‘tish tushunchasiga quyidagi ta’riflar berilganligi aniqlandi. Jumladan, Rossiya Federatsiyasining amaldagi yo‘l harakati qoidalariida “quvib o‘tish” tushunchasiga “bir yoki bir nechta transport vositalarining qarama-qarshi harakatlanish uchun mo‘ljallangan bo‘lakka (qatnov qismining yon tomoniga) chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan oldinga siljishi va keyinchalik ilgari egallab olingan bo‘lakka (qatnov qismining) qaytishi” deya izoh berilgan bo‘lsa, Qozog‘iston Respublikasining amaldagi yo‘l harakati qoidalariida “quvib o‘tish – egallab





olingen bo‘lakdan chiqib ketish va keyinchalik egallab olingen bo‘lakka qaytish bilan bog‘liq bo‘lgan oldinda harakatlanayotgan bir yoki bir nechta transport vositalarining oldinga siljishi” degan ta’rif berilgan.

Bundan ko‘rinadiki, quvib o‘tish tushunchasida boshqa davlatlarning yo‘l harakati qoidalarini tushunchasi bo‘yicha farq yo‘q. Quvib o‘tish tushunchasiga qarama-qarshi yo‘nalishga chiqib, keyin o‘z harakat bo‘lagiga qaytishi degan ta’rifni to‘g‘ri berilgan deb hisoblaymiz.

Amaldagi yo‘l harakati qoidalarining 83-bandi talablariga ko‘ra, bir yo‘nalishda harakatlanayotgan relssiz transport vositalarining har ikki tomonidan o‘zib ketishga ruxsat beriladi. Biroq chapga burilish ishorasini berib, burilishga kirishgan transport vositasidan o‘zib ketish o‘ng tomonidan amalga oshiriladi. Bundan ko‘rinadiki, oldinda harakatlangan transport vositasini o‘ng tomonidan harakat bo‘lagini o‘zgartirib ham o‘zib ketish mumkin. Bu holat amaldagi yo‘l harakati qoidalari bilan taqiqlanmagan.

Avvalgi yo‘l harakati qoidalarining 83-bandi talablariga ko‘ra quvib o‘tish tushunchasidan keilib chiqib relssiz transport vositasini faqat chap tomonidan quvib o‘tishga ruxsat beriladi. Biroq chapga burilish ishorasini berib burilishga kirishgan transport vositasini quvib o‘tish o‘ng tomonidan amalga oshiriladi deb belgilangan edi.

Hozirgi vaqtida sud-tergov idoralari va ekspertlar tomonidan o‘zib ketish bilan bog‘liq bo‘lgan holatlarda haydovchining harakatlariga amaldagi yo‘l harakati qoidalari doirasida baho berish qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. Buni misol tariqasida quyidagicha tushuntirish mumkin:

Masalan, transport vositasi haydovchisi oldindagi transport vositasidan o‘zib ketishi uchun o‘z harakat qatorini o‘zgartirib o‘ng tomonidan (yoki chap tomonidan) o‘zib ketishi vaqtida o‘ng qatorda turgan (yoki harakatlanayotgan) piyoda yoki transport vositalari bilan to‘qnashib yo‘l-transport hodisalari sodir etilmoqda. Ushbu masalaning dolzarbliги hozirgi vaqtida haydovchining harakatlariga baho berishda amaldagi yo‘l harakati qoidalarining 53-bandi talablaridan kelib chiqib hal etilmoqda. Unga ko‘ra, ya’ni amaldagi yo‘l harakati qoidalarinin 53-bandi talablariga ko‘ra haydovchi harakatlanishni boshlash, manyovr qilish (qayta tizilish, burilish, qayrilib olish, quvib o‘tish va aylanib o‘tish) va to‘xtashdan oldin bajarilayotgan manyovr boshqa yo‘l harakati qatnashchilarining harakatlanishiga xavf tug‘dirmasligi kerak.

Ushbu talablar bilan bir qatorda harakatlanayotgan transport vositalariga yo‘l berish va xavf tug‘dirmasligi kerakligi nazarda tutilgan.

Transport vositalarini o‘ng tomonidan o‘zib ketishda amaldagi yo‘l harakati qoidalarida hech qanday band belgilanmaganligi xavfli vaziyat-larni yuzaga keltirib chiqarishi hamda yo‘l-transport hodisalarining soni ortishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek:

- transport vositasining o‘ng tomonidan o‘zib ketish yo‘l-transport hodisasini keltirib chiqarishi mumkin;
- o‘ng tomonidan transport vositasidan o‘zib ketishda o‘ng qatorga o‘tishda ko‘rinish cheklangan, chunki haydovchining o‘rindig‘idan o‘ng tomonidagi qatordagi xavf yoki to‘sinqi qatorga to‘liq o‘tib bo‘lgandan keyin ko‘rish, bunda

esa kech bo‘lishi mumkin. Shu sabablarga ko‘ra hozirgi amaldagi yo‘l harakati qoidalariga ko‘ra transport vositasi haydovchisi o‘ng tomondan o‘zib ketishda juda ehtiyyotlik bilan o‘ng qatorga o‘tib o‘zib ketishi lozim.

Yuqorida aytib o‘tilganlardan kelib chiqib, hozirgi vaqtda amalda bo‘lgan yo‘l harakati qoidalarining 83-bandiga “haydovchi o‘ng va chap tomondan o‘zib ketishga chiqishdan avval o‘zib ketmoqchi bo‘lgan qatori bo‘sh ekanligiga va xavf yoki to‘sinqo‘qligiga ishonch hosil qilishi lozim” degan qo‘srimcha kiritish yoki “o‘ng tomondan o‘zib ketishni” taqiqlash lozim.

Amaldagi yo‘l harakati qoidalarining 86-bandi talablariga ko‘ra quvib o‘tish quyidagi hollarda taqiqlanadi:

tartibga solingan chorrahalarda;

tartibga solinmaydigan chorrahalarda asosiy hisoblanmaydigan yo‘llarda harakatlanishda;

ko‘priklarda, yo‘l o‘tkazgichlarda, estakadalarda va ularning ostida;

piyodalar o‘tish joylarida;

temir yo‘l kesishmalarida va ulargacha 100 metrdan kam masofa qolganda;

quvib yoki aylanib o‘tayotgan transport vositalarini;

tepalikning oxirida va yo‘lning ko‘rinishi cheklangan joylarida.

Ushbu banddan kelib chiqib o‘zib ketishni ham (o‘z harakat bo‘lagini o‘zgartirish orqali):

tartibga solingan chorrahalarda;

tartibga solinmaydigan chorrahalarda asosiy hisoblanmaydigan yo‘llarda harakatlanishda;

piyodalar o‘tish joylarida;

tepalikning oxirida va yo‘lning ko‘rinishi cheklangan joylarda taqiqlash o‘rinli bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori asosida “Yo‘l harakati qoidalari” amalga kiritilganidan so‘ng o‘ng yoki chap tomondan o‘zib ketish oqibatida yo‘l-transport hodisalari soni ekspertizaga kelishi ortdi. Bunda haydovchilarining hodisaning olini olish imkoniyatini aniqlash so‘ralmoqda. Shuni aytish lozimki, bunday holatlarda haydovchi o‘zib o‘tishga qatorini to‘liq o‘zgartirib bo‘lganidan so‘ng xavf yoki to‘sinqo‘qligiga paydo bo‘lganmi yoki o‘zib ketishga o‘tayotgan vaqtida xavf yoki to‘sinqo‘qligiga harakatda bo‘lganida bo‘lganligi muhim. Bu holatga tergov organi aniqlik kiritishi lozim. Bunday holatlarda tergov yo‘li bilan ham (agar videotasvir yoki guvohlar bo‘lmasa) isbotlash qiyin. Shu sababli transport vositalarini o‘ng tomondan o‘zib ketish bilan bog‘liq harakatga amaldagi “Yo‘l harakati qoidalari”da aniqlik kiritish yoki qo‘srimchalar kiritish lozimligi ayon bo‘lmoqda. Biz tomonimizdan yo‘l harakati qoidalari haydovchining o‘ng tomon harakat bo‘lagini o‘zgartirib o‘zib ketishini taqiqlash taklifi bildiriladi. Bu bilan yo‘l-transport hodisalarining oldi olingan va haydovchilarining harakatlariga sud-tergov idoralari va ekspertlar tomonidan baho berishda qiyinchiliklar va noaniqliklar tug‘dirmagan bo‘lar edi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori / Qonun hujjatlari.

ANNOTATSIYA

SUD-FONOGRAFIYA EKSPERTIZASINING BUGUNGI KUNDAGI IMKONIYATLARI VA EKSPERTIZA O‘TKAZISH ASOSLARI

TASHPULATOV
Murod Xamitovich,
X.Sulaymonova nomidagi
Respublika sud ekspertiza markazi
“Sud-fonografiya ekspertizasi”
laboratoriyasining yetakchi eksperti

Maqolada bugungi kunda sud-fonografiya ekspertizasi sohasida zamonaviy raqamli texnologiyalarini tatbiq etish jadal rivojlanayotgani sababli, sud-fonografiya ekspertizasining bugungi kundagi imkoniyatlari va ekspertiza o‘tkazish asoslari bayon etilgan. Bu tadqiqotlarga yangicha yondashuv, sud-fonografiya eksperitzaning hal qiluvchi masalalariga keng imkoniyat ochib bermoqda.

Kalit so‘zlar: sud-fonografiya ekspertizasi, raqamli texnologiyalar, sud-fonografiya eksperitzasining bugungi kundagi imkoniyatlari va ekspertiza o‘tkazish asoslari.

АННОТАЦИЯ

В статье освещено стремительное развитие цифровых технологий в сфере судебно-фонографических экспертиз. В процессе проведения исследований по установлению оригинала или копии исследуемых фонограмм при производстве судебно-фонографических экспертиз цифровые технологии открывают возможность подхода к решению данных задач с позиции инноваций. Кроме этого, они расширяют технические возможности исследования фонограмм при решении вопроса об оригинале либо копии.

Ключевые слова: судебно-фонографическая экспертиза, цифровые технологии, современные возможности судебной фонографической экспертизы, основы экспертизы.

ANNOTATION

The article defines the role of innovative technologies in the field of forensic phonography today. During the process of forensic phonographic examination research, computer technology and innovative technologies not only implement an innovative approach, but also effectively expand the existing technological capabilities in the examination of phonograms in almost all research processes.

Key words: forensic phonographic examination, innovative technologies, modern possibilities of forensic phonographic examination and the basis of examination.

Inson huquqlarini himoya qilish, jamiyat va davlat manfaatlarini ta’minlash huquqni muhofaza qilish idoralarining asosiy vazifasidir. Hozirgi vaqtida bu vazifani samarali bajarishi fan, texnika va raqamli texnologiyalar yutuqlaridan keng foydalanish bilan bog‘liqdir. Dastlabki tergov va sudlovni odilona amalga oshirishda fan, texnika, va ayniqsa, raqamli texnologiyalarining zamonaviy imkoniyatlariga asoslangan sud ekspertizasi xulosalari alohida o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasi sud ekspertizasi muassasalari o‘rtasida yetakchi o‘rinni egallagan Aldiya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi deyarli 72 yildan beri samarali faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.


Jumladan, markazda sud-fonografiya eksperitzasi laboratoriyasi 1992-yilda tashkil etilgan bo‘lib, laboratoriya xodimlari tomonidan o‘tkazib kelinayotgan tadqiqotlar poraxo‘rlik, korrupsiya, reketni fosh etishda muhim o‘rin egallab kelmoqda. Shuni ta’kidlash joizki, ayni vaqtida laboratoriyada o‘zbek, rus, zarur hollarda esa, tegishli mutaxassislar jalb qilingan

holda, boshqa tillardagi fonogrammalar va videotasvirlarning ham tadqiq etilishi yo‘lga qo‘yilgan.

Darhaqiqat, sud-fonografiya ekspertizasi eng murakkab ekspertiza turlari qatoriga kiradi.

Kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari barcha turdagи ekspertizalarning imkoniyatini yanada kengaytirishga yo‘llanma bergen sermahsul axborotli yondashuvlarni hosil qilib, ularni tinimsiz rivojlantirmoqda. Sud ekspertizalarini o‘tkazish jarayonlarining avtomatlashtirilishi, sud-fonografiya ekspertizasi imkoniyatlarining yanada oshishiga zamin yaratdi. Bunday imkoniyatlар natijasida bir tomonidan, ekspertiza tadqiqotlarini bilish jarayoni sifatidagi muayyan o‘zgarishlar (rivojlanishi), ikkinchi tomondan esa – ekspertizalarning imkoniyatlari sezilarli darajada o‘sishi, shuningdek, tadqiqotlar natijasida olinadigan ma’lumotlarning ilmiy asoslantirilishi yanada mustahkamlandi.

Hozirgi kunda ilmiy-texnik taraqqiyot, axborot va raqamli texnologiyalarining keng hajmda rivojlanishi, shuningdek, kompyuter texnologiyalarining taraqqiy etishi sud-fonografiya ekspertizalarining mazmuni va xususiyatlariga yangicha yondashishni hamda ekspertiza tadqiqotlarida zamonaviy texnika va



dasturiy ta'minotlarning ahamiyatini sifat jihatdan o'zgartiradigan uslub va vositalarning jadal rivojlanishiga olib keldi. Xususan, ilmiy-texnik taraqqiyotning sud-fonografiya ekspertizalarining bugungi kundagi amaliyatiga ta'siri shundaki, bu amaliyotda, o'z tabiatiga ko'ra, turli apparatura, ko'p miqdordagi qurilma va qurilmalar tizimlarini qo'llash, innovatsion texnologiyalar bilan umumiyligi uzviylikni tashkil qiluvchi dasturiy ta'minotlarni qo'llashdan iborat bo'lgan uslublardan foydalanish juda keng tarqaldi.

Hozirgi kunda sud-fonografiya ekspertizalarini o'tkazish jarayonlarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning samarasi juda sezilarli darajaga chiqdi. Sud ekspertiza faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasini, masalan, RSEMning sud-fonografiya ekspertizasi laboratoriyasida amalda qo'llaniladigan "IKAR LAB PRO II" fonogrammalarni kriminalistik tadqiqot qilish apparatlidasturiykomplekstizimiimkoniyatlaridan ham ko'rish mumkin. Bu og'zaki nutqni tahlil qilish bo'yicha axborot kompleksi bo'lib, quyidagi asosiy vazifalarni bajarish imkonini beradi: ovoz (tovushli) signalni bo'yicha shaxsni identifikasiya qilish, turli audio-video fonogrammalarda mavjud bo'lgan montaj belgilarini aniqlab, tadqiq qilish, tovushni aks ettiruvchi obyektlarni diagnostika va identifikasiya qilish, turli impulsli shovqinlar natijasi tushunarsiz bo'lgan og'zaki nutq mazmunini aniqlash, fonogrammalarning asli va nuxxalarini aniqlash va h.k. Ekspert-fonografist fonogrammalarni, hujjalarning texnik ekspertizasiga yaqin shakllarda kriminalistik tadqiqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Fonogrammani tadqiqot qilish jarayonida ekspert, maxsus ekranda doimiy ravishda tekshirilayotgan fono-obyektning uchta asosiy shakllarini ko'rib turadi: uning quvvat darajasining dinamikasi ko'rinishidagi umumiyligi ko'rinish, fono-obyektning joriy nuqtasidagi ossillogramma ko'rinishidagi "mikrosegment", shuningdek, fono-obyekt tahlilining asosiy shakllari (ossillogramma, amplituda-fazali spektr, uyg'unlik funksiyasi va asosiy ovoz toni indikatori, sonogramma va h.k.).


Tovushli tasvirlarning dinamik amplitudaviy (sonogramma) tahlili signallarning garmonik (uyg'unlik) komponentlarini aniqlash imkonini beradi va natijada ushbu tizim fonogrammadagi montaj belgilari tadqiqotlarida juda muhim

ahamiyat kasb etadi, chunki u shaxsni og'zaki nutq signalni bo'yicha identifikasiya qilish uchun zarur ma'lumotlarni ko'p hajmda bera oladi. Barcha bu kabi tahliliy tadqiqotlar esa zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalari yordamidagina o'tkaziladi.

Tabiiyki, axborot texnologiyalarining rivojlanishi bir joyda to'xtab turmaydi. Dunyoda har kuni, kundalik turmushning barcha sohalarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan yangi algoritmlar, qurilmalar, yozuv formatlari, raqamli axborot tashuvchilar, dasturiy ta'minot va boshqa ko'plab texnologiyalar paydo bo'lmoqda. Bugungi kunda barcha yangi axborot va texnologik yangiliklar ortidan quvish emas, balki sud ekspertiza faoliyatida samarali qo'llash maqsadida, ularning ishlash prinsiplarini batafsil o'rganish vaqt keldi. Magnit tasmalar vaqt allaqachon o'tib ketdi, ularning o'rnini esa, ovoz yozish, axborot hajmi va sifati bo'yicha juda samarali bo'lgan raqamli qurilmalar egallab bo'ldi. Biroq, raqamli yozuvlarning yuqoridağı ijobiy tomonlari va yutuqlariga qaramasdan, tovush yozish usullarining o'zgarishi (murakkablashishi) hisobiga, tovush signallarni qalbakilashtirish holatlarini aniqlash birmuncha qiyinlashdi.

Shu bilan birgalikda, fikrimizcha, axborot texnologiyalari ekspert-fonografistning o'rnini to'liq bosa olmaydi. Ammo ular, tegishli ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazishda sud ekspertiga juda katta amaliy yordam bera oladi. Bunday yordam, albatta, izlanishli texnik xususiyatga ega, chunki ekspertizalarini bevosita o'tkazish jarayonida tegishli tadqiqotlariga oid metod va metodikalarni tanlashga ijodiy yondashuvni faqat inson bajara oladi. Xulosa sifatida, sud ekspertiza faoliyatidagi vazifalarni samarali bajarish imkonini beruvchi zamonaviy axborot texnologiyalarini chuqur o'rganish – ekspert xulosasining sifati va ishonchliligini oshirish uchun hozirgi kunda dolzarbligini ta'kidlash zarur.

Chunki, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudlar faoliyatida fan va texnika yutuqlarini tatbiq etishning asosiy shaklini tashkil qilgan sud-fonografiya ekspertizasi murakkab jinoyatlarni ochish, tergov va sudlarni inkor etib bo'lmaydigan dalillar bilan ta'minlashda muhim rol o'ynab kelmoqda.



Hozirgi paytda sud-fonografiya ekspertizasining imkoniyat darajasi, jinoyatga tayyorgarlikni yoki qonunbuzarlikka yul qo‘yan shaxslarni fosh etishda isbotlovchi, guvohlik beruvchi holat, materiallar tanqis bo‘lgan vaziyatlarda esa, yashirin ravishda yozib olingan so‘zlashuvlar mavjud hollarda, ularning qilgan jinoyatlarini ochishda hozirgi zamon talablariga to‘liq javob bera oladigan sud-fonografiya ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazishga imkon beradi.

Laboratoriya xodimlari ekspertizalarni bajarishda ilmiy va texnik yutuqlardan, eng zamonaviy asbob-uskuna, qurilma hamda kompyuter dasturlaridan foydalanib, eng og‘ir va murakkab jinoyatlarni fosh etishda huquqni muhofaza qilish idoralariga samarali yordam berib kelmoqdalar.

Jumladan, bugungi kunga kelib, Markazning sud-fonografiya ekspertizasi laboratoriyasi quyidagi turli masalalarni hal etadi, xususan:

- ekspertrizaga taqdim etilgan stenogrammaning tadqiq qilinuvchi fonogrammaning mazmuniga mos kelishi yoki mos kelmasligi;
- ekspertrizaga taqdim etilgan yozuv sifati past bo‘lganda, suhbat stenogrammasini tuzish;
- ekspertrizaga taqdim etilgan suhbatda necha nafar shaxs ishtirot etganligi, ularning jinsi, suhbat qayerda (xonada, ko‘chada, avtomashina salonida va h.k.) yozib olinganligini aniqlash;
- raqamli audio va video yozuvchi texnologiyalarda (diktofon, video-kamera, video-

registrator, mobil telefon apparati va h.k.) elektroakustik montaj belgilari mavjudligi yoki mavjud emasligini aniqlash;

- ekspertrizaga taqdim etilgan fonogrammaning asli yoki nusxaligni aniqlash;
- ekspertrizaga taqdim etilgan fonogrammadagi ovoz va nutqning kimga tegishli ekanligini aniqlash;
- raqamli audio va video yozuvchi texnik uskunalarini diagnostika qilish.

Ma’lumki, surushtiruvchi, tergovchi, prokuorning yoki sudyaning qarori, sudning ajrimi, shuningdek, advokat so‘rovi (faqat fuqarolik, iqtisodiy va ma’muriy sud ishlarini yuritishda) sud ekspertrizasini o‘tkazish uchun asos deb hisoblanadi. Sud ekspertrizasi tegishli qaror yoki ajrim chiqarilgan kundan e’tiboran tayinlangan hisoblanadi. Sud-ekspertizani tayinlash protsessual harakat bo‘lib, qonun tomonidan belgilangan asos va tartibga binoan amalga oshiriladi. Bu harakat faqatgina ekspertriza tayinlash haqida qaror yoki ajrim tuzish bilan cheklanmaydi. Avvalambor surushtiruvchi, tergovchi va sudyalar sud ekspertriza tayinlash jarayonida uning turiga, zamonaviy sharoitdagi imkoniyatlari, ekspertriza hal eta oladigan masalalar doirasi va o‘ziga xos tomonlari haqida ma’lumotga ega bo‘lishlari maqsadga muvofiq.

Masalan, sud-fonografiya ekspertrizasi o‘tkazilishi uchun ekspertriza tayinlash to‘g‘risidagi qarorga yoki ajrimga qo‘sishicha

ravishda ayiblanuvchi, guman qilinuvchi yoki guvohdan ekspertiza tekshiruvi uchun ovozi va nutqidan namuna olish to‘g‘risidagi qaror, shu bilan birgalikda ovoz va nutqni yozib olish to‘g‘risidagi bayonnomaga, ekspertizaga taqdim etilayotgan nizoli fonogrammani eshitib ko‘rish to‘g‘risidagi bayonnomaga ekspertiza o‘tkazish uchun taqdim etiladi.

Sud ekspertizani samarali o‘tkazishning asosiy shartlaridan biri ekspert oldiga qo‘yilayotgan vazifalar ish materiallardan kelib chiqishi, ish uchun ahamiyatli bo‘lgan faktlar va holatlarni aniqlashga qaratilishi, ekspertning maxsus bilimlari doirasida bo‘lishidir. Vazifalar lo‘nda, ikkilamchi tahlilga ega bo‘lmagan savollar shaklida ifodalanishi zarur.

Ekspertlar belgilangan ilmiy uslubga asoslangan holda tadqiq qilinishi lozim bo‘lgan

munozarali (nizoli) fonogramma hamda solishtirish uchun ayiblanuvchi yoki guman-dorning ovozi va nutqidan olingan namunalarni alohida tadqiq qilib olingan natijalarni o‘zaro bir-biriga solishtirish orqali o‘z xulosalarini beradilar.

Ekspert tadqiqotining samaradorligi ekspertiza predmeti va obyektini to‘g‘ri belgilash bilan bog‘liqidir. Qonunda ekspertiza tayinlanishi mumkin bo‘lgan masalalalar belgilab qo‘yilgan, ammo ekspertiza uslubiyoti, tadqiqot uchun qo‘llanadigan usullar, texnik vositalar, qonuniyatlar va boshqa ma’lumotlar ishonchli, tekshirilgan va sinalgan bo‘lishi talab qilinadi. Shuning uchun, ekspertizaning ilmiy asoslari shakllangan va ular tegishli tartibda amaliyotga tatbiq etishga tavsiya qilingan bo‘lishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Абрагова Н.Б., Погребняк А.И., Ташпулатов М.Х., Хашимов М.М. Влияние средств очистки (фильтров) на параметры речевого сигнала в фонограммах на узбекском языке, записанных с использованием цифровых носителей. – Ташкент, 2015.
2. Зубов Г.Н. ООО “Форенэкс” судебная экспертиза звукозаписей. Состояние, проблемы, перспективы. Презентация, 2013.
3. Центр речевых технологий. Сборник научно-методических рекомендаций по выполнению криминалистических экспертиз звукозаписей речи. –Санкт-Петербург. – 2021.
4. Abrarov N.B., Pogrebnyak A.I., Tashpulatov M.X., Xashimov M.M. Sud-fonografiya ekspertizalarini o‘tkazish uchun obyektlarning yaroqliligini hamda tekshirilayotgan fonogrammalarining asli yoki nusxasi ekanligini aniqlash. – Toshkent, 2018.
5. Аверьянова Т.В., Белкин Р.С., Корухов Ю.Г., Россинская Е.Р. Криминалистика: Учебник для вузов. – Под ред. заслуженного деятеля науки РФ, профессора Р.С.Белкина. – М.: Издательство НОРМА, 2000.
6. Савельева М.В., Смушкин А.Б. Криминалистика. Учебник. – М.: Издательский дом “Дашков и К”, 2009.
7. Руководство пользователя SonySoundForge 12.0.
8. Руководство пользователя AdobeAudition 12.0.
9. <http://wikipedia.org>
10. <http://ixbt.com>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasida sud qarorlarini ijro etmaslik uchun javobgarlik, uning oqibatlari va sabablari tahlil qilingan; ijro etuvchi harakatlarning huquqiy tabiatini aniqlangan; ijro etuvchi harakatlarga qo'yiladigan talablar aniqlangan; xorijiy davlatlarda ijro etuvchi harakatlarni amalga oshirish xususiyatlari ko'rib chiqilgan, sohadagi muammo va kamchiliklar, ularni bartaraf qilish yo'llari xususida so'z yuritilgan. Shuningdek, bir qancha taklif va tavsiyalar ham ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sud qarorlari, sud qarorlarini ijro etmaslik uchun javobgarlik, mulkiy huquqlar, undiruvlar navbatni, majburiy ijro etish choralar.

АННОТАЦИЯ

В данной статье автор проанализировал ответственность за неисполнение судебных решений в Республике Узбекистан, ответственность за неисполнение судебных решений в Республике Узбекистан, ее последствия и причины; определена правовая природа исполнительных действий; определены требования к исполнительным действиям; рассмотрены особенности осуществления исполнительных действий в зарубежных странах, обсуждены проблемы и недостатки в сфере, а также пути их устранения. Также был разработан ряд предложений и рекомендаций.

Ключевые слова: судебные решения, ответственность за неисполнение судебных решений, имущественные права, порядок взыскания, принудительные меры воздействия.

ANNOTATION

In this article, the author analyzed the responsibility for non-execution of court decisions in the Republic of Uzbekistan, the responsibility for non-execution of court decisions in the Republic of Uzbekistan, its consequences and causes; the legal nature of enforcement actions is determined; requirements for executive actions are defined; the features of the implementation of executive actions in foreign countries are considered, problems and shortcomings in the field, as well as ways to eliminate them are discussed. A number of proposals and recommendations were also developed.

Key words: court decisions, liability for non-execution of court decisions, property rights, recovery procedure, coercive measures.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar majmuasida sud-huquq islohotlari, xususan, fuqarolarning huquqiy madaniyati va huquqiy ongini yuksaltirish borasida amalga oshirib kelinayotgan ishlar alohida muhim o'rinn egallaydi. Zero, jamiyatning farovonligi va demokratiyaning ustuvorligi, avvalo, jamiyatda tartib-qoidaning hukmronligi bilan bog'liq bo'lib, ushbu jarayonda nafaqat jamiyatda mavjud qonunlarning mukammalligi, ularning hayotga tatbiq etilishi va nazorati, shu bilan birga inson va fuqarolarning mavjud tartib-qoidalari, qonunlarni tan olishi, ularga ongli ravishda rioxalishi, bo'ysunishi, ijrosi jarayonida bevosita faol ishtirokchi bo'lishi ham hal qiluvchi muhim omillardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasiga asosan har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanishi belgilangan.

Shuningdek, Bosh qomusimizning 114-moddasida sud hokimiyyati chiqargan hujjatlar barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar uchun majburiyligi qayd etilgan.

Shu bilan birga, Konstitutsiyamizning 43-moddasida davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlashi nazarda tutilgan.

Ushbu normalarni amalda to'liq ro'yobga chiqarish uchun nafaqat mustaqil, xolis hamda adolatli sud, balki sud qarorlarining to'liq ijro etilishini ta'minlash uchun vakolatli organlar hamda sud qarorlari ijrosini amalga oshirishning huquqiy mexanizmlari ham aniq belgilanishi lozim bo'ladi.

Chunki sud qarorlarini ijro etish mexanizmlari amalda to'liq ishlamasa, odil sudlovga murojaat qilish ham ma'nosiz bo'lib qoladi.

Bir necha asrlar davomida biron-bir davlat sud hujjatlarini majburiy ravishda qo'llamasdan

erkin ijro etishiga erisha olmadi, chunki mavjud qarzдорликни qaytarish yoki majburiyatлarni bajarish uchun pul yoki mol-mulkni ixtiyoriy ravishda berish hamon fuqarolarning huquqiy madaniyatining ajralmas qismiga aylanmagan.

Ushbu pozitsiya Yevropa inson huquqlari sudining bir qator qarorlarida aks ettirilgan bo'lib, unda "agar davlatning huquqiy tizimi qonuniy kuchga kirgan sud qarorini bir tomoniga nisbatan bekor qilishga ruxsat bergen bo'lsa, odil sudlovga kirish huquqi xayoliy bo'lar edi" deb belgilanganligini ko'rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda sud hujjatlarini ijro etish faoliyatini jadal rivojlantirish borasida qator izchil chora-tadbirlar amalgalashirib kelinmoqda.

Xususan, Adliya vazirligi huzuridagi Sud departamenti tugatilib, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Majburiy ijro byurosi tashkil etildi, soha faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan Davlatimiz rahbarining bir qator Farmon va qarorlari qabul qilindi.

Shuningdek, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish ishlari amalgalashirib kelinmoqda.

Sohadagi qonunchilik hujjatlari takomillashtirilishi ta'minlandi.

Amalga oshirilgan ishlar bilan bir qatorda, sohada hal etilishi lozim bo'lgan ayrim muammolar mavjud. Xususan:

birinchidan, Jinoят kodeksida sud hujjatlarini ijro etmaslik uchun javobgarlik belgilangan bo'lsa-da, mulkiy ijro hujjatlari va boshqa vakolati organlar hujjatlarini ijro etmaslik uchun javobgarliklar nazarda tutilmagan. Shuningdek, Mazkur ijro hujjatlari bo'yicha qarzdorlarga nisbatan faqat O'zbekiston Respublikasi MJTKning 198¹-moddasiga asosan jarima qo'llanilganidan so'ng ham qarzdor tomonidan sud qarori bajarilmagan taqdirda qarzdorga nisbatan boshqa jazo chorasi (*takroran ma'muriy yoki Jinoiy javobgarlikka tortish yuzasidan*) qo'llanilishi ko'rsatilmagan.

Misol uchun, sudning qaroriga asosan qarzdordan 500 mln so'm qarz undirish haqidagi ijro hujjati yuzasidan qarzdorga nisbatan ma'muriy jazo qo'llanilgandan so'ng unga nisbatan majburiy ijro harakatlari olib borilsada, boshqa jazo choralar qo'llanilishi nazarda tutilmagan.

Bu o'z navbatida mazkur toifadagi sud ijro hujjatlarining to'liq ijro etilmasdan qolishiga hamda odil sudlovning to'liq ta'minlanmasligiga sabab bo'lmoqda.

Shu bilan birga, Jinoят kodeksi va "Sudlar to'g'risida"gi qonunda "sud hujjatlari" deganda aynan qanday sud hujjatlari nazarda tutilayotganligiga ham aniqlik kiritilmagan. Mazkur munosabatlar Oliy sudning Plenum qarori bilan tartibga solinib kelinmoqda. Xususan, Oliy sud Plenumining 2009-yil 10-apreldagi 7-sonli "Sud hujjatlarini bajarishdan bo'yin tov lash va ularning ijro etilishiga to'sqinlik qilish uchun jinoiy javobgarlikka doir qonunlarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori bilan Jinoят kodeksining 232-moddasi dispozitsiyada nazarda tutilgan "sud hujjati" deganda qonuniy kuchga kirgan sud buyrug'i, ajrim, qaror, hal qiluv qarori, hukm tushunilishi lozim deb belgilangan.

Bundan tashqari, mazkur moddada O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi qarorini ijro etmaslik uchun javobgarlik masalalari ham nazarda tutilmagan.

Holbuki, "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunning 73-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq Konstitutsiyaviy sudning qaroriga ko'ra Konstitutsiyaga muvofiq emas deb topilgan normativ-huquqiy hujjat yoki uning bir qismi o'zining amal qilishini tugatadi. Mazkur moddaning uchinchi qismiga muvofiq Konstitutsiyaga muvofiq emas deb topilgan hujjatni qabul qilgan davlat organi o'z hujjatini Konstitutsiyaviy sudning qarori asosida bir oydan kechiktirmay Konstitutsiyaga muvofiqlashtirishi kerakligi qayd etilgan.

Shuningdek, JKda sud qarorlarini jinoiy ish yurituvchi davomida to'liq bartaraf qilganlik uchun ozodlikdan mahrum qilishni nazarda tutuvchi javobgarlik qo'llanmasligiga doir rag'batlantiruvchi normalar ham nazarda tutilmagan.

Mazkur masalada xorijiy davlatlarning tajribalari o'rganilganda sud hujjatlari tushunchasiga to'liq ta'rif berilganligi, boshqa organlar hujjatlarni ijro etmasligi uchun ham javobgarlik nazarda tutilganligi hamda mazkur sohadagi mavjud munosabatlar aniq belgilanganligini ko'rish mumkin.

Misol uchun, Ukraina Jinoyat kodeksining 382-moddasining 1-qismida sud hukmini, qarorini, qonuniy kuchga kirgan sud qarorini qasddan bajarmaslik yoki ularni amalgalashirishga to'sqinlik qilganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lsa, 4-qismida esa mansabdar shaxslar tomonidan inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudining qarorini qasddan bajarmaganligi, Ukraina Konstitutsiyaviy sudining qarori va Ukraina Konstitutsiyaviy sudining xulosasini qasddan bajarmaganligi uchun javobgarlik belgilangan.

Shuningdek, Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksining 430-moddasiga asosan olti oydan ko'proq vaqt davomida qonuniy kuchga kirgan hukmni, sud qarorini yoki boshqa sud hujjatini yoki ijro hujjatini bajarmaslik, shuningdek, ularning bajarilishiga to'sqinlik qilganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lsa, mazkur moddaning 4-qismida ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan va sud hukmi chiqarilishidan oldin qarzning to'liq miqdorini to'lagan shaxsga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanmasligiga qaratilgan rag'batlantiruvchi norma mavjud.

Ozarboyjon Respublikasi Jinoyat kodeksining 306-moddasining 1-qismida "Sudning qonuniy kuchga kirgan qarori, hukmi, qarori yoki buyrug'ini bajarmaslik, shuningdek, ularning bajarilishiga to'sqinlik qilganlik" uchun javobgarlik belgilangan bo'lsa, mazkur moddaning 3-qismida esa qilmishlarni sodir etgan shaxs, ushbu Kodeksning 1 yoki 2-qismlarida nazarda tutilgan harakatlar bilan bog'liq hukm qonuniy kuchga kirgunga qadar qonuniy kuchga kirgan qaror, hukm, qaror yoki sud buyrug'ini to'liq bajarsa, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishiga qaratilgan rag'batlantiruvchi normalar nazarda tutilgan;

ikkinchidan, "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida undiruvlar navbatni fuqarolarimizning manfaatlaridan davlat manfaatlarini ustun qo'yilgan holda belgilangan. Bu aksariyat holatlarda birinchi navbatda fuqarolarimizning pul mablag'lari undirilmasdan qolishiga hamda ularning ko'plab asosli murojaatlari ortishiga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, mazkur mexanizmlar fuqarolarimiz

huquqlarini davlat tomonidan kafolatlash prinsiplariga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi.

Xususan, "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 80-moddasida undiruvlar navbatni ko'rsatilgan bo'lib unga muvofiq, quyidagilar:

Birinchi navbatda: budgetga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha talablar; mehnatga oid munosabatlardan kelib chiqadigan talablar; alimentlar undirish bo'yicha talablar; mualliflik shartnomalari bo'yicha haqlarni to'lash bo'yicha talablar; hayotga yoki sog'liqqa yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha talablar; advokatlar tomonidan ko'rsatilgan yuridik yordam haqini to'lash bo'yicha talablar qanoatlantiriladi.

Ikkinchi navbatda: ijtimoiy sug'urta bo'yicha talablar; jinoyat yoki ma'muriy huquqbazarlik oqibatida jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkiga yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha talablar qanoatlantiriladi.

Uchinchi navbatda majburiy sug'urta organlarining talablari qanoatlantiriladi.

To'rtinchi navbatda kreditorlarning mol-mulk bilan ta'minlangan talablari qanoatlantiriladi.

Beshinchi navbatda kreditorlarning mol-mulk bilan ta'minlanmagan talablari qanoatlantiriladi.

Oltinchi navbatda qolgan barcha talablar qanoatlantiriladi.

Qarzdorga bir necha talablar (ijro hujjatlari) bo'yicha solingan ijro yig'imiylari ushbu moddaning birinchi — oltinchi qismlarida belgilangan tegishli talabni qanoatlantirish uchun mo'ljallangan ketma-ketlikka muvofiq undiriladi. Bunda qarzdorga nomulkiy xususiyatdagi ijro hujjatlari bo'yicha solingan ijro yig'imiylari, shuningdek, qonunda belgilangan muddatda realizatsiya qilinmagan mol-mulk mulkiy xususiyatdagi ijro hujjatlari bo'yicha undiruvchiga o'tkazilgan hollarda birinchi navbatdagi talablarga tenglashtiriladi.

Vaholanki, Konstitutsiyamizning 2-moddasida davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi, davlat organlari va mansabdar shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldir deya qat'iy belgilangan.

Shuningdek, 2022-yilning 20-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat

Mirziyoyevning Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvi davomida "Yangilangan Konstitutsiya mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyalari, umuman, yurtimiz va xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonchli kafolat yaratishi lozim."

Bir so'z bilan aytganda, "Inson qadri uchun" g'oyasini hamda hozirgi islohotlarimizning bosh tamoyili bo'lgan "Inson – jamiyat – davlat" degan yondashuvni Konstitutsiyamizning mazmun-mohiyatiga chuqur singdirib, amaliy hayotimizda bosh qadriyatga aylantirishimiz zarur. Ya'ni, insonning qadr-qimmati, sha'ni va g'ururi bundan buyon barcha sohalarda birinchi o'rinda turishi kerak" deya ta'kidlab o'tdi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF – 60-sod Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 14-maqсадада ham qонун ustuvorligи va konstitutsiyaviy qонуниylikni ta'minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida belgilash nazarda tutilgan.

Mazkur sohada xorijiy davlatlarning tajribalari o'rganilganda aksariyat davatlarda undiruvlar navbatida xalq manfaatlari oldingi o'rnlarda turishini ko'rishimiz mumkin.

Misol uchun, Rossiya Federatsiyasining "Ijro ishlarini yuritish to'g'risida"gi qonunining 111-moddasida quyidagilar nazarda tutilgan:

1. Qarzdordan undirib olingen pul summasi ijro hujjatlaridagi talablarni to'liq qondirish uchun yetarli bo'lmagan taqdirda, ko'rsatilgan summa ijro hujjatlarini taqdim etgan undiruvchilar o'rtasida tegishli hujjatlar tarqatilgan kuni taqsimlanadi. Pul miqdori, quyidagi tartibda:

1) birinchi navbatda, aliment undirish, sog'liqqa yetkazilgan zararni qoplash, boquvchisining o'limi bilan bog'liq zararni qoplash, jinoyat tufayli yetkazilgan zararni qoplash, shuningdek, ma'naviy zararni qoplash to'g'risidagi da'volar;

2) ikkinchi navbatda, ishdan bo'shatish nafaqasi va mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan (ishlagan) shaxslarning mehnatiga haq to'lash, shuningdek, intellektual faoliyat natijalarini mualliflariga haq to'lash to'g'risidagi da'volar qanoatlantiriladi;

3) uchinchidan, budjetga va budjetdan tashqari

jamg'armalarga majburiy to'lovlar bo'yicha talablar qanoatlantiriladi;

4) to'rtinchidan, boshqa barcha talablar qanoatlantiriladi.

Moldova Respublikasining 2004-yil 24-dekabrdagi Ijroiya kodeksining 145-moddasida undiruvlar navbatni nazarda tutilgan bo'lib, u 3 ta toifadan iborat bo'lib, davlat budgetlariga undiruvlarning 2-navbatda ekanligi belgilangan.

Mazkur navbatlarni, ya'ni inson manfaatlari undiruvlar davomida ustuvorligini boshqa davatlarda ham, xususan, Qozog'iston Respublikasi, Ukraina, Belarus, Qirg'iziston, Turkmaniston, Ozarboyjon va boshqa davatlarning qonunchiligidagi ham ko'rish mumkin.

uchinchidan, amaldagi qonunchilik hujjatlarida sud hujjatlarining ijrosini ta'minlash maqsadida undiruvni mulkiy huquqlarga qaratish mexanizmlari batafsil bayon etilmagan hamda davlat ijrochilarini mazkur sohada yetarlicha bilim va ko'nigmaga ega emas.

Bu o'z navbatida, ayrim holatlarda undiruvni uzoq muddatli ko'chmas mulk ijarasi huquqiga, yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarga, intellektual mulk obyektlariga bo'lgan mulkiy huquqlariga va boshqalarga qaratish orqali to'liq ijroni ta'minlashda ayrim muammo va qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Xususan, "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 484-moddasiga asosan ijro hujjatlari bo'yicha undiruv qarzdorga tegishli mulkiy huquqlarga, xususan ko'chmas mulkni uzoq muddatli ijaraga olish huquqi, yer uchastkasiga bo'lgan huquq, intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquq va qarzdorga litsenziat sifatida oddiy nomutlaq litsenziya asosida tegishli bo'lgan intellektual faoliyat natijalaridan va shaxsiy lashtirish vositalaridan foydalanish huquqlariga qaratilishi mumkinligi belgilangan.

Shuningdek, mazkur moddada qarzdorga tegishli bo'lgan boshqa shaxslarga nisbatan mulkiy huquqlarga undiruv O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida belgilangan qoidalarga rioya etgan holda qaratilishi ko'rsatib o'tilgan.

Biroq, Fuqarolik kodeksida ham mazkur masala aniq yoritilmaganligi sababli, davlat ijrochilarini tomonidan mazkur normalarni

qo'llashda turli tushunmovchiliklar vujudga kelmoqda.

Xususan, Fuqarolik kodeksining 2-moddasida Fuqarolik qonunchiligi fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlarning vujudga kelish asoslarini hamda ularni amalga oshirish tartibini belgilaydi, shartnomma majburiyatlari va o'zga majburiyatlarni, shuningdek, boshqa mulkiy hamda u bilan bog'liq shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga solishi qayd etilgan.

Kodeksning 97-moddasiga asosan ushbu Kodeks va boshqa qonunlarda belgilangan hollarda va tartibda intellektual faoliyatning aniq ifoda etilgan natijalari hamda yuridik shaxsning bu natjalarga tenglashtirilgan o'ziga xos vositalari, ana shu ishlar yoki xizmatlarni ado etayotgan jismoniy yoki yuridik shaxsning mahsulotlari (firma nomi, tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va h.k.)ga nisbatan fuqaroning yoki yuridik shaxsning mutlaq huquqi e'tirof etiladi.

Mutlaq huquq obyekti bo'lgan intellektual faoliyat natijalari va o'ziga xos vositalardan uchinchi shaxslar huquq egasining ruxsati bilangina foydalanishlari mumkin.

Mazkur kodeksning 169-moddasiga asosan esa intellektual mulk obyektlari mulk bo'lishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Mulkiy huquqlarga nisbatan undiruvning qaratilishi o'zining ijobjiy samarasini beradi.

Misol uchun, tovar belgisini musodara qilish, ayniqsa, tovar belgilari yirik kompaniyalarga tegishli ekanligini hisobga olsak, qarzdorga ta'sir qilishning tobora samarali vositasiga aylanib bormoqda. Ular uni saqlab qolishga harakat qilishadi va shuning uchun qarzni tezda qaytarishadi.

FKning 1038 hamda 1039-moddalarida Intellektual faoliyat natijasiga yoki xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositaga nisbatan mutlaq huquq bunday natija yoki xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vosita ifodalangan moddiy obyektga nisbatan mulk huquqidani qat'i nazar mavjud bo'ladi.

Intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquq ushbu Kodeksda yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan muddat mobaynida amal qiladi.

Intellektual mulk obyektlariga nisbatan shaxsiy nomulkiy huquqlar muddatsiz amal qiladi.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqning amal qilishi undan muayyan vaqt mobaynida foydalanilmasligi oqibatida bekor qilinishi mumkin.

Bundan tashqari, FKning 1040-moddasiga asosan Intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlarni himoya qilish ushbu Kodeksning 11-moddasida nazarda tutilgan usullar bilan amalga oshiriladi. Mutlaq huquqlarni himoya qilish, shuningdek:

mutlaq huquqlar qaysi moddiy obyektlar yordamida buzilgan bo'lsa, o'sha moddiy obyektlarni hamda bunday buzish natijasida yaratilgan moddiy obyektlarni olib qo'yish orqali;

yo'l qo'yilgan buzish haqidagi ma'lumotni majburiy suratda e'lon qilib, unga buzilgan huquq kimga tegishliligi to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritish orqali;

qonunda nazarda tutilgan boshqa usullarda amalga oshirilishi mumkin.

Intellektual faoliyat natijalarini va xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositalarni yaratish hamda ulardan foydalanish to'g'risidagi shartnomma buzilganda majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik to'g'risidagi umumi qoidalar qo'llaniladi;

to'rtinchidan, ijro ishi yuritishda majburiy ijro etish choralar qarzdor ijro hujjati bo'yicha belgilangan muddatlarda o'z majburiyatini bajarmagan taqdirdagina O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi qonunining 46-moddasida nazarda tutilgan majburiy ijro etish choralarining biri yoki bir vaqtning o'zida bir nechta qo'llanishi mumkinligi nazarda tutilgan. Biroq qonunchiligidan mazkur moddada nazarda tutilgan normalarning to'liq emasligi hamda ayrim holatlarda huquqni qo'llashda davlat ijrochilariga tushunmovchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Jumladan, qarzdorga muayyan harakatlarni amalga oshirishni taqiqlash, shu jumladan yuridik shaxs organlariga qarorlar qabul qilishni, shuningdek, ko'char va ko'chmas mulkni, mulkiy va nomulkiy huquqlarni begonalashtirish to'g'risida qabul qilingan qarorlarning amal

qilishini to'xtatib turish, qarzdorga qimmatli qog'ozlar va yuridik shaxsning ustav kapitalidagi ulushlari va mol-mulki hamda o'ziga mulk huquqida bo'lgan mol-mulkdan, shu jumladan pul mablag'laridan foydalanishni taqiqlash yoki undan sud ijrochisi tomonidan belgilangan doirada foydalanish to'g'risida ko'rsatma berish, ijro etishga doir ish yuzasidan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarni chaqirib olish va boshqalar nazarda tutilmagan.

Shuningdek, undiruvni qarzdorga tegishli bo'lgan alohida mulkiy huquqlarga qaratish mumkinligi belgilangan bo'lsa-da, mazkur munosabatlar aniq belgilanmagan.

Bu, o'z navbatida, davlat ijrochisi ijro ishini to'liq hamda samarali tashkil etishi hamda huquqni qo'llashida turli xil tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Mazkur sohada xorijiy davlatlar tajribasi o'rganilganda davlat ijrochilariga bir qator bizning qonunchiligidan mavjud bo'limgan qo'shimcha huquqlar taqdim etilganligini ko'rish mumkin.

Rossiya Federatsiyasining 2007-yil 2-oktabrdagi "Ijro protsesslari to'g'risida"gi qonunining 68-moddasida majburiy ijro choralariga qarzdorni turar joydan majburan chiqarib yuborish, noturar joyni qarzdorning va undagi mol-mulkining bo'lishidan majburiy ozod qilish, chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'limgan shaxslarni Rossiya Federatsiyasidan majburiy chiqarib yuborish, yer uchastkasini qarzdorning mavjudligidan va undagi mol-mulkidan majburan ozod qilish, Qozog'istonning "Ijro ishi va sud ijrochilarining maqomi to'g'risida"gi qonunining 32-moddasida esa qarzdorga muayyan harakatlarni amalga oshirishni taqiqlash, shu jumladan yuridik shaxs organlariga qarorlar qabul qilishni taqiqlash, shuningdek, ko'char va ko'chmas mulkni, mulkiy va nomulkiy huquqlarni begonalashtirish to'g'risida qabul qilingan qarorlarning amal qilishini to'xtatib turish, qimmatli qog'ozlar va yuridik shaxsning ustav kapitalidagi ulushlari va mol-mulki, qarzdorga o'ziga mulk huquqida bo'lgan mol-mulkdan, shu jumladan pul mablag'laridan foydalanishni taqiqlash yoki undan sud ijrochisi tomonidan belgilangan doirada foydalanish to'g'risida ko'rsatma berish; huquqni tasdiqlovchi hujjatlarni chaqirib olish kabilar belgilangan.

Belarus Respublikasining 2016-yil 24-oktabridagi "Ijro etish jarayoni to'g'risida"gi qonunining 60-moddasida qarzdorga ijro hujjatining bajarilishiga to'sqinlik qiluvchi muayyan harakatlarni amalga oshirishni taqiqlash, qarzdorga o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkdan foydalanishni taqiqlash yoki ushbu mulkdan foydalanish chegaralarini belgilash, boshqa shaxslarga ijro varaqasini ijro etishga to'sqinlik qiluvchi muayyan harakatlarni amalga oshirishni, qarzdorga mol-mulkni berishni yoki ushbu qarzdorga nisbatan boshqa majburiyatlarni bajarishni taqiqlash, qarzdor-fuqaroning, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorning, qarzdor-yuridik shaxsning mansabdor shaxslarining Belarus Respublikasidan chiqib ketish huquqini vaqtincha cheklash, dvigateli quvvati 3,7 kilovattdan (5 ot kuchidan) ortiq bo'lgan mexanik transport vositalarini, motorli kichik qayiqlarni boshqarish, ov qilish huquqini vaqtincha cheklash, ulardan foydalanish hollari bundan nogironligi sababli yoki yagona daromad manbayi sifatida zarur qarzdor bo'lsa mustasno, qarzdor-fuqaroning, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorning qimor o'yinlariga, virtual qimor muassasalariga tashrif buyurishi va qimor o'yinlarida ishtiroy etishini vaqtincha cheklash kabi majburiy ijro choralarini nazarda tutilgan.

beshinchidan, Ijro ish yurituvni mantiqan olganda sud ish yurituvining so'nggi bosqichi bo'lib, sud qarori qonuniy kuchga kirishi bilan shaxsning huquqlari va qonuniy manfaatlari tiklanishi lozim. Agar mavjud qonunchilik tizimi takomillashtirilmaganligi sababli yuridik yoki jismoniy shaxslar o'ziga qonun bilan tegishli huquqlarini tiklay olmasa, bu fuqarolarning sud tizimi va umuman olganda davlatga bo'lgan ishonchining pasayishiga olib keladi. Shunday ekan, sud tizimi va davlat organlari faoliyati samarasiga bo'lgan ishonch, sud va boshqa organlar qarorlari ijrosiga bevosita bog'liq.

Davlat ijrochilarini sud qarorlarining to'liq hamda o'z muddatida ijro etilishini ta'minlashining yagona yechimlaridan biri bu ularning ish hajmini optimallashtirishdan iborat. Hozirgi kunda davlat ijrochilarining ish hajmi o'ta yuqoriligi sababli, uning samardorligi quvonarli darajada emas.

Ma'lumot uchun, Sud ijrochilarining ish hajmi ME'YORLARI (2011-yil 10-mart, ro'yxat raqami – 2207) asosida hisoblanadi.



O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi (keyingi o‘rinlarda – MIB) shtat birligini kengaytirish bilan masala tugal yechimini topishi mushkul vazifa, nazarimizda. Shu sababli, ushbu soha uchun yangilik hisoblangan xususiy ijrochilar institutini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq.

Mazkur sohada xorijiy davlat tajribasida quyidagilarni ko‘rshimiz mumkin.

Xususan, Qozog‘iston Respublikasi qonunchiligiga xususiy sud ijrochilar instituti kiritilganiga unchalik ko‘p vaqt bo‘lgani yo‘q. Xususiy sud ijrochilariga oid normalar Qozog‘iston Respublikasining “Ijro ish yurituvchi va sud ijrochisining maqomi to‘g‘risida”gi qonuniga 2010-yil 2-aprelda kiritildi. Unga asosan, Qonunga xususiy sud ijrochilar faoliyatini litsenziyalash tartibi, xususiy sud ijrochisiga qo‘ylgan talablar, uning huquqiy maqomi, huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi masalalari, ularni attestatsiyadan o‘tkazish tartibi, ularning faoliyatini nazorat qilish va tartibga solishning boshqa tashkiliy-huquqiy masalalari kiritilgan. Shuningdek, xususiy sud ijrochisining yordamchisi, xususiy sud ijrochilar Palatasi, xususiy sud ijrochilar faoliyatini moliyalashtirish, uning faoliyatiga haq to‘lash, xususiy sud ijrochisi maoshini belgilash qoidalari, xususiy sud ijrochisi xarajatlarini qoplash tartibiga oid normalar kiritildi. Buning natijasi o‘laroq, 2013-yilda xususiy sud ijrochilar soni 400 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2017-yilga kelib ularning soni 1500 nafardan oshib ketgan.

2013-yilda xususiy sud ijrochilar tomonidan umumiy ijro hujjatlarining 6 foizi, 2017-yilda 17 foizi ijro ish yurituviga qabul qilingan. Demak, yil sayin xususiy sud ijrochilariga bo‘lgan talab va ishonch oshib bormoqda. O‘z navbatida, sud hujjatlari ijrosi samaradorligi ortib borayotganini ham ko‘rshimiz mumkin. 2007-yil sud hujjatlari ijrosi 64 foizni, 2010-yilda 72 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2017-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 79 foizni tashkil etmoqda. Demak, Qozog‘iston tajribasi ushbu institutning muvaffaqiyatli joriy etilganini ko‘rsatmoqda.

Ukrainada ijro ish yurituvchi sohasi 2015-yilda juda og‘ir ahvolga kelib qolgan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2015-yilda ijro hujjatlarining bor-yo‘g‘i 22 foizi ijro etilgan. Natijada 2016-yildan ijro sohasini tubdan isloh qilish jarayonlari boshlangan va ijro ish yurituvchi sohasi samaradorligini oshirish maqsadida qonunchilikka xususiy ijro instituti joriy etilgan. Natijada sud qarorlari va boshqa organlar qarorlari ijrosi ikki yilda 16 foizga oshib, 2018-yil birinchi yarimyilligida 37,8 foizni tashkil etgan. Ukrainianada 2016-yil 3-iyunda “Sud qarorlari va boshqa organlar qarorlarini majburiy ijro etish faoliyatini amalga oshiruvchi organlar va shaxslar to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, unda majburiy ijro faoliyatining davlat ijro xizmati organlaridan tashqari xususiy ijrochilar tomonidan ham amalga oshirilishi mumkinligi belgilandi. Ushbu qonun bilan davlat ijro xizmati organlaridan tashqari xususiy ijrochilar faoliyatining huquqiy asosi,

asosiy prinsiplari, vazifalari, ular faoliyatining huquqiy himoyasi va kafolatlari belgilangan. Biroq, Ukraina “Ijro ish yurituvi to‘g‘risida”gi qonunining 5-moddasida xususiy ijrochi tomonidan ijro etilmaydigan hujjatlar alohida belgilangan:

1) bolani olib qo‘yish va ota-onadan biriga berish, bola bilan uchrashtirish;

2) qaror bo‘yicha davlat organlari, Ukraina Milliy banki, mahalliy davlat boshqaruvi organlari, ularning mansabdar shaxslari, davlat tashkilotlari, korxona va muassasalari, ustav kapitalida davlat ulushi 25 foizdan yuqori bo‘lgan yuridik shaxslar qarzdor bo‘lsa;

3) qaror bo‘yicha davlat organlari undiruvchi bo‘lsa;

4) ma’muriy sud qarorlari va Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi qarorlari;

5) jismoniy shaxslarni uydan ko‘chirish va uygaga kiritish to‘g‘risidagi qarorlar;

6) mol-mulkni musodara qilish to‘g‘risidagi qarorlar. Shuningdek, jinoyat sudlarining qarorlari hamda qonun bilan faqat davlat ijro organlariga ijro etish yuklatilgan qarorlar xususiy ijrochilar tomonidan ijro etilmaydi. Qonunda xususiy ijrochi tomonidan ijro hujjatini ijro etishni rad etish huquqi belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra xususiy ijrochi ijro etishni rad etganda bu haqda yozma xat orqali undiruvchiga xabar berishi lozim.

Umuman olganda, Ukraina qonunchiligini tahlil qiladigan bo‘lsak, xususiy ijrochilarning huquqiy maqomi davlat ijrochilari bilan teng ekanligini ko‘rshimiz mumkin. Bu esa o‘zining yetarlicha samarasini bermoqda.

Shuningdek, ta’kidlash lozimki, ko‘pgina Yevropa davlatlarida sud qarorlari va boshqa organlar qarorlarini ijro etish vakolati xususiy firmalarga berilgan. Masalan, Fransiya, Italiya, Belgiya va Yevropaning boshqa davlatlarida majburiy ijro faoliyati litsenziya asosida mustaqil tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Biroq, ular odatda, faqatgina fuqarolik sudlarining qarorlarini ijro etish vakolatiga ega.

Yuqoridagilarga asosan davlat ijrochilarining ish yuklamasini kamaytirish va sud qarorlari o‘z muddatida ijro qilinishini ta‘minlash maqsadida ayrim sohalarni belgilagan holda Adliya vazirligi nazorati ostida tegishli tayyorgarlikdan o‘tgan holda sertifikatga ega bo‘lgan xususiy sud ijrochilarini joriy etish taklif etiladi.

oltinchidan, ijro ishi yuritish sohadagi mavjud muammolarni o‘rganish va bartaraf qilish hamda ularning yechimiga qaratilgan tarkibiy tuzilmalar mavjud emasligi, sohada faoliyat yurituvchi xodimlarning ish hajmi belgilangan me’yordan 3-4 baravar ortiqligi, ushbu yo‘nalishdagi muammolarni doimiy ravishda o‘rgangan holda sohani takomillashtirib borishga to‘sinqinlik qilmoqda.

Natijada sohadagi mavjud muammolarni chuqur o‘rgangan holda doimiy ravishda tahlil qilib borish orqali sohani takomillashtirib borishga to‘sinqinlik qilmoqda. Shu sababli, ushbu sohada mavjud muammolarni o‘rganishga, amaliyotlarni bixillashtirishga hamda sohadagi mavjud hujjatlarni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish lozim bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B.80.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagи 258-II-sonli “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. <http://www.lex.uz>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009-yil 10-apreldagi “Sud hujjatlarini bajarishdan bo‘yin tov lash va ularning ijro etilishiga to‘sinqinlik qilish uchun jinoiy javobgarlikka doir qonunlarni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 06/196-sonli qarori //. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi to‘plami (2006–2014-yillar). – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi. – T.: “Adolat”, 2014. – B.170–177.

ANNOTATSIYA

Ilmiy maqolada axborot asri siyosiy madaniyatining rivojlanish tendensiyalari, siyosiy propaganda texnologiyalarining rivojlanishi, fuqaroning mustaqil fikrashi, siyosiy xabardorligi, siyosiy tafakkur qilishi, shaxs siyosiy madaniyatini shakllantirish masalalari doirasidagi dolzarb yondashuvlar tahlil qilingan. Jumladan, axborot asrida targ'ibotning o'ziga xos jihatlariga ilmiy nazar tashlangan.

Kalit so'zlar: yangi axborot asri jamiyati, siyosiy xabardorlik, siyosiy bilimlar, siyosiy tafakkur, siyosiy onglilik, siyosiy madaniyatning transformatsiyalashuvi.

АННОТАЦИЯ

AXBOROT ASRI SIYOSIY TEXNOLOGIYALARI VA PROPAGANDA

*MUITOV
Davron Sobirovich,
O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti dotsenti,
siyosiy fanlar nomzodi*

В статье анализируются актуальные подходы по развитию технологий политической пропаганды, тенденции развития политической культуры информационного общества, независимость мнений, информированность, политическая грамотность и политическая рассудительность гражданина.

Ключевые слова: общество нового информационного века, политическая осведомленность, политические знания, политическое сознание, трансформация политической культуры.

ANNOTATION

The scientific article interprets current approaches in the framework of the development trends of the political culture of the information age, the development of political propaganda technologies, the citizen's independent thinking, political awareness, political thinking, and the formation of personal political culture. In particular, the special aspects of propaganda in the information age have been studied scientifically.

Key words: transformation of the new information age society, political awareness, political knowledge, political thinking, political consciousness, political culture.

Yangi axborot asri jamiyatini rivojlanishning siyosiy madaniyati qanday bo‘lishi kerak? Siyosiy texnologiyalarda shaxs va jamiyat siyosiy madaniyatining aniq bir me’yor o‘lchovlari bugun tayyor holatdami? Siyosiy amaliyotda siyosiy islohot, siyosiy ong, siyosiy tafakkur, siyosiy dunyoqarashni o‘zgartirib borishga chorlovchi turli siyosiy nazariya va qarash, siyosiy texnologiyalar ko‘p uchraydi. Aslida siyosiy savodxonlik darajasining aniq bir mezoni ishlab chiqildimi, bunga to‘plagan siyosiy va huquqiy bilimlarimiz yetarlimi? Albatta, bunday savollar har qanday davr siyosiy madaniyatining transformatsiyalashuvi va rivojlanishi falsafasidan kelib chiqadi.

Endi shu kabi savollardan kelib chiqib fikrlarimizni oydinlashtirsak. Albatta, har qanday shaxsning siyosiy madaniyati bu birinchi navbatda uning jamiyatga xos bo‘lgan ijtimoiy bilish jarayonining darajasiga bog‘liqdir. U, birinchi navbatda, o‘tmish tajribasi va tarixiy voqelik falsafasi, milliy o‘zlikni himoya qilish mohiyatini to‘g‘ri tushunishga yordam berishi joiz. Afsuski, tariximizda uzoqni ko‘ra olmagan, birlasha olmagan siyosiy savodsiz xonliklar (Xivada bir asrda 37 nafar xon almashgan ekan), qattol Stalin-Beriya, asabiy va zerikarli turg‘unlik davri, qo‘yingki qizillar imperiyasi doirasidagi bizga yot bo‘lgan barcha g‘oyalari va kommunistik xomxayollik utopiyasi o‘ziga xos olomon psixologiyasining yaratilishiga zamin bo‘ldi.

Ma’lumki, siyosiy propaganda texnologiyalari tarixi totalitar tuzumlar va ularning mafkurusini mohiyatini tushunish, tarix qanday sodir etilgan bo‘lsa, xuddi shunday ilmiy o‘rganish va undan kelajak uchun to‘g‘ri xulosa chiqarishga olib keladi. Shu o‘rinda XX asrda ro‘y bergen ikkinchi jahon urushidan keyin bo‘lib o‘tgan 1945-1946-yillardagi Nyurnberg protsessini esga olsak.

...Fashizmning asosiy aybdorlari ustidan bo‘lgan sud jarayonida (1946-yil 28-29-avgust, Nyurnberg) Buyuk Britaniyaning bosh ayblov yordamchisi Devid Maksuel Fayf ma’ruzasi shunday boshlangan ekan: “Biz endi natsional

sotsializm nemis xalqiga qanday rahbariyat in’om etganiga amin bo‘ldik. Biz endi qay tarzda va qay maqsadllar uchun natsistlar partiyasi nemis xalqini jahon urushlari va qotilliklar tomon safarbar qila olganini, butun Germaniyaning natsizmga to‘liq taslim bo‘lganini bila oldik. Natijada ayni natsistlar partiyasi va hukumatining choratadbirlari tufayli butun bir xalqning ma’naviy va jismoniy taslim bo‘lishiga olib kelguvchi, harbiy tajovuzga tayyor bo‘lgan, fanatik mirshablik davlatini yaratish maqsadiga erishilgan.

Boshqaruvning tezligi, chaquv sistemasining mamlakatdagi fikr va so‘z erkinligini bo‘g‘ishga tayyor va o‘rgatilgan kuchlardan xorijda foydalanish kabi o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘lgan uslublarsiz, tiraniya rivojlanishi mumkin emas. Yana takrorlashim mumkin, biz butun nemis xalqini jinoyatlarda ayblash maqsadimiz yo‘q. Maqsadimiz xalqni himoya qilish va dunyo oldida o‘zini anglab, o‘z do‘słari hurmatiga sazovor bo‘lishga imkoniyat yaratishdir. Gitlerga sodiq bo‘lgan germaniyaliklar orasida o‘z qo‘llari bilan ko‘plab odamlarni shahid qilgan minglab ayollar va erkaklar bor edi. O‘z fyurerlari da’vat qilgan yomonlik va shafqatsizlikka asoslangan e’tiqodga yuz minglab, yo‘q, millionlab odamlar ko‘r-ko‘rona inongan edilar”. Aslida bu davrda Italiyada dunyoga dong‘i keta boshlagan Benito Mussolinining fashistik g‘oyalari ayni kuchli propaganda tufayli bamisol yuqumli kasallikdek dunyoning bir qator davlatlarini tez zaharlab tashlagan edi. Keyinroq fashizm balosi Adolf Gitler bilan propaganda vaziri Gebells Germaniyasida chuqr ildiz otdi. Tez orada Gegel, Gyotening madaniyatli Germaniya xalqi ongi fashizm g‘oyasi bilan zaharlanib ketdi.

Bizning ajdodlarimiz yashagan qizil saltanatda bunday bo‘lmadi deysizmi? Tarixchilarning ta’kidlashicha, sharmandali Ribbentrop-Molotov paktining imzolanishi bilanoq Stalin Gitlerni hatto “o‘rtoq Gitler” deya olqishlashgacha borib yetgan. Bu tarixiy hujjatda ikki diktator o‘zaro kelishib, taktik hiyla-nayranglar orqali dunyoga hukmronlik qilishga intilganlar. Natijada ikkinchi jahon urushining tez boshlanib ketishiga imkon kuchaydi va u mislisiz darajada barcha sovet xalqi vakillari boshiga azob-uqubat keltirdi. Ikkinci jahon urushi davrida qizil imperiya asoratida bo‘lgan birgina O‘zbekiston o‘zining besh yuz mingdan ziyod asl farzandlari, yigit-qizlaridan



ayrildi. Imperianing stalincha davrida kuchli tarixiy ildizga ega bo‘lgan xalqimizni Sovetning terror mashinasi orqali yanchib tashlashga zo‘r berishdi. Albatta, bahaybat arkon zudlik bilan turli dekretlar, qonunlar chiqarish orqali KPSSning respublikalardagi qo‘g‘irchoq hukumatlarini yarata oldi. OGPU va NKVD tizimi orqali har qanday fikr erkinligiga barham berildi. Sobiq SSSR hududida Gitler Germaniyasi “Gestapo”si singari chaquv tizimining vujudga kelishi, turli xil “troyka” va “Osoboye soveshaniye” orqali repressiv tizimlar Lenin-Stalin boshchiligidagi kommunistik partiyaning asosiy quroliga aylandi. Qonli terrorni Lenining o‘zi boshlab bergen. Jurnalist Olim Toshboyevning ta’biriga ko‘ra, “Oybolta ostidagi olomon” davri shunday boshlangan. Taassufki, elimizning asl ilg‘or ziyozi qismi, jumladan, mingdan ziyod mo‘tabar ruhoniylari qizil saltanatning qurbaniga aylandi. Stalin-Berianing konslagerlarida nobud bo‘ldilar. Bu davr, Iosif Stalining tansoqchisi bo‘lgan general Vlasikning ta’biriga ko‘ra, millionlab “donos chaquv” xatlari uyushtirilgan davr edi. Butun bir boshli sovet jamiyatni “qo‘rquv va umidsizlik”da ushlab turilgan. Hokimiyatning Kompartiya yakkahokimligi qo‘liga o‘tishi natijasida faqat bu siyosiy partiyaga mos keluvchi qonunlar joriy qilindi va ularga so‘zsiz amal qilingan. Afsuski, Volgagradda yana shu diktatorga haykal o‘rnatildi.

Ko‘ryapmizki, siyosiy taraqqiyot to‘g‘risida

fikrlash degani faqat g‘alabalar ustida ayyuhannos solish emas, balki atrofga, o‘tmishimizga jiddiy nazar solib, chuqur mushohada qilish zarurati hamdir. Shunday tarzda siyosiy madaniyat tarixning kuch-qudrati uni faqat raqamlarda ko‘rsatibgina qolmasdan, uning mantig‘i, falsafasini tushunib yetishga intilishda his qilinishi lozimligini taqozo etadi.

Afsuski, SSSRning parchalanishi ham yuksak saviyali siyosiy madaniyat davrini boshlab bera olmadı. KPSSning uzoq davom etgan yakkahokimligi va uning tanazzuli millionlab odamlar psixologiyasida ulkan o‘kinch va umidsizlik, gohida milliy nigelistik qarashlarni kuchaytirib berdi. Ayni SSSRning parchalanishidan keyingi yillarda MDHning turli mamlakatlarida hokimiyatga intilgan fundamentalizm namoyandalari (O‘zbekiston, Tojikiston, Rossiy Federatsiyasining Dog‘iston, Checheniston kabi o‘lkalari) ham, neonatsistik kuchlarning “Praviy Sektor” (Ukraina) “Russkiy marsh” kabi tashkilotlari (Rossiyada) vakillari ham avvalambor, insonning erkinligini bo‘g‘ib qo‘yuvchi, jamiyat ustidan mutlaq nazorat o‘tkazuvchi boshqacharoq shakldagi bir fikrlilik urug‘ini sochib yoyishga haybarakalla davrini boshlab yuborishdi. Bular ham asosan siyosiy liderlikka intilayotgan ayrim birlisyosatchilarning siyosiy chiqishlaridan (G.Zyuganov, V.Jirinovskiy RF, V.Lyashko, Y.Timoshenko kabi Ukraina) boshlanganligini aytmasak bo‘lmash.

Ammo keyinroq yangi mustamlakachilik, buyuk davlatchilik shovinizmi davri ham bunday davrga o'xhash holatlarning qayta takrorlanishini ko'rsatdi. Bandera, Shushkevich kabi fashistik harakat nomoyandalarini ulug'lash davri boshlanib ketdi.

Endilikda shu bilan birga bizni tashvishga solayotgan holatlardan biri shu bo'ldiki, insonni kommunistik manqurtlar shaklida uzoq yillar o'z iskanjasida tutib kelgan totalitar ma'muriy buyruqbozlik tizimi yemirilgandan so'ng, sho'ro mafkurasining salbiy tajribasi va ma'naviy qashshoqligi tufayli zaxm yegan zamondoshlarimizning dunyoqarashi, ruhiyatni ravshanlandi. Tafakkurdagi kemtik, vakuumni to'ldirishga yot g'oyalarning muttasil kiritilishiga aynan siyosiy moliyaviy kuchlar ajratila boshlandi.

Joylarda millatchilik, mahalliychilik, separativizm, diniy fundamentalizm kabi siyosiy mafkuralarga asoslangan harakatlarning avj olishi yuz berdi. Millat ravnaqi g'oyasiga umuman yot bo'lgan mafkurani tiqishtirish, millat ruhiyatini asir qilishga harakat qalqib chiqdi. Aslida, madaniy degradatsiya, siyosiy elitaning madaniy gedonizmi, ma'naviy ruhiy barkamollikni ta'minlay olmaslik kabi salbiy holatlar har qanday davlat axborot tizimi tagiga suv quya boshlaydi (Buni biz Ukraina, Gruziya, Qirg'izistonagi "rangli inqiloblar" misolida ko'p kuzatganmiz). Natijada turli madaniy-axboriy texnologiyalar makon ustidan nazorat o'rnatishda eng qulay va arzon vosita sifatida millatni ma'naviy sindirish, axloqiy buzish o'z sivilizatsiyasiga nisbatansovuuqqonlik, loqaydlikni kuchaytirishda asosiy rol o'ynashi yaqqollashdi.

Bizning jamiyatimiz esa yalpi yangilanishlar oqimida xuddi ana shunday mavhumlik sovetizmidan xoli bo'lgan ma'naviy yangilanish va poklanish yo'liga o'tganiga ancha bo'ldi. Ana shu tobda siyosiy fanlarda siyosiy madaniyatning siyosiy xabardorlik, siyosiy bilimlar, siyosiy tafakkur, siyosiy onglilik kabi elementlarini qaydetish juda muhimdir.

Chunki hozirgi paytda yoshlar tarbiyasida mustaqil fikr va pozitsiyani shakllantirishga faqat siyosiy xabardorlik, siyosiy bilim, siyosiy tafakkur va siyosiy onglilik kabi siyosiy madaniyatning muhim elementlari kuchli impuls berishi mumkin. Ular har qanday siyosiy targ'ibotning

fundamental g'oyasiga aylanishi kerak. Ular o'z navbatida har bir fuqaroning fikrlash faoliyati bilan o'z-o'zini muvofiqlashtirib turadigan, o'z-o'zini himoya qilib, o'z-o'zini takomillashtirib, to'ldirib, va hatto shakllantirib, mukammallahshtirib borish imkoniyatini beruvchi siyosiy tarbiyaviy muhitni dolzarblashtiradi.

Olib boriladigan siyosiy texnologiyalar mustaqil siyosiy tafakkur qilishni oldinga surishi joiz. Zero, har qanday mustaqil inson – alohida shaxs. U xohlaymizmi yoki yo'qmi, mavjud jamiyatning bir a'zosi sifatida ijtimoiy mohiyatga ega. Chunki, uning siyosiy onglilik darajasi, siyosiy hayot tarzi bevosita jamiyat siyosiy hayoti madaniyatiga daxldordir. Demak, har qanday fuqaroning mustaqil fikrashi, siyosiy xabardorligi, siyosiy tafakkur qilishi – bevosita jamoa faoliyati, jamiyat taqdiri va hayoti bilan albatta bog'langan.

Bunday propagandadagi siyosiy texnologiyalar mamlakatda, jamiyat siyosiy madaniyatining yuqorida tilga olingan elementlari – ayni insonning fikrashdagi muteligi, befargligi, betarafligining oldini oladi, oxir-oqibat butun jamiyat hayotida salbiy hodisalar kelib chiqarishiga to'sqinlik qilib boradi.

Aslida har qanday siyosiy texnologiyalar siyosiy madaniyatni birinchi navbatda hokimiyatni amalga oshirish usullariga ta'sir qilishga xizmat qiladi. Masalan, jamiyatni isloh qilish sharoitlarida siyosat madaniyatning barcha sohalarining amal qilishi va mazmuniga jiddiy ta'sir o'tkaza olish imkoniyatiga ega. Siyosiy texnologiyalarni qo'llashning o'ziga xos madaniyat muhiti shakllanishi kerak. Va uning asosiy mohiyati odamlarni siyosiy faoliyat hamda siyosiy tizimga jalb qilish vazifasida ko'rinishi joiz.

Ammo axborot asri siyosatshunosligida bugun virtual hayot, ongni qayta dasturlash, dezinformatsiya, miyani yuvish, mafkuraviy zombi qilish, "ommaviy madaniyat" kabi yangi ilmiy kategoriyalarning qalqib chiqishi – bevosita har qanday shaxsning kamoloti uchun tahdidli muammolar yanada chigal tus olishidan darak bermoqda. Tabiiyki, bunday sharoitda shaxs komoloti tarbiyasi bilan bog'liq talqinlar bugun boyliklarni ko'z-ko'z qilish, is'temolchilik psixologiyasi, axloqsizlik falsafasi o'zagini tashkil qiluvchi amoralizm, loqaydlik, "o'zi uchun yashash" kabi illatlarning mohiyatini chuqurroq

anglashimizga yordam beradi. Ular albatta to‘g‘ridan to‘g‘ri yuksak siyosiy madaniyatli jamiyat konsepsiyasini amalga oshirishga to‘sinqinlik qiladi. Shaxs siyosiy madaniyatining ijtimoiy bilish jarayoni bilan mushtarakligi ana shunda namoyon bo‘ladi.

Qolaversa, bundan buyog‘iga milliy o‘zlikni himoya qilish doimo shunday ko‘rinishdagi tahlika va tahdidlar qurshovida bo‘ladi. Ertangi kunimiz qanday bo‘ladi? O‘zimizga munosib kelajak yarata olayotibmizmi, degan savollar girdobida milliy o‘zlik himoya qilinishi shart vazifa bo‘lib qoladi. Endi milliy o‘zlikni himoya qilish degani – hayot haqiqati deb atalgan ana shu shafqatsiz, ayni paytdaadolatsiz axboriy-mafkuraviy bosimlar oqimida yo‘q bo‘lib ketmaslik uchun o‘tmishga, tarixga suyanish, tayanish, undan kuch olish masalalarini dolzarblashtiradi.

Ana shunday sharoitda mamlakatda siyosiy qadriyat darajasiga yetgan qadriyatlarimizning bir qismiga to‘xtalsak. Bugun bиринчи navbatda jamiyatimiz siyosiy madaniyatida yurt tinchligini saqlash – mamlakat barqaror taraqqiyotining asosiy belgisi, insonning hayotiy ehtiyoji, emin-erkin yashashi va kamol topishining asosiy shartiga aylandi.

Harqalay jahon siyosatidagi bugungi notinchlik, siyosiy po‘rtanalar va davlatlararo munosabatlarning taranglashuvi siyosiy qadriyatlarimizning zamonaviy talqinida tinchlik mavzusini azaldan insonning hayotiy ehtiyoji, emin-erkin yashashi va kamol topishining eng zarur omili sifatida tasdiqladi. U albatta o‘zbek xalqi tinchlikni o‘z orzu-intilishlari, maqsad-muddaolari ro‘yogha chiqishining sharti deb bilishidan kelib chiqmoqda. Shuning uchun ham doimo o‘zbek xalqi mentalitetida Yaratgandan tinchlik va omonlik tilash madaniyatni kuchli ildiz otgan. Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan urush va tinchlik g‘oyalari hamisha o‘zaro kurashib kelganini ko‘ramiz. Hisoblarga qaraganda, keyingi besh ming yilda taxminan o‘n besh mingdan ortiqroq katta-kichik urushlar bo‘lgan ekan. Holbuki, bashariyat faqat tinchlik va osoyishtalik barqaror bo‘lgan taqdirdagina o‘z oliy maqsadlariga yetishadi, moddiy va ma’naviy yuksaklikka ko‘tariladi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq yurt tinchligini saqlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

O‘zbekiston dunyoda bиринчи bo‘lib Markaziy Osiyoniyadro quroldidan xoli maydonga aylantirish, xalqaro terrorchilikka qarshi markazni tuzish va afg‘on mojarasi doirasida qator tinchliksevar takliflar bilan chiqdi.

Demak, **yurt tinchligini saqlab qolish qadriyati** – vatan ozodligi va mustaqilligi bilan chambarchas bog‘liq siyosiy qadriyatdir. Birovga qaram bo‘lgan xalq hech qachon erkin va farovon yashay olmaydi. Ayni O‘zbekistonda shuning uchun ham mustaqillik va yurt tinchligini asrash, yurt tinchligini saqlashda tajovuzkor kuchlar va g‘oyalarga doimo qarshi turish ma’naviy konsepsiysi vaqtida va to‘g‘ri tanlandi.

Siyosiy qadriyatlarning zamonaviy talqinida **yuksak siyosiy xabardorlik qadriyati komil insonni tarkib toptirish, jamiyatning yuksak ma’naviy-axloqiy qiyofa kasb etishiga olib keluvchi islohotlarni taqozo qiladi**. Siyosiy jarayonlar natijasi esa siyosiy madaniyatni targ‘ib qilishning ana shu mazmunidan kelib chiqadi.

O‘z navbatida, ta’kidlash joizki, siyosiy qadriyatlarni anglash fenomeni jamiyatimizda tarixga egalik masalasini hal qilib berdi. Ayniqsa, yoshlar tarbiyasida tarixiy xotiraga egalik masalasi – shaxs siyosiy madaniyatining ajralmas qismi shaklida, o‘tmishni bilish, uni qadrlash, undan saboq olishni taqozo etadi. Shaxs siyosiy madaniyatining namoyon bo‘lishi va rang-barangligida tarix saboqlaridan xulosa



olish insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi, bunyodkorlik va yaratish yo'lidan izchil borishga safarbar etadi. Mustaqillik tufayli xalqimiz o'z tili, madaniyati, urf-odatlari, an'analari, qadriyatları, bir so'z bilan aytganda, o'z tarixiy xotirasiga to'liq egalik qilish imkoniga ega bo'ldi. Milliy urf-odat va an'analarning siyosiy dunyoqarashning shakllanishidagi ahamiyatini yanada kuchaytirdi. Jumladan, tarixiy xotira xalqimizning hamjihatligi va uyushishiga xizmat qiluvchi, ulug'vor ishlarni bajarishga chorlovchi buyuk kuch sifatida ko'rildi. *Yoshlar tarbiyasida tarixiy xotiraga egalik qilishning o'ziga xos xususiyati shundaki, u insonda o'z o'tmishidan faxrlanish tuyg'usini shakllantiradi. U yoshlarning o'zini anglashi, jamiyat oldidagi burchi, ajdodlar ruhi oldidagi mas'uliyatini to'g'ri tushunishga, istiqbolni to'g'ri belgilashga imkon bermoqda.*

Shaxs siyosiy madaniyatini shakllantirishda yoshlarning o'z kuchi va imkoniyatlariga ishonchi ularning aqliy jihatdan sog'lomligiga, ma'naviy va ruhiy jihatdan o'z-o'zini boshqaruv qobiliyatiga bog'liq. Bu holat har bir yoshda har xil kechadi va takrorlanmas, bir-biriga o'xshamas hodisalarни keltirib chiqaradi. O'z kuch va imkoniyatlariga ishonmaslik esa insonning qadriyat sifatidagi bahosini kamaytiradi. O'z kuchiga va imkoniyatiga ishonmaslik ruhiyatni shikastalikka olib boradi, ma'naviy jihatdan qashshoqlashuvga, ichki iroda, ichki madaniyat va axloqiy me'yordan begonalashgan qalb egasiga aylantiradi. Shuning uchun ham uzoq

va yaqin o'tmishimizda allomalarimiz o'z kuchi va imkoniyatlariga ishonch, inson ruhiyati tetikligi va ruhiy tozalik tuyg'ulariga alohida e'tibor berib kelishgan. Shu tariqa milliy urf-odat va an'analarmiz siyosiy dunyoqarash shakllanishida o'z izini qoldirgan.

Ayni paytda siyosiy qadriyatlarini tushunish davlat va jamiyat xavfsizligi masalasini qadriyat darajasiga olib chiqdi. Odamlarda bunyodkorlik g'oyalariga ishonch, shukronalik tuyg'usini kuchaytirdi.

Bunday siyosiy qadriyatlarini rad etish, taassufki, Afg'oniston, Suriya, Ukraina siyosiy inqirozi bilan jamiyat taraqqiyotini izdan chiqarish, uning rivojlanishiga to'g'anoq bo'lish unchalik ham qiyin ish emasligini yana bir bor tasdiqladi. Buning uchun davlat va jamiyat hayotida har qanday siyosiy fanatizm tayanchi bo'lgan ekstremizmga ozgina erk berish, his-hayajonlarni junbushga keltirishning o'zi kifoya ekan. Soxta aqidaparastlikka asoslangan siyosiy, diniy ekstremizm, hayot haqiqatini tan olmaslikka, mavjud ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni yuzaki baholashga yo'l ochib beradi. Natijada, odamlar fikrlash, aql-idrok bilan ish tutish o'rniga ortiqcha his-hayajonga beriladilar. Ehtiroslar junbushga kelib, turli da'vatlar-u shiorlar bilan maydonga chiqadilar. Bunga dunyodagi ko'pgina siyosiy to'ntarishlar bilan bog'liq siyosiy voqeliklar yaqqol misol bo'la oladi. Bu tobda siyosiy madaniyat anglab yetgan voqelikni tasavvur qilish va unga ta'sir etayotgan imkoniyatlarini belgilashga xizmat qilishi darkor.

ADABIYOTLAR

1. Djumayev R. Siyosiy texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2018.
2. Qirgizboyev M. Siyosatshunoslik. – Toshkent, 2014.

O'ZBEKISTONDA YOSHLAR SIYOSATINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI

TURGUNOVA
Nasiba Tuychievna,
O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi
dotsenti, siyosiy fanlar bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yoshlarga oid davlat siyosatining shakllanish, rivojlanish bosqichlari hamda davriy o'zgarishlari dinamikasi, qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjalarning kontent-tahlili, yoshlarning siyosatdagi o'rni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar siyosati, siyosiy jarayon, siyosiy madaniyat, siyosiy faoliik, huquqiy-demokratik davlat.

АННОТАЦИЯ

В статье освещаются динамика становления, этапы развития и периодические изменения государственной политики в отношении молодежи, контент-анализ принимаемых правовых документов, роль молодежи в политике.

Ключевые слова: молодежная политика, политический процесс, политическая культура, политическая деятельность, правовое демократическое государство.

ANNOTATION

This article highlights the dynamics of formation, stages of development and periodic changes in state policy regarding youth, content analysis of adopted legal documents, the role of youth in politics.

Key words: youth policy, political process, political culture, political activity, legal democratic state.

Yoshlar siyosati mamlakatni modernizatsiya qilishdagi eng muhim omillardan biridir. Shu sabab, yoshlarning jamiyatdagi o‘rni, ularning o‘ziga xos xususiyatlari hamda davriy o‘zgarishlari dinamikasini ilmiy va amaliy jihatdan muntazam ravishda o‘rganib borish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Aytish joizki, O‘zbekistonda yoshlarning siyosatdagi o‘rni va roliga turli ilmiy-tadqiqotlar doirasida mahalliy olimlar tomonidan e’tibor qaratilgan va o‘rganilgan. Jumladan, yoshlarda siyosiy madaniyatni shakllantirish, uning falsafiy-siyosiy jihatlari hamda yosh rahbar kadrlar masalalari bo‘yicha shug‘ullangan yirik olimlar sifatida N.Jo‘rayev, S.Otamurodov, I.Ergashev, X.Odilqoriyev, Sh.G‘oyibnazarov, S.Jo‘rayev, Q.Quronboyevlarning asarlarini alohida qayd etish lozim. Mamlakatda amalga oshiriladigan siyosiy jarayonlarning xarakteri aynan yoshlarning siyosiy faoliyk darajasi bilan belgilanib, jamiyatning barqarorligida aks etadi.

Shunday ekan, yoshlarning jamiyat hayotidagi ishtirokini kengaytirish murakkab jarayondir, lekin u insoniyat taraqqiyotining asosini tashkil qilish bilan birga, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash – bu muayyan hudud rivoji uchun kiritilgan o‘ziga xos investitsiya ekanligini yana bir bor e’tirof etish lozim. Albatta, bunday investitsiya o‘rtta va uzoq strategiyaga asoslanadi. Pirovard natija esa, o‘z navbatida, barqaror va uzoq muddatli istiqbolni belgilab beradi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan ilk kunlardanoq yosh avlod tarbiyasi, uning kamoloti, kuch-qudrati, imkoniyat va salohiyatidan oqilona

foydalanishni ustuvor, strategik masalalar qatoriga qo‘ydi. Xususan, yoshlarga oid davlat siyosati mamlakat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab olindi. Albatta, bu endigina mustaqillikka erishgan, hali mustahkam iqtisodiy ustunlariga ega bo‘lmagan davlat uchun jiddiy qaror bo‘lgan edi, desak adashmaymiz.

Shu bois, mamlakatimizda har bir rivojlanish davrida yoshlarning jamiyatdagi o‘rni va ular faoliyatining amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonidagi ahamiyatini oshirish, bu jarayonda zamonaviy fikrlaydigan, tahdidbardosh yosh avlodni shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Dastavval, mustaqillikning qo‘lga kiritilishi yoshlarga oid davlat siyosati masalalarini demokratik tamoyillar asosida tubdan o‘zgartirishni taqozo qilgan edi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov buxususida shunday degan edi: “bugungi kunda bir oliy haqiqat barchamiz uchun ayon bo‘lishi kerak: oldimizda turgan eng ezgu maqsadlarimiz, mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O‘zbekistonning yangi asrda jahon hamjamiyatidan qanday o‘rin egallashi ham, bularning barcha-barchasi, avvalambor, farzandlarimiz qanday inson bo‘lib voyaga yetishiga bog‘liqidir”[1].

Bu borada, o‘tgan yillarda yoshlarning har tomonlama shakllanishi va kamol topishi, ularning salohiyati va iqtidori jamiyat manfaatlari yo‘lida to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan zarur shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan islohotlar amalga



oshirildi. Mazkur islohotlarni tizimli tahlil qilish, ularning samaradorlik darajasiga baho berish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun tegishli chora-tadbirlarni o'z vaqtida ishlab chiqish imkonini beradi.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillarda amalga oshirilgan yoshlarga oid siyosatning mazmun-mohiyati asosan sobiq Ittifoq davrida faoliyat ko'rsatgan yoshlar tashkilotlari tuzilmasini tubdan o'zgartirish va qayta tashkil qilish hamda ularni demokratik tartib-qoidalarga moslashtirish jarayonlari bilan tavsiflanadi.

Mutaxassislarining qayd etishicha, ushbu davrning yana bir o'ziga xos jihatlaridan biri – bu mamlakatda "o'tish davri avlod" shakllana boshlanganidir. Zero, aynan ular erkin demokratik jamiyat qurish yo'lida o'zlarining bor kuch-qudrati va salohiyatlarini amalga oshirdilar[2].

Sobiq Ittifoq davrida faoliyat ko'rsatgan yoshlar tashkilotining asosiy yo'nalishi yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini to'liq nazoratda ushlab turishdan iborat bo'lgan. Bunday yondashuv totalitarizmga asoslangan boshqaru uslubining asosiy jihatlaridan biri sifatida amalga oshirilgan. Buning natijasida deyarli bir xil fikrlovchi yoshlar guruhi shakllangan edi.

Mustaqillikning dastlabki yillardayoq "shaxs-jamiyat-davlat" o'rtaсидаги о'заро munosabatlarni oqilona uyg'unlashtirish, davlatning boshqaruvchilik funksiyalarini bos-qichma-bosqich jamoat tashkilotlari, o'zini-o'zi boshqarish organlariga olib berishning demokratik vosita va usullari joriy etildi. Bu jamiyatni rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etildi. Mazkur jarayonda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan bir qatorda yoshlar tashkilotlari muhim rol o'ynadi. Yoshlarning davlat va jamiyat hayotida ishtirok etishi esa, o'z navbatida, jamiyatni yanada demokratlashtirish va fuqarolik institutlarini shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq.

Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston sobiq Ittifoq respublikalari orasida birinchilardan bo'lib 1991-yilning 20-noyabrida "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini qabul qildi[3].

Unga ko'ra, demokratik-huquqiy va ochiq jamiyat barpo etish maqsadida yoshlarga oid

davlat siyosatining asosiy prinsiplari sifatida quyidagilar mustahkamlab qo'yilgan: a) ochiqlik va shaffoflik; b) yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda yoshlarning ishtirok etishi; d) yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish; e) ma'naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarning ustuvorligi; f) yoshlarning kamsitilishiga yo'l qo'yilmasligi.

1992-yilda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi va unda yosh avlod huquq va erkinliklarining amalga oshirilishi, ehtiyoj va manfaatlarining himoya qilinishi bilan bog'liq bir nechta moddalarning belgilab qo'yilishi mamlakatimizda yoshlar siyosati davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligining amaliy ifodasi bo'ldi.

Xususan, Konstitutsiyamizning 41-moddasida: "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktabishlaridavlatnazoratidadir"; 45-moddada: "Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir"; 64-moddada: "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar"; 66-moddada: "Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar"; 117-moddada: "O'zbekiston Respublikasining o'n sakkiz yoshga to'lgan fuqarolari saylash huquqiga egadirlar" kabi qoida va me'yorlar aks etgan[4].

Shu o'rinda yoshlar masalasiga davlat siyosati darajasida qaralganini mamlakatimizda 1997-yildan amaliyotga kiritilgan har yilning o'ziga xos an'anaviy nomlanishida ham kuzatish mumkin.

Xususan, 1998-yilning "Oila yili", 2000-yilning "Sog'lom avlod yili", 2008-yilning "Yoshlar yili", 2010-yilning "Barkamol avlod yili", 2016-yilning "Sog'lom ona va bola yili" deb e'lon qilinishi mustaqillik yillarda O'zbekistonda yoshlar masalasiga alohida yondashuv amal qilganidan dalolatdir. Ahamiyatlisi, har bir yil nomlanishi ortidan maxsus davlat dasturlari ishlab chiqilgan va shu yilda bajarilishi kerak bo'lgan vazifalar va ustuvor yo'nalishlar belgilab olingan.

Jumladan, "Yoshlar yili" davlat dasturi, eng avvalo, ta'lim darajasini va butun ta'lim tizimi sifatini tubdan yaxshilashga va hayotga qat'iy

ishonch va qarashga ega bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalovchi kadrlarni tayyorlashga qaratilgan.

“Barkamol avlod yili” davlat dasturida esa bolalar sportini yanada rivojlantirish, o‘quv jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogika texnologiyalarini joriy etish, yoshlар o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, iqtidor egalarini kashf etish va ularga keng yo‘l ochish kabi vazifalar belgilab olingan.

Yoshlarga oid davlat siyosati bilan bog‘liq qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlarning kontent-tahlili faqatgina 1992-1993-yillarda mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama rivojlantirish, ularning o‘z imkoniyat va salohiyatini yuzaga chiqarish uchun ijtimoiy kafolatlarni ta’minlashga qaratilgan 14 ta me’yoriy-huquqiy hujjat qabul qilinganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, umumiy hisobda 1991–2016-yillarda yoshlar siyosati va uni amalga oshirishga qaratilgan 100 ga yaqin turli qonun hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ishlab chiqilishi, qobiliyatli yoshlarni rivojlangan xorijiy davlatlar yetakchi oliy o‘quv yurtlarida bilim olishga yuborish, iqtidorli talabalarni moddiy rag‘batlantirishga qaratilgan mamlakatimizda yashab ijod etgan yirik mutafakkirlar (Beruniy, Navoiy va h.k.) nomidagi va Prezident stipendiyasining joriy qilinishi, qizlarga bir qator imtiyozlarni nazarda tutuvchi Zulfiya nomidagi davlat mukofotining ta’sis etilishi, muddatli harbiy

xizmat davomida o‘zini namunali ko‘rsatgan yoshlarga oliy ta’lim muassasasiga tavsiya berilishi kabilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Ushbu tarixiy hujjatlar jamiyatimiz hayotining barcha sohalari kabi davlatimiz yoshlari masalasiga doir siyosatining strategik yo‘nalishlarini mustaqil taraqqiyotimizning boshidanoq to‘g‘ri belgilab olganligidan dalolat beradi.

Ayni vaqtida, mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlar bilan bog‘liq demografik ko‘rsatkichlar tez sur’atlar bilan o‘sdi. Agarda 1991-yilda 14–30 yosh orasidagi aholi soni 6 million 523 ming 366 nafarni tashkil qilgan bo‘lsa, 2022-yil yakunlariga ko‘ra bu ko‘rsatkich 9 million 685 ming 564 nafarni tashkil qildi (2.1-jadval). Ushbu raqamlar, shubhasiz, mamlakatimiz aholisining asosiy qismini yoshlar tashkil etishi va bu katta strategik kuch ekaniligidan dalolat beradi. Ayni vaqtida bu ko‘rsatkichlar yoshlar bilan tizimli va samarali faoliyatni yo‘lga qo‘yishning dolzarbligini yana bir bor ko‘rsatadi.

Yoshlarga oid davlat siyosati yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, iqtidori jamiyat manfaatlari yo‘lida to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy shart-sharoitlarni yaratish hamda ularni kafolatlashga yo‘naltirilgan. Bunday siyosatning tub mazmun-mohiyatini yoshlarga ta’lim-tarbiya berish jarayonlarini tubdan takomillashtirish va zamonaviylashtirish, barkamol avlodni voyaga yetkazish, kuchli ijtimoiy himoya masalalari



tashkil etadi. Shu bilan birga, yoshlarga oid siyosat zamirida yoshlarning jamiyat kelajagini ta'minlovchi kuchli ijtimoiy qatlamga aylanishida yetakchi o'rinn tutishi yotadi.

Mamlakatimizda yoshlarga oid siyosatni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanish tendensiyasining ijtimoiy-siyosiy asoslarini tizimli o'rghanish maqsadida shartli ravishda 3 bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich. 1991–1996-yillar. Bunda mamlakatimizda birinchi marta yoshlar tashkiloti (sobiq komsomol tashkilotining vorisi sifatida Yoshlar ittifoqi) tuzilishi bilan bog'liq tendensiyalarini o'z ichiga oladi. O'zbekistonda 1991–1996-yillarda O'zbekiston Yoshlar ittifoqi nomidagi tashkilot faoliyat yuritgan. Shuningdek, bu davr mamlakatimizda birinchi marta yoshlarga oid siyosatning asoslari va yo'nalishlarini belgilab beruvchi "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi (1991) qonun qabul qilinishi bilan ham tavsiflanadi.

Ikkinci bosqich. 1996–2015-yillarni o'z ichiga olib, mazkur sohadagi qonunchilik asoslarining takomillashuvi va tashkiliy asoslarning shakllanish jarayoni bilan tavsiflanadi. Bu bosqichda mamlakatimizda yoshlar siyosatini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslari va ustuvor vazifalarini o'z ichiga olgan bir nechta qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi[5]. Shuningdek, 1996-yil 17-aprelda "O'zbekiston Respublikasi yoshlarining "Kamolot" jamg'ar-masi to'g'risida"gi Prezident Farmoni bilan "Kamolot" jamg'armasi tuzilgan. Keyinchalik bu jamg'arma 2001-yilda shu nomdagi yoshlar ijtimoiy harakatiga aylantirilgan. Shu davrdan boshlab mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning yangi bosqichi boshlandi. Jumladan, yoshlarning siyosiy va huquqiy madaniyatini yuksaltirish yoshlar siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgilandi.

Uchinchi bosqich. 2016-yildan bugungi kungacha. Bunda 2016-yilning sentabrida O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuning qabul qilinishi, uning amalga oshirilishi bilan bog'liq yangi shart-sharoitlarning shakllantirilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, bu davr 2017-yilda mamlakatda yangi formatdagi

Yoshlar ittifoqi tashkilotining tuzilishi va uning faoliyati bilan bog'liq jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ayni vaqtida, yoshlar masalalarini yanada yuqori bosqichga olib chiqish maqsadida 2020-yilda Yoshlar ishlari agentligi tuzildi[6]. Jami 2016–2021-yillarda yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan 50 ga yaqin normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi[7].

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2020-yil dekabr oyida O'zbekiston yoshlari forumida so'zlagan nutqida bildirgan fikri diqqatga sazovordir: "Sizlarni O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaaho xazinasi sifatida yuksak qadrlayman. Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo'l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuchg'ayratingiz va azm-u shijoatingizga suyanamiz. Yoshlar bilan ishslash Prezidentdan tortib vazirgacha, hokimdan tortib mahalla raisigacha – hammamizning eng asosiy ishimizga aylanishi zarur"[8]. Mamlakat yoshlariga qarata aytilgan bu so'zlar zamirida, shubhasiz, ularga bo'lgan yuksak ishonch, qo'llab-quvvatlash va da'vat mavjud.

Ushbu davrda strategik ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi siyosiy-huquqiy qarorlar qabul qilinganini alohida qayd etish lozim.

Birinchidan, 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi. Ushbu hujjatda *yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish* masalasiga alohida ahamiyat qaratilgan[9]. Mazkur dasturiy hujjatning Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari (to'rtinch yo'nalish) 4.5-bandli "Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish" deb nomlangan. Bu borada asosiy vazifalar sifatida quyidagi masalalar belgilangan: a) jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish; b) o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish; d) yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida

sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish; se) yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish; f) yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta’lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish.

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyulda “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” farmoni qabul qilindi[10]. Mazkur hujjatda o‘tgan yillarda yoshlar bilan bog‘liq masalalar talab darajasida tashkil etilmagani, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati O‘zbekiston yoshlarini buyuk maqsadlar sari birlashtiradigan va safarbar etadigan ommaviy harakatga aylana olmagani tanqidiy ruhda qayd etilgan. Shundan kelib chiqqan holda, ushbu Farmonda mamlakatning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etishga qaratilgan 12 ta muhim yo‘nalish belgilab berilgan. Aynan ushbu hujjatda O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil topgani e‘lon qilinadi. Shubilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 30-iyun kuni “Kamolot” Yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqida mamlakatimizda 30-iyun kunini “Yoshlar kuni” sifatida nishonlash tashabbusi o‘zining qonuniy asosiga ega bo‘ldi. Keyinchalik, 2017-yilning 25-avgustida esa “O‘zbekiston Respublikasi yoshlari kunini belgilash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi[11]. Shuningdek, mardlik va jasorat, qat‘iyatlilik, halollik, vatanparvarlik, fidoyilik va mehnatsevarlik fazilatlarini namoyon etayotgan yoshlar uchun “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti[12] va “Kelajak bunyodkori” medali[13] ta’sis etildi.

Uchinchidan, yoshlarning turli sohalardagi manfaatlarini himoya qilish maqsadida “Yosh olimlar kengashi”, “Yosh ijodkorlar kengashi”, “Yoshlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish markazi”, “Imkoniyati cheklangan bolalar va yoshlar markazi” kabi o‘ttizga yaqin nodavlat-

notijorat tashkilotlar (NNT) ta’sis etildi. Bundan tashqari, yoshlar orasidan istiqbolli kadrlar zaxirasini shakllantirishni nazarda tutuvchi tashabbuskor, islohotlarni amalga oshirish va joylardagi muammolarni hal etishda faol ishtirok etuvchi, rahbarlik lavozimlariga munosib yoshlarni qo‘llab-quvvatlovchi “Vatan iftixonlari” institutsional tizim joriy qilindi[14].

To‘rtinchidan, O‘zbekiston amaliyotida butunlay yangi tizim, ya’ni yoshlarning dolzarb muammolarini o‘rganish bilan shug‘ullanadigan maxsus Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tashkil etildi[15]. Ushbu muassasaning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi qoshida tashkil etilgani institutning ilmiy-metodik va tahliliy-tadqiqot faoliyatini zamon talablari asosida shakllantirish uchun asos bo‘ldi. Institut oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalardan biri – yoshlar muammolarini sotsiologik tadqiqotlar yordamida o‘rganish va ularning yechimlarini topishda zamonaviy ilmiy usullarni joriy qilishdir. Shuningdek, davlat boshqaruvi sohasida yosh rahbar kadrlarning o‘rnini belgilash, ularni tayyorlash va turli mas’uliyatli lavozimlarga tayinlash masalasiga alohida urg‘u berildi. 2017–2019-yillarda Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tomonidan 4 oylik qayta tayyorlov kurslarida 162 nafar yoshlar tahsil oldi hamda ularning aksariyati vazirlik, idora va tashkilotlarning yuqori lavozimlariga tayinlandi.

Beshinchidan, mamlakat siyosiy tizimida yoshlar masalasi bilan shug‘ullanuvchi yaxlit tizim yaratildi. Xususan, respublika darajasida Bosh vazir rahbarligida, hududlarda esa hokimlar raisligida yoshlar masalalari bo‘yicha Idoralalararo kengashlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Joylardagi ijro hokimiyati va ichki ishlar organlarida yangi shtat birliklari – yoshlar masalalari bo‘yicha hokim o‘rinbosari va ichki ishlar organlari boshlig‘i o‘rinbosari lavozimi joriy etildi.

Oltinchidan, mamlakatimizning yoshlarga oid davlat siyosati xalqaro maydonga chiqqa boshladi. So‘nggi uch yilda O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi 13 ta xorijiy yoshlar tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatdi. Jumladan, 2017-yilda Rossiya yoshlar ittifoqi, Qirg‘iziston Yoshlar, madaniyat va sport ishlari davlat agentligi, Germanianing Konrad Adenauer

fondi, 2018-yilda Qozog'istonning "Nur Otan" siyosiy partiyasining "Jas Otan" yoshlar qanoti, Maxtumquli nomidagi Turkmaniston yoshlar tashkiloti Markaziy Kengashi, Tojikiston hukumati qoshidagi sport va yoshlar ishlari bo'yicha qo'mita, Misr yoshlar va sport vazirligi, Belarus yoshlar ittifoqi jamoat birlashmasi kabi tashkilotlar bilan tegishli aloqalar o'rnatildi. Shu bilan birga, 2017-yil 22-dekabrda "O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi" nodavlat notijorat tashkiloti Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tdi. Ahamiyatlisi, assotsiatsiyaning Xitoy, Rossiya, Germaniya davlatlarida joylashgan O'zbekiston elchixonalarida vakolatxonalari ochildi, AQSHda Amerikadagi o'zbek yoshlari assotsiatsiyasi ro'yxatdan o'tkazildi. Hozirda assotsiatsiyaning 9 ta xorijiy davlatda vakili, 36 nafar koordinator hamda 300 dan ortiq volontyorlari faoliyat yuritib kelmoqda[16].

Shuningdek, yoshlarni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga yangi tizim asosida yondashish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus ilgari surildi. Buning zamirida yoshlarni ma'nnaviy barkamol qilib tarbiyalash, ularni turli zararli va yot g'oyalar ta'siridan asrashga alohida e'tibor qaratish maqsadlari mujassamdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq yoshlar masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rildi. Yoshlarga oid davlat siyosatining mustahkam asoslari yaratildi, yoshlarning huquq va manfaatlarini ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy jihatdan himoya qilish mexanizmlari shakllantirildi.

ADABIYOTLAR

1. "Kamolot" yoshlarimizning chinakam suyanchi va tayanchi bo'lsin // Xalq so'zi. 2001-yil 25-yanvar.
2. Туленова Г. Молодёжная политика в Республике Узбекистан: состояние и перспективы развития. – Т.: Aloqachi. 2008. - С. 8.
3. "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni // lex.uz/docs/140894. Mazkur hujjat bugungi kunda o'z kuchini yo'qotgan.
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2017. – B. 16-17-21-22-66.
5. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. www.lex.uz
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloq qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 30.06.20 PF-6017 // norma.uz
7. Quranboyev Q., Sa'dullayev A. Yoshlarga oid davlat siyosati: O'zbekiston tajribasi, istiqboldagi reja va vazifalar // Jamiyat va boshqaruv jurnali, №3 (97), 2022. – B. 45.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston yoshlari forumida so'zlagan nutqi // https://uza.uz/posts/197662
9. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi // lex.uz/docs/3107036
10. "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni // lex.uz/docs/3255680
11. "O'zbekiston Respublikasi yoshlari kunini belgilash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni/ O'RQ-437-son 25.08.2017 // lex.uz/docs/3317994
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mard o'g'lon" davlat mukofotini ta'sis etish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori // lex.uz/docs/3418697
13. "Kelajak bunyodkori" medalini ta'sis etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonuni // lex.uz/docs/3479565
14. O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi rasmiy sayti – www.wayu.uz

XALQARO KESKINLIK SHAROITIDA SIYOSIY YETAKCHI IMIJINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

QOLQANOV

*Nuriddin Tashpulatovich,
X. Sulaymonova nomidagi RSEM
Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti
direktori, siyosiy fanlar bo'yicha
falsafa doktori, dotsent*

ANNOTATSIYA

Maqolada xalqaro keskinlik sharoitida siyosiy yetakchi imijini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: imij, siyosiy yetakchi, yetakchi imiji, xalqaro keskinlik, imij xususiyatlari.

АННОТАЦИЯ

В статье проанализированы особенности формирования имиджа политического лидера в условиях международной напряженности.

Ключевые слова: имидж, политический лидер, имидж лидера, международная напряженность, особенности имиджа.

ANNOTATION

The article analyzes the features of the formation of the image of a political leader in conditions of international tension.

Key words: image, political leader, leader's image, international tension, image features.

Siyosiy yetakchi imijini shakllantirish mashaqqatli jarayon bo'lib, inqirozli vaziyatlar yoki hodisalar tufayli xalqaro keskinlik mavjud bo'lganda yanada murakkablashadi. Siyosiy PR-mutaxassislar ushbu davrda mamlakatning siyosiy yetakchisi imijini yaratish bo'yicha eng to'g'ri strategiyani ishlab chiqishlari va uni PR vositalari va aloqa kanallari yordamida malakali boshqarishlari kerak.

Bugungi kunda zamонавија дунёда кескинлик о'чиqlари хар юли ко'пайиб бормоқда ва бу мamlакатлар siyosiy yetakchilarining imijiga ta'sir qiladi. Nima bo'lishidan qat'i nazar, siyosiy yetakchilar imiji ustida samarali ishlashni давом ettirish kerak. Xalqaro keskinlik turli sabablarga ko'ra yuzaga keladi va rivojlanadi, ulardan biri bir vaqtning o'zida bir nechta mamlakatga ta'sir qilgan inqiroz bo'lishi mumkin. Masalan, buning eng yorqin namunalaridan biri – Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining migratsiya inqirozi. Ushbu muammo bugungi kungacha dolzarb bo'lib qolmoqda, chunki 2015-yilda paydo bo'lgan muhojirlar oqimi tufayli Yevropa Ittifoqi mamlakatlari rahbarlari ushbu masalani hal qilishda bir qator qiyinchiliklarga duch kelishdi, ulardan biri – muhojirlarning katta oqimini qabul qilish bo'yicha kelishmovchiliklar Yevropa Ittifoqi yetakchilariga nisbatan keskin munosabatlarni keltirib chiqardi. Ular tomonidan berilgan bayonotlar va munosabatlari ommaviy axborot vositalari tomonidan faol yoritilgan. Bu Yevropa Ittifoqi siyosiy yetakchilarining imijiga turlicha ta'sir ko'rsatdi. Ya'ni muhojirlar muammolari borasida bergen bayonotlari, bildirgan fikrlari va qabul qilgan qarorlari ayrim siyosiy yetakchilar imijining oshishiga xizmat qilgan bo'lsa, aksincha, ayrimlariga nisbatan jamoatchilikning noroziligini keltirib chiqarib, ishonchsizlikka sabab bo'ldi.

Xalqaro keskinlik sharoitida siyosiy yetakchining samarali va to'g'ri imijini yaratish uchun "xalqaro keskinlik" atamasini aniqlash, uning turlarini tavsiyflash, shuningdek, ushbu davrda siyosiy yetakchining imijiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish lozim.

Xalqaro keskinlik fenomeni uzoq vaqt

davomida muhim va keng muhokama qilingan muammo bo'lib kelgan. Biroq bugungi kunda ham bu masala o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Dunyodagi son-sanoqsiz xalqaro tashkilotlar mavjudligiga, keskinlikni kamaytirish bo'yicha muzokaralar va konferensiyalarning olib borilishiga qaramay, muammoga samarali yechim topib, butunlay hal qilishga erishilmadi. Shu sababli, ushbu masalani hal etish bo'yicha aniq qarorlar qabul qilish turli mamlakatlarning siyosiy yetakchilari oldida turgan ustuvor va muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotchilar, D. Singer, Osgud, Xolsti, Goldmen Nyukomb va Vertlar¹ urushning paydo bo'lishi va boshlanishi uchun sabab sifatida xalqaro keskinlikni ta'kidlaydilar. Xalqaro keskinlik va xalqaro ziddiyat kabi tushunchalar, bir tomonidan, o'xshash bo'lsa ham, bir-biridan ajralib turadigan nazariyalar qiziqish uyg'otadi, chunki bu tushunchalar bir xil emas, biroq ular o'rtasida o'zaro bog'liqlik borligini qayd etish mumkin. "Keskinlik" atamasi odamlar va siyosatchilar, boshqalarga nisbatan ishonchsizlik va shubha kabi bir qator yondashuvlar va tendensiyalarni anglatadi. Keskinlik o'z-o'zidan ziddiyatni keltirib chiqarmaydi, lekin bu turli tomonlarga mojaroga asoslangan xatti-harakatlarni amalga oshirishga imkon beradi. Garchi keskinlik ko'pincha mojaro bilan bog'liq bo'lsa-da, bu har doim ham uning sinonimi emas. Shunga qaramay, keskinlikning sabablari mojaroning sabablari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, agar keskinlik qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir qilish darajasiga qarab yetarlicha kuchaytirilsa, u mustaqil ravishda hissa qo'shadigan omillarga yoki mojaroning avj olishiga aylanishi mumkin.

Xalqaro keskinlik – bu bir nechta davlat o'rtasidagi ziddiyat yoki tushunmovchilik bo'lib, bu mojaro xarakteriga ega bo'ladi, natijada bu davlatlar o'rtasidagi yanada keskinlashuvga olib kelishi mumkin. Agar bundan oldin ular sheriklik munosabatlariiga ega bo'lgan bo'lsa, xalqaro keskinlik paydo bo'lishi va rivojlanishi sheriklikda bo'lgan mamlakatlarning tarqoqligiga va munosabatlarining yomonlashishiga olib kelishi mumkin; koalitsiyalar yoki ittifoq tuzilmalarida birlashgan, siyosiy yetakchilarga rivojlangan davlatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy yoki

¹ Рябцев В. Н., Шитив М. А. Конфликтология. – Ростов на дону, 2001. – С. 220.

siyosiy jihatdan xalqaro aloqalarni o‘rnatishga xalaqtir berishi mumkin, chunki xalqaro keskinlik omilining o‘zi mamlakatni va uning yetakchisi imijining jozibadorligini kamaytiradi.

Shunday qilib, “xalqaro keskinlik” tushunchasi quyidagi jihatlarni o‘z ichiga olishi mumkin: turli sabablarga ko‘ra yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan mamlakatlar o‘rtasidagi ziddiyat, masalan, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va lingvistik omillar, geografik va geosiyosiy omillar va qadriyatlardagi farqlar; ichki yoki tashqi faoliyatni amalga oshirish jarayonida davlatlarning siyosiy yetakchilari o‘rtasida ma’lum bir ziddiyatlar, bir vaqtning o‘zida mamlakatlarni qamrab oladigan inqiroz hodisalar. Ushbu mamlakatlar yetakchilari mavjud muammoga qarshi kurashish uchun aniq o‘zaro yechimga erisha olmaydilar. Xalqaro keskinlikdan kelib chiqadigan oqibatlar ma’lum bir davrda siyosiy rahbarning imijiga ta’sir qiladi, bu uning harakatlarida yoki harakatsizligida namoyon bo‘ladi. Umuman olganda, barchasi ma’lum bir holatga bog‘liq: xalqaro keskinlikning sabablarini tushunish, siyosatchining imijiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan oqibatlarni baholash va shu asosda muayyan choralarни ko‘rish lozim.

Xalqaro keskinlikning ta’siri siyosiy

yetakchining tashqi holatiga, uning jismoniy, hissiy, psixologik sog‘lig‘iga ta’sir qilishi mumkin, chunki siyosiy yetakchi, birinchi navbatda, inqirozli hodisalarini hal qilish, xalqaro mojarolar va xalqaro ziddiyatlarni yumshatish va yo‘q qilish uchun javobgar bo‘lgan shaxsdir.

Tahlillar natijasida xalqaro keskinlik davrida ommaviy axborot vositalari siyosiy yetakchi imijini shakllantirish va o‘zgartirish uchun eng muhim kommunikatsiya vositalaridan biri ekanligi ma’lum bo‘idi. Shunday qilib, siyosiy PR-mutaxassislar o‘z siyosiy yetakchisining qiyofasi qanday taqdim etilishini tushunish uchun ommaviy axborot vositalari tomonidan e’lon qilingan ma’lumotlarga e’tibor berishlari kerak.

Xulosa qilib, xalqaro keskinlik davrida siyosiy yetakchi imijiga katta ta’sir ko‘rsatadigan quyidagi omillarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Madaniy omil, chunki u ko‘p yillar va asrlar davomida ma’lum asoslar va xususiyatlar kasb etgan bo‘lib, uning asosida inson ma’lumotni idrok qiladi, sodir bo‘layotgan voqealarga munosabatda bo‘ladi va shu tarzda harakat qiladi. Bu omil siyosiy yetakchining ritorika/faoliyatida o‘z aksini topadi. Iqtisodiy omil, chunki kuchli iqtisodiy bazaga ega bo‘lmay turib, qandaydir mustaqillikka ega





bo‘lish, faoliyat yuritish, boshqa davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini boshlash va yo‘lga qo‘yish qiyin. Inqiroz hodisalari va xalqaro keskinliklar bu omilga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi va oqibatlari siyosiy yetakchining obro‘siga salbiy ta’sir qiladi, uni mamlakat ichida ham, xalqaro maydonda ham zaiflashtiradi, chunki bu uni ma’lum bir iqtisodiy doiraga olib boradi. Iqtisodiy omil ijtimoiy, siyosiy omillarning yuqori yoki past darajada bo‘lishiga, mustaqil qarorlar qabul qilishda qaramlikning mavjudligi yoki yo‘qligiga olib kelishi mumkin. Uchinchi muhim omil – bu kommunikatsiya vositalarining rivojlanish darajasi, chunki siyosiy

yetakchi o‘zining axborot siyosatini aynan ular orqali amalga oshiradi. Turli maqsadli auditoriya ga yo‘naltirilgan ommaviy axborot vositalari kabi aloqa kanaliga katta e’tibor qaratish lozim, chunki ular xalqaro keskinlik davrida siyosiy yetakchining qiyofasini shakllantirishi va o‘zgartirishi mumkin. Ommaviy axborot vositalari bilan ishlashda muvaffaqiyatlarini kuzatib borish va siyosiy yetakchi strategiyasining to‘g‘riligini, uning imiji qay darajada ijobjiy yoki salbiy ekanligini, uning reytingi qanday ekanligini tushunish uchun “medialogiya” usulini qo‘llash zarur.

ADABIYOTLAR

1. Рябцев В. Н., Шитив М. А. Конфликтология. – Ростов на дону, 2001. – С. 220.
2. Шепель В. М. Имиджелогия. Как нравится людям / В. М. Шепель. – Москва : Народное образование, 2002. – 576 с

JAMIYATDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA MA’NAVIY VA TARBIYAVIY OMILLARNING O‘RNI

*MEYLIEV
Ulmas Farmonovich,
MTTDMQTMOI
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasи
katta o‘qituvchisi*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada jamiyatda mafkuraviy immunitetni shakllantirish va rivojlantirishda ma’naviy omillarning o‘rni haqida fikr-mulohaza yuritilgan. Shuningdek, unda mafkuraviy immunitetni rivojlantirishda ta’lim-tarbiyaning o‘rni muhim ekanligi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: mafkura, mafkuraviy immunitet, mafkura poligonlari, ma’naviyat, ma’rifat, ta’lim, tarbiya, inson qalbi.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается роль духовных факторов в формировании и развитии идеологического иммунитета в обществе. Анализируется роль образования в формировании идеологического иммунитета.

Ключевые слова: идеология, идеологический иммунитет, идеологические полигоны, духовность, просвещение, образование, воспитание, душа человека.

ANNOTATION

The article examines the role of spiritual factors in the formation and development of ideological immunity in society. The role of education in the formation of ideological immunity is also analyzed.

Key words: ideology, ideological immunity, ideological polygons, spirituality, enlightenment, education, upbringing, human soul.

Qalb va ong hayotning ma’no-mazmunini belgilaydigan, inson vujudini boshqarib turadigan sezgi va fikr markazlaridir. Qalb – his-tuyg‘ular makoni. Inson his-tuyg‘ulari o‘ta nozik bo‘lgani bois qalb o‘zgarib turadi. Inson qalbi adashishlardan xoli emas. Adashishlardan saqlanish uchun esa ishonch shakllangan bo‘lishi kerak. Ishonch, o‘z navbatida, e’tiqodga asos bo‘ladi. E’tiqodli qalbni esa yengish qiyin.

Dunyoqarashi teran va fikrlash doirasi keng inson o‘zini boshqarish, fikrini erkin bayon qilish va uni himoya qila olishni biladi. Lekin tuyg‘u va tafakkuri to‘liq shakllanib ulgurmagan sababli yoshlarda e’tiqod va dunyoqarash xiyla zaifroq bo‘ladi. Shu bois yoshlar qiziqqon bo‘ladi, hissiyotlarga tez beriladi.

Mafkuraviy tajovuz muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni zaiflashtirishga, barbod qilishga yo‘naltirilgan, fuqaro va jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi g‘oyaviy-nazariy qarashlarga tayanadi.

Mafkuraviy tajovuz – biron-bir mamlakatga nisbatan ichkaridan yoki tashqaridan turib bevosita amalga oshiriladigan g‘oyaviy buzg‘unchilikning bir shakli. Bugun mafkuraviy tajovuzni amalga oshirish uchun xilma-xil usullardan, ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklardan, shuningdek,

zamonaviy texnika, telekommunikatsiya vositalaridan ustalik bilan foydalanilmoqda.

Mamlakatimizda mafkuraviy tajovuz aholining ma’lum bir qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning qarashlarini o‘zlariga ma’qul yo‘nalishda o‘zgartirish, diniy ekstremizm, axloqsizlik kabi g‘oyalarni singdirishdek ko‘rinishlarda sodir bo‘lmoqda. Bunday tajovuz demokratiya bayrog‘i ostida fuqarolarni qonuniy hokimiyat organlari faoliyatini izdan chiqarish, zo‘ravonlikka undash, ularni Konstitutsiyamizda ko‘zda tutilmagan boshqa tuzilmalar bilan almashtirishga chaqirishdek urinishlarda ham namoyon bo‘lmoqda.

Bunday tajovuzlarga yo‘l qo‘ymaslikning eng qulay yo‘li yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishdir. “Mafkuraviy immunitet” tushunchasini dastlab Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ishlatgan va unga quyidagicha ta’rif bergen: “Ma’lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog‘lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta’bir joiz bo‘lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur” [1].

Immunitet – muayyan himoya demakdir va u nimaningdir oldini olishga, unga qarshi kurashga qaratilgan bo‘ladi. Milliy g‘oya asosidagi mafkuraviy immunitet, avvalo, har bir yurtdoshimizning sog‘lom e’tiqod va yuksak



dunyoqarashga ega bo'lishini taqozo etadi. Mafkuraviy bo'shlarni to'ldirish va mafkuraviy immunitetni shakllantirish barkamol avlod tarbiyasining muhim yo'nalişidir. Bugun insoniyat turli xil g'oyalalar va siyosiy kurashlar butun jahon miqyosida avj olayotgan, g'oyaviy qarama-qarshiliklar keskinlashayotgan bir sharoitda yashamoqda.

Nima uchun kishilar ongi va qalbi uchun kurash turli mafkuralarning bosh maqsadiga aylanib qoldi? Gap shundaki, muayyan g'oya tom ma'noda g'oya bo'lishi uchun kishilar ongini egallashi, to'g'riroq'i, ularning qalbidan joy olishi shart. Aks holda u yoki bu g'oya faqat muayyan xabar yoki axborot sifatida saqlanib qoladi, xolos. Boshqacha aytganda, omborxonadagi keraksiz buyumlar kabi ongimizning bir chetidan joy egallab yotaverishi mumkin. Bir so'z bilan aytganda, bunday holatda g'oya shaxs uchun hech qanday ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lmaydi.

G'oya faqtin inson qalbini egallaganda, inson ma'naviy-ruhiy holatining uzviy qismiga aylangandagina harakatga da'vat etuvchi, rag'batlantiruvchi kuchga, harakat uchun qo'llanmaga aylanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda nafaqat inson ongini, balki qalbini ham egallah mafkuraviy kurashning bosh maqsadi bo'lib qolmoqda. Aynan shuning uchun ham Yer yuzining turli mintaqalari xalqlarining ongi va qalbi turli g'oyalarni sinash maydoniga, boshqacha aytganda, mafkuraviy poligonga aylantirilmoqda.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'zga hududlarni zabit etish maqsadida ishlatiladigan urush qurollari uzlusiz takomillashib borganini ko'ramiz. U nayzalardan toki zamona qurollargacha, zambaraklardan to Yer yuzining har qanday nuqtasiga bexato yetib boradigan qit'alararo ballistik raketalargacha bo'lgan uzoq yo'lni bosib o'tdi. Bu qurollar bosib olinishi kerak bo'lgan hududlar aholisini jismonan yo'q qilishga qaratilgan edi. Bugungi kunda esa o'zga hududlarni zabit etish uchun ularning aholisini yo'qotish shart emas. Zero, ongi va shuuri zabit etilgan, qarash va kayfiyatlar "ma'qil" yo'nalişga o'zgartirilgan aholi ko'magida har qanday boylik, tabiiy resurslarga egalik qilish mumkin bo'lib qolmoqda.

Mafkura poligonlarida sinovdan o'tayotgan, mohiyatan g'ayriinsoniy bo'lgan g'oyalarga qarshi tura olish uchun aholida mafkuraviy immunitet hosil qilish lozim. Immunitet kishi vujudining turli infektion kasalliklarga yengilmaslik xususiyatini ham ifodalaydi. Insonning butun hayoti davomida tashqi ta'sirlarga aks javob sifatida orttirilgan immunitet tizimi shakllanadi. Avvalo, insonning ko'plab xususiyatlari tug'ma bo'lsa, mafkuraviy immunitetni shakllantirish, shakllantirib borish zarur. Ikkinchidan, u har bir avlod uchun o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Uchinchidan, immunitet tizimi shakllangandagina mafkuraviy daxilsizlikni ta'minlash mumkin [2].

Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va birinchi unsuri bu bilimdir. Ammo bilimlar ko'p. Masalan, buyuk davlatchilik shovinizmi yoki agressiv millatchilik mafkurasi va amaliyoti tarafдорлари ham muayyan "bilim" larga tayanadilar va uni boshqalarga singdirishga harakat qiladilar. Shunday ekan, bir tomonidan mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar obyektiv bo'lishi, voqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyatining boyishiga va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Ikkinci tomonidan, bu bilimlar o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra, Vatan va xalq manfaatlari, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi bilan uzviy bog'liq bo'lmog'i kerak. Mafkuraviy immunitet tizimining ikkinchi asosiy qismi ana shunday bilimlar zamirida shakllanadigan qadriyatlar tizimidir. Zero, bilimlar qanchalik obyektiv va chuqur bo'lsa, uning zamirida yuzaga kelgan qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, shaxs, millat yoki davlatning qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi va mafkuraviy tajovuzlar qarshisida mustahkam qalqon bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgizamoning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, u chegara bilmaydigan, hududni pisand qilmaydigan xilma-xil muammolarga serob. Biron davlat – u xoh katta, xoh kichik davlat bo'ladimi, ichida vujudga kelgan muammo tez sur'atlar bilan, nafaqat yon-veridagi qo'shni davlatlarga, balki olisdagi mamlakatlarga ham kirib bormoqda. Bir davlatning tashvishi boshqalarni ham tashvishga solmoqda. Muammolar ko'لامи yoyilib ketmoqda, boshqacha aytganda, global mashashmoqda [3].

Har qanday ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari globallashuv ham o'z ijobiy va salbiy tomonlariga ega. Ijobiy tomoni shunda ko'rinnmoqdaki, davlatlar va xalqlar o'rtasida integratsiya va hamkorlik aloqalari kuchaymoqda, kapital, tovarlar, ishchi kuchi erkin harakat qilishi uchun katta qulayliklar yaratib berilmoqda, ko'plab yangi ish o'rnlari tashkil etilmoqda, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, ilm-fan yutuqlari tezlik bilan tarqalmoqda, qadriyatlar umuminsoniy negizda uyg'unlashmoqda.

Globallashuv mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylandi. U har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilmoqda. Ana shunday vaziyatda milliy g'oya va mafkuraga bo'lgan ehtiyoj yanada oshadi. Bunday sharoitda har bir odam mustaqil fikr va mustahkam dunyoqarashga ega hamda irodali bo'lishi zarur. Aks holda, turli ma'naviy tahdidlarga qarshilik ko'rsata olmaydi, ularning ta'siriga berilib, to'g'ri yo'lidan adashib, berk ko'chaga kirib ketishi oson bo'lib qoladi.

2017-yilning noyabr oyida Samarqandda bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiyl kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi xalqaro konferensiya Prezident Shavkat Mirziyoyev forum qatnashchilari hamda dunyo jamoatchiligini xavfsizlikka tahdidlarni "o'ziniki va o'zgalarniki" deb ajratishdan voz kechish, "yaxlit xavfsizlik" tamoyiliga amalda rioya qilish, bu sohadagi amaliy hamkorlikni chuqurlashtirish zarurligini ta'kidlagan edi. Zotan, mintaqa davlatlari terrorizm hamda diniy ekstremizm tahdidlariga birdek duch kelmoqda [4].

Davlatimiz rahbari xalqaro terrorchilik va ekstremizm asosida, boshqa omillar bilan bir qatorda, johillik hamda toqatsizlik ham yotganini BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasining yuksak minbaridan turib alohida aytib o'tdi. Shu bois insonlar ongi uchun kurash asosiy vazifadir. Birinchi navbatda, yoshlar tafakkurini egallab olish talab qilinadi. Chunki ekstremistik faoliyat va zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga yetmagan yoshlar tomonidan sodir etilmoqda. "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq" [5], degan edi Shavkat Mirziyoyev.

BMTga a'zo mamlakatlar vakillari O'zbekistonning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyani ishlab chiqish, jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazish, Bosh Assambleyaning "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish bo'yicha tashabbuslarini qo'llab-quvvatladi.

Aholisining 60 foizini yoshlar tashkil qiluvchi Markaziy Osiyo – eng yosh mintaqalardan biri. So'nggi bir yarim yil ichida mutlaqo yangi siyosiy muhit shakllanib ulgurgan bugungi kunga kelib, bu qadar hayotiy ahamiyatga molik masalalarni faqatgina birgalikdagi intilishlar, hamkorlikni kengaytirish hamda kuchaytirish orqali hal etish mumkinligini mintaqadagi barcha anglab yetdi. Yoshlarda mustahkam fuqarolik pozitsiyasi, kuchli mafkuraviy immunitetni shakllantirish borasida yagona strategiyani ilgari surish ertamiz egalarining terrorizm va ekstremizm g'oyalariga samarali qarshi turishiga xizmat qiladi.

Bu yerda yoshlarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish bo'yicha vazifalar birinchi o'ringa chiqadi. Yoshlar migratsiyasiga turtki bo'layotgan ishsizlik, sifatlari ta'lim olish imkoniyatining cheklanganligi hamda o'z navbatida, madaniyat va bilim darajasining pastligi ekstremistlarga qo'l kelayotgan salbiy omillar bo'lib, aynan shu holatlar yoshlarni himoyasiz ahvolga solib qo'ymoqda.

Aniqki, yosh yigit-qizlar internet manbalardan eng ko'p ma'lumot oluvchi qatlamdir hamda bundan terrorchilik tuzilmalari imkon qadar foydalanmoqda. Faol internet auditoriyasining tafakkuri va kayfiyatini o'z g'oyaligiga bo'ysundiryapti, yoshlarning qalbiga qo'rquv, nafrat hamda zo'ravonlik urug'ini sochmoqda. Globallashuv sharoitida internet terrorchilar uchun yangi a'zolarni aniqlash, miyasini zaharlash va o'z tashkilotiga tayyorlashda, mablag' yig'ish hamda ularni o'tkazishda, terrorchilik harakatlarini amalga oshirish va o'z maqsadlarini ommalashtirishda bosh quroqla aylandi.

Zo'ravonlikka tayangan ekstremizm hamda terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashishning dolzarb muammolari yosh avlodni buzg'unchi g'oyalalar, ekstremizm hamda terrorizm ta'sirlaridan himoyalash bo'yicha siyosiy-huquqiy, ijtimoiy va tashkiliy-profilaktik

vositalarni yanada takomillashtirishni taqozo etyapti [6].

Ta'lism - bu jamiyatni yuksaltirishni belgilab beruvchi ijtimoiy institutdir, u ijtimoiy ongni shakllantiradi. Bugungi kunda shuning uchun ta'limga, uning istiqboliga katta e'tibor qaratilyapti. Ta'lism-tarbiya yoshlarimiz ma'naviyatini yuksaltirish va istiqbolimizni nurafshon qilish vositasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi", - deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi" [7].

Darhaqiqat, jamiyatdagi barcha muammolar ma'naviy jihatdan barkamol insonlarning sa'y-harakati asosida o'z yechimini topadi. Demak, kishilarning ruhiyati, ya'ni ma'naviyatini yuksaltirishning samarali vosita va usullarini yaratish lozim.

Yoshlarga ta'lism olishda keng imkoniyatlar yaratib berish, shuningdek, ta'lism sifati hozirgi zamон talablariga muvofiq bo'lishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlarni vujudga keltirish O'zbekistonda ta'lism tizimini isloh qilishning ustuvor vazifalari hisoblanadi.

Globallashuv va intensivlashuv davrida jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy o'zgarishlar, zamondoshlarimiz dunyoqarashida ham o'ziga xos sintez hodisasini yuzaga chiqarmoqda. Zotan, yangi g'oyalarning paydo bo'lishiga keng ko'lamli bilimlarga ega bo'lish samarali ta'sir qiladi. Tafakkurga internet, telefon, televideniye, kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali vositali ta'sir etish mumkin. Chunki juda katta hajmdagi maqola yoxud ilmiy asarning mazmun-mohiyatini yarim betlik annotatsiyada ifodalash mumkin bo'lganidek, klipda ham, inson hayotining butun mazmunini besh minutlik rolik orqali tushuntirib berish mumkin. Demak, texnologiyalarning rivojlanishi bir tomonidan ijobiy natijalar bersa, ikkinchi tomondan, salbiy ta'sir etishi ham mumkin. Tushunish uchun imkoniyatning chuqurligi talab etilishi shubhasiz. Tanqidiy tafakkur qilishni shakllantirish degani emasdir. Zotan, tanqidiy tafakkur rivoji uchun bilimlarning chuqurligi talab etiladi.

"Hozirgi vaqtida rivojlangan mamlakatlarda ta'lism jamiyatning, bir tomondan asosiy ishlab

chiqaruvchi kuchi insonni kamol toptiradigan, boshqa tomonдан esa - dunyoqarashni shakllantirish manbayi, jamiyat madaniyatlilik darajasining ko'rsatkichi hisoblanuvchi yirik tarmog'iga aylanish tendensiyasi tobora bo'rtibroq namoyon bo'layotgani tasodify bir hol emas. Mamlakat qudrati avvalo ta'lism tizimi bilan belgilanishi aniq-ravshan tus olmoqda. Chunki ta'lism tizimining qanchalik samarador ekaniga qarab shu jamiyatning ma'rifatlilik darajasi va kelajagi haqida tasavvur hosil qilish mumkin" [8].

Demak, ta'lism ma'naviyatning tarkibiy qismini tashkil etadi. Chunki ta'lism nafaqat u yoki bu fanni yoxud sohani o'zlashtirishga, shuning bilan birga insonlarning ma'nан barkamol bo'lishiga ham xizmat qiladi, ta'lismning mazmun-mohiyatiga singdirilgan ezgulik, bunyodkorlik, vatanparvarlik, millatparvarlik va umuminsoniylik kabi umuminsoniy qadriyatlar insonning axloqiy-ma'naviy yuksalishiga xizmat qiladi. Shu ma'noda, ta'limsiz ma'naviyat bo'lmanagidek, ma'naviyatsiz ta'lism ham bo'lmaydi. Ular o'zaro chambarchas bog'liq holda jamiyat ijtimoiy hayotining yuksalishiga xizmat qiladi.

Ta'lism-tarbiya - bu insonning go'zal fazilatlarini kamol toptirishga xizmat qiladigan sohadir. Odamlar har doim insoniylik haqidagi bilimlarga ehtiyoj sezishadi. Ta'lism konsepsiyasida insonning o'sha ichki ehtiyojini qondirish, uning his-tuyg'ulariga, ruhiyatiga ta'sir etish va tafakkurini kengaytirishga e'tibor beriladi. Ijtimoiy-ma'rifiy faoliyatda faol ishtirok etishi, mushohada qilishning yuksalishi, mehnat jamoalarida yaratish va bunyod etish, o'zini ijodiy namoyon qilishiga imkon yaratiladi.

Ta'lismning rivojlanishi ma'naviyat bilan bog'liqlikda kechadi. U inson hayotining uzviy bo'lagi bo'lib, usiz jamiyatning rivojlanishini tasavvur etib bo'lmaydi. Inson ma'naviyatini yuksaltirishda ta'lism-tarbiya tizimining muhim omil ekanini yaxshi anglagan respublikamiz davlat siyosatida ta'limga alohida e'tibor qaratildi. Mamlakatimizda izchil davom etayotgan ta'lism islohotlari yoshlarimizni ma'naviy jihatdan boy, barkamol insonlar qilib tarbiyalashga qaratilgandir.

Mamlakatimizda insonparvar-huquqiy demokratik davlat qurish, fuqarolik jamiyat shakllanishiga yo'l ochish uchun chinakam

vatanparvar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan va unga qat’iy amal qiluvchi, shaxsiy manfaatini el-yurt manfaati bilan uyg‘un holda qo‘ya oladigan barkamol insonlarni tarbiyalash kun tartibiga qo‘yilmoqda. Mustaqil fikrlash, ishlash va yashash qobiliyatiga ega bo‘lgan barkamol insonni tarbiyalash, uning dunyoqarashi va ma’naviyatini o‘zgartirish, zamon talab-ehtiyojlariga monand yangilashning samarador yo‘llari, usullari ta’sirchan vositalarining tizimini yaratish lozim. Zotan, “Ta’lim tizimining ma’naviy-axloqiy jihatni keng ijtimoiy muhitning tarkibiy qismi bo‘lib, u fuqarolarning ma’naviy-axloqiy qonuniyatlar va xususiyatlarni o‘zlashtirishi hamda ehtiyoj darajasida unga amal qilishi bilan belgilanadi”[9].

Shuni alohida ta’kidlash joizki, ijtimoiy hayotning qonuniyatlarini yaxshi ilg‘agan yuqori ma’lumotli, ma’naviy dunyosi boy va milliy qadriyatlarning mohiyatini teran his qilgan shaxsgina iqtisodiy erkin bo‘lishi, demokratik va tub islohotlarning tayanchiga aylanishi mumkin.

Buni ilmiy-falsafiy tushunish mamlakatimizning ma’naviy hayotini yangilash, bozor iqtisodi munosabatlariga asoslangan erkin va demokratik fuqarolik jamiyati shakllanishi uchun keng ufqlar ochadi. Binobarin, insonshunoslik fanlarining o‘quv dasturlarini yanada mukammallashtirish, sohaga oid zamonaviy darsliklar va maxsus adabiyyotlar chiqarishga jiddiy e’tibor berish zarur. Yangi jamiyat a’zosida, eng avvalo yoshlarda yuqori ma’naviyat va axloqiy poklikni shakllantiruvchi omil bo‘lgan insonshunoslik sohasining moddiy-o‘quv tayyorlov bazasini mustahkamlash, ularni tobora rivojlantirib borishni zamon taqozo etmoqda.

Sharqona qadriyatlarda ikki narsa g‘oyat ulug‘lanadi: kattaga hurmat, kichikka izzat. Shu ikki xususiyat yetakchi ijtimoiy-ma’naviy tamoyil bo‘lsagina muhit sog‘lomlashadi. Fundamental fanlarga alohida e’tibor berish bilan birga, ijtimoiy-gumanitar fanlar ravnaqi uchun kurash jarayonida ma’naviyatning ta’sirchanligini yanada oshirish o‘ta muhimdir.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat etishga xizmat qilsin. – T.: O‘zbekiston, 1998. – B. 36.
2. <http://mv-vatanparvar.uz/kr/3119/>
3. <http://mv-vatanparvar.uz/kr/3119/>
4. <https://xs.uz/uzkr/post/kuchli-mafkuravij-immunitet-yoshlarning-yot-goyalardan-himoyalani-shida-muhim-orin-tutadi>
5. Kuchli mafkuraviy immunitet yoshlarning yot g‘oyalardan himoyalanishida muhim o‘rin tutadi. <https://xs.uz/uzkr/post/kuchli-mafkuravij-immunitet-yoshlarning-yot-goyalardan-himoyalanishida-muhim-orin-tutadi>.
6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 505.
7. Shermuxamedova N. Ta’lim ijtimoiylashuvining ustuvor yo‘nalishlari.// Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.-Toshkent: Nishon noshr nashriyoti, 2010. – B. 24.
8. Qahhorova M. Uzluksiz ta’lim tizimi va ma’naviy axloqiy muhit // Falsafa va huquq, 2016. 2сон.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kunning dolzARB muammolaridan biri bo'lgan konflikt tushunchasi, bunda ikki yoki undan ko'p tomonlarning o'z maqsadlariga yetish yo'lidagi turli manfaatli to'qnashUVI, har bir inson o'z hayoti davomida konfliktlar bilan to'qnash kelishi, konflikt bilan to'g'ri munosabat o'rnatish inson tarbiyasi, uning shakllanishining zaruriy talablaridan biri ekanligi haqidagi tahliliy fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: konflikt, to'qnashuv, urush, demokratiya, terrorizm, tinchlik, ma'naviyat, inson, mas'uliyat, umuminsoniy qadriyatlar, tarix, madaniyat, konstruktiv, destruktiv, musulmonchilik.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается понятие конфликта, являющегося одной из актуальных проблем современности, когда две или более стороны сталкиваются с разными интересами для достижения своих целей. Каждый человек сталкивается с конфликтами в течение своей жизни. Приведены аналитические размышления о том, что установление правильных отношений является одним из необходимых требований воспитания и формирования личности.

Ключевые слова: конфликт, война, демократия, терроризм, мир, духовность, человек, ответственность, общечеловеческие ценности, история, культура, созидательное, разрушительное, мусульманство.

ANNOTATION

This article discusses the concept of conflict, which is one of today's urgent problems, in which two or more parties conflict with different interests in order to achieve their goals. Every person faces conflicts during his life. Analytical thoughts that establishing a correct relationship with the conflict is one of the necessary requirements of human education and its formation.

Key words: conflict, war, democracy, terrorism, peace, spirituality, human, responsibility, universal values, history, culture, constructive, destructive, Islamism.

Ijtimoiy konfliktlar kundalik hayotimizda real voqelikka aylandi. Turli mamlakatlarda shaxtyorlarning ish tashlashlari, siyosiy rahbarlar va partiyalarning o'zaro kurashi, millatlararo va hududiy nifoqlar, jinoyatchilik dunyosidagi "yechimlar" deyarli doim odamlarni o'ylantirib qo'yemoqda, davlat va jamiyat hayotida butunlay yangi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Kishilar konfliktlar bilan tinimsiz "kurash olib boradilar", biroq ular kamaymasdan, balki ortib bormoqda. Ro'y berayotgan iqtisodiy, siyosiy va huquqiy institutlarning qayta tashkil etilishi turli-tuman konfliktlarning avj olish tendensiyanining o'zgarishiga hozircha jiddiy ta'sir ko'rsatgani yo'q.

Hozirgi zamon fani insoniyatning tarixiy o'tmishiga nazar tashlar ekan, konfliktning hamisha ijtimoiy taraqqiyotning doimiy yo'ldoshi ekanligiga shubha qilmaydi, chunki odamlar bor joyda konfliktlar mavjud bo'lgan va bo'laveradi. Ijtimoiy hayotda konfliktlarning tutgan o'rni va keng tarqalganligi uzoq o'tmishda ham e'tiborni o'ziga tortgan.

O'tgan asrlarda ijod qilgan faylasuflar, tarixchilar, yozuvchilarning asarlarida va g'oyalarida vujudga kelishi ehtimol bo'lgan konfliktlarning yuzaga kelish sabablari va ularni tugatish yo'llari haqida muayyan fikrlar bildirilgan. O'tmishda konfliktlarni hal etishning asosiy usuli sifatida urug'-qabila oqsoqollari, dohiylarining yakkahokimligi tushunilgan. Biroq ilk davlatchilik tuzilmalarining vujudga kelishi har doim ham jamiyatda uyg'unlikka olib kelмаган, ba'zida ijtimoiy notenglikni keskinlashtirgan, konfliktlarni yaqqol namoyon etgan va kuchaytirgan. Shu bois asrlar davomida insonlar urushlar bo'lmaydigan, nizolar va adovat barham topadigan mukammal kelajakka ishonch hissi bilan yashaganlar.

Qadimgi yunon faylasuflari birinchilardan bo'lib ijtimoiy konfliktlarning tabiatini to'g'ri tushunishga uringanlar. Mashhur qadimgi faylasuf-dialektik olim Geraklit (er.av. 530–470-y.y.) urushlar va ijtimoiy konfliktlar haqidagi fikrlarini borliqning tabiatiga bo'lgan qarashlarning umumiy tizimi bilan bog'lashga

harakat qilgan. Uning fikricha, "koinotda hukm suruvchi yagona umumiyy qonun – bu urushdir, u hamma narsaning otasi va shohidir. U kimlarni dir xudolar va kimlarni dir insonlar qilib yaratadi, insonlarning ba'zilarini qul, boshqalarini erkin qilib belgilaydi. Hamma narsa, shu jumladan inson muloqoti normalari ham abadiy aylanma harakat va bir-biriga aylanish ta'sirida bo'ladi. Dunyoda barcha narsa adovat va nifoq orqali tug'iladi [1]. Geraklitning bu so'zları ijtimoiy taraqqiyot jarayonida kurashning ijobiy rolini to'g'ri asoslashga bo'lgan dastlabki urinishlardan biri ekanligini ko'rsatadi. Konfliktlar o'zining yangi xususiyati bilan ijtimoiy hayotning muhim atributi, ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim va zarur sharti sifatida namoyon bo'ladi. Geraklitning konfliktlar va kurash barcha narsaning asosi sifatida hisoblanishi haqidagi g'oyalari boshqa qadimgi faylasuf-materialist – Epikur (er.av. 341–270-y.y.) tomonidan rivojlantirildi, ayni paytda u to'qnashuvlarning salbiy oqibatlari qachonlardir insonlarni doimiy tinch-totuv sharoitda yashashga majbur qiladi deb hisoblagan [1]. Shunday qilib, jamiyatning konfliksiz holatda bo'lishi haqidagi g'oyalari dastlabki nazariy xulosalar bilan to'ldirildi.

Buyuk Britaniyalik konfliktolog tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, "Hozirda konfliktlarni hal qilishga ko'p kuch-g'ayrat sarflanmoqda. XX asr 80-yillarining oxiriga qadar bo'lib o'tgan urushlarning aksariyati mamlakatlar o'rtasida yuz bergan. Endilikda urushlarning ko'pchiligi fuqarolik va o'zaro urushlar bo'lib, qurbanlarning ko'pi tinch aholiga to'g'ri keladi. Ayni paytda ko'pincha erkaklar nobud bo'ladi, "bedarak yo'qoladi" yoki harbiy harakatlarda qatnashishga majbur bo'ladilar, ayollar, keksalar va bolalar ko'chib yurishga yoki qochoq bo'lishga majbur bo'ladilar.

Ko'pchilik bu holatni dunyoda "bipolyar" tartib inqirozidan so'ng sovuq urushning tugashi hamda millatchilik va etnik o'z-o'zini anglashning tug'ilishi bilan tushuntiradilar. Sobiq Sovet ittifoqi ta'sirining yo'qolishi ham kapitalizmning mavqeyi ortishiga olib keldi, bu esa kishilarning demokratik jamiyatlar va iqtisodiy tizimlarni qurish yo'lidagi intilishlariga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Konfliktlar borasidagi yangi nazariy-tahliliy motivlar polyak olimi, yurist Lyudvig Gumplovich

(1838–1909-yy.) ijodida ham uchraydi. Jahon tarixinining irqlar o'rtaсидаги доимий курашдан iborat ekanligini e'tirof etgan olim, irqlarning yuzaga kelishi hamda ularning bir-biridan farqini biologik jihatdan emas, balki ular madaniyatlarining o'ziga xos xususiyatlardan deb hisoblaydi. Alovida irq – o'ziga xos bir madaniyatdir. Shu bois konfliktlarning sabablarini faqat inson tabiatidangina emas, balki o'ziga xos mavjud madaniyat tiplarining ijtimoiy fenomenidan izlash kerak. Negaki, madaniyatlar ijtimoiy fenomeni konfliktlarning qanday tus olishini oddiydan to murakkabgacha bo'lgan bosqichlarining ijtimoiy hayot talablariga monand o'zgarib borishi jarayonidagi ilk ma'lumotlarni berishi mumkin.

L. Gumplovich fikricha, konfliktlar yagona va zaruriy ijtimoiy jarayon emas. Biroq keng ijtimoiy jamoalar hamda davlatlarni vujudga keltiradigan ijtimoiy birlashuvlar ahamiyatga molik jarayondir. Chunki bu yerda konfliktning asosiy hal qiluvchi rolni o'ynashining sababi bitta, ya'ni jamiyatda ijtimoiy guruhlar aynan konflikt natijasidagina birlashadilar. Jamiyatda yangi qoidalar birligining shakllanishi alohida-alohida guruhlar kurashi natijasi sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

L. Gumplovichning jamiyatdagi ijtimoiy konfliktlar tabiatiga nisbatan munosabatlarini uch asosiy tezisga bo'lish mumkin:

konfliktlar tarixiy jarayon negizi, ularning hammasi turli xarakterga ega bo'lsa-da, taraqqiyot omili hisoblanadi;

jamiyatning hukmronlar va bo'ysunuvchilar(xizmatkorlar)ga bo'linishi, shuningdek, ular o'rtaсидаги munosabatlarning nouyg'unligidan kelib chiqadigan konfliktlar ham abadiy hodisadir;

konfliktlar jamiyatning birlashuviga yordam beradi, keng birlashmalarning shakllanishini ta'minlaydi [2].

Keyingi vaqtida Butun jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi kabi xalqaro moliya institutlari ham qashshoq, ham boy mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida hal qiluvchi rol o'ynay boshladilar. Iqtisodning erkinlashuviko 'pincha bu mamlakatlar ichkarisida ziddiyatlar va konfliktlarni chuqurlashтиrdi. Ichki konfliktlar sonining ortishi ularning globallashuvi bilan birgalikda ularning alohida

buyuk davlatlar nazoratidan chiqib ketishiga olib keldi, shuningdek, harbiy diktatura, siyosiy korrupsiya va iqtisodning kriminallashuvi kabi o'zaro bog'liq tendensiyalar chuqurlashuvining natijasi bo'liboldi.

Insoniyat yaralibdiki, turli-tuman konfliktlar qurshovida yashab, kurashib keladi. Konfliktlarning mavjudligi, bir tomondan, insoniyatni kurashga, o'zining, jamiyatning hayotini, davlat faoliyatini yaxshilashga undasa, ikkinchi tomondan turli xil destruktiv, vayronkor kuchlarning faollashuviga ham olib keladi. Tomonlar bir birlarini tushunmasligi, biror-bir murosaga kelmasligi mazkur kuchlarni harakatga keltiradi. Shu o'rinda konflikt tushunchasining izohlarini tahlil qilsak.

Konflikt – murakkab, ko'p qirrali va darajali ijtimoiy-ruhiy holat. Konflikt deganda, avvalo, qadriyatlar hamda ma'lum bir maqom, hokimiyat, zaxiralar uchun kurash, raqiblar tomonidan bir-biriga moddiy va ma'naviy zarar yetkazish, raqibni yo'q qilish tushuniladi. Konfliktlarda u yoki bu mavzular, qiziqish va manfaatlar orqali birlashgan individlar, ijtimoiy guruhlar, milliy-ethnik jamoalar, davlatlar, bir guruh mamlakatlar qatnashadi.

Konflikt – bu ikki, yoki undan ko'p tomonlarning o'z maqsadlariga yetish yo'lidagi turli manfaatli to'qnashuvidir.

Konflikt har bir inson hayotiga aloqador bo'lgan o'ziga xos jarayon bo'lib, hech bir inson o'zini komil ishonch bilan konfliktli vaziyatlar dan muhofaza qilinganman deb ayta olmaydi.

Konfliktlar inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi, chunki har bir inson o'z hayoti davomida konfliktlar bilan to'qnash keladi.

Konfliktlar tabiiy hodisa bo'lib, konflikt bilan to'g'ri munosabat o'rnatish inson tarbiyasi, uning shakllanishining zaruriy talablaridan biridir.

Konflikt – bu ijtimoiy subyektlarning qarama-qarshi manfaatlari, pozitsiyalari, qadriyatlari va qarashlarini amalga oshirish uchun qarama-qarshiligi hamda bu va boshqa ko'plab ta'riflarda konflikt birinchi navbatda qarama-qarshilik yoki uning momentlaridan biri – qarama-qarshiliklar kurashi bilan bog'liq. Qarama-qarshilikning muhim belgilaridan biri bu manfaatlarning qarama-qarshiligi bo'lib, ular o'z navbatida qadriyatlari, maqsadlar va yo'nalishlar bilan bog'liq. Shunday qilib, manfaatlar konfliktni tahlil qilish uchun zarur bo'lgan asosiy tushunchadir.

Har qanday konflikt nizolashayotgan tomonlar bilan bir qatorda qarama-qarshilik predmeti bilan ham xarakterlanadi.

Konflikt tarkibiga u yoki bu shakldagi konfliktli harakat va unga rahbarlik qiluvchi ong, harakat vositalari va usullari, konflikt sohasi ham kiradi. Bundan tashqari, biron-bir to'qnashuv yuzaga kelishidan oldin paydo bo'lgan ziddiyatlari vaziyatsiz konflikt bo'lishi mumkin emas.

Konfliktning subyektlari, darajasiga qarab, shaxslar, guruhlar, sinflar, milliy-etnik jamoalar, tashkilotlar, ijtimoiy institutlar, jamoat va siyosiy birlashmalar, davlatlar, xalqaro hamjamiyatdir. Qarama-qarshilik jarayonida konflikt subyektlari o'zgarishsiz qolmaydi. Konfliktning dinamikasi bevosita uning subyektlarining rivojlanishi bilan bog'liq va aksincha. Agar konflikt boshqa sifat holatiga aylansa, qarama-qarshi tomonlar ham shunga mos ravishda sifat jihatidan o'zgaradi.

So'nggi vaqtarda zamonaviy jamiyatlardagi insonga bo'lgan turli ilmiy-texnik, ma'naviy, iqtisodiy ta'sirlarning haddan ziyod ortib borishi, zamonaviy jamiyatlarda yashash tarzining murakkablik tomon ortib borayotganligi odamlar to'qnash kelishi mumkin bo'lgan turli konflikt vaziyatlarni ham oshiradi.

Konfliktlar turli sabablarga ko'ra yuzaga chiqadi, ya'ni: ma'naviy, moddiy, iqtisodiy, siyosiy, diniy kelishmovchiliklar va boshqalar. Konfliktni chuqurroq tushunish uchun, albatta, uning kelib chiqish sabablarini o'rganmoq lozim. Masalan, er-xotin o'rtasidagi konfliktlarni oladigan bo'lsak, avvalo ularning oilaviy hayotda turli ma'naviy va moddiy zaxiraga ega bo'lgan oilalarda tarbiyalanganliklari, bir-birini hurmat qilmasligi, tushunmasligi, er xotinni, xotin erni qo'llab-quvvatlamasligi, oiladagi iqtisodiy yetishmovchilik va hokazolarni sabab qilib ko'rsatish mumkin. Ishxonada rahbar va xodim o'rtasidagi konfliktlar aksariyat holatlarda rahbarning boshqaruv ilmiga to'liq ega emasligi, sohani bilmasligi, qo'l ostidagi xodimlar bilan kelisha olmasligi, ularni tushunmasligi yoki o'z gapini o'tkaza olmasligi va hokazolardan kelib chiqadi. Har qanday konflikt asosida biror tomonning ma'lum bir maqsadga erishish yo'lidagi harakati yotadi. Demak, konflikt muayyan manfaat va maqsadlarga erishish yo'lidagi o'zaro muloqotning o'ziga xos sifatidir [3].

Konflikt har kunlik hayot tarzimizga xos

bo'lgan voqelik bo'lishiga qaramay, insonlar ko'pincha ularni noto'g'ri talqin etadi hamda ularni "anglangan" holda qabul qilishga o'rgatilmaydi. Konflikt vaziyatga tushib qolgan vaqtimizdagina mana shu konflikt vaziyatni tahlil qilishga urinamiz. Ammo har doim ham bizning bilim va ko'nikmalarimiz konflikt vaziyatdan chiqib ketish uchun yetarli bo'lmaydi. Chunki bizning hayotiy tajribamiz kam, chunki biz konfliktlar yechimi bo'yicha maxsus bilimlarni egallamaganmiz. Tabiiyki, har bir inson konfliktlarni tushunadi, ular mohiyatini to'g'ri anglaydi hamda ularni yenga biladi deyish xato hisoblanadi. Shu bois, konfliktlarni o'rganish, ularni ilmiy anglash davr talabi bo'lib, konfliktlar bo'yicha zamonaviy bilimlarni egallagan mutaxassislarini tarbiyalab voyaga yetkazish davr bilan hamnafas bo'lishni anglatadi. Xorijiy ellarda yuqori va quyi bosqichdagi barcha rahbar xodimlar, biznes menejerlarning hammasi konfliktlar yechimi bo'yicha ta'lim oladilar. Konfliktlar va ularning yechimi bo'yicha ma'lum bilim va ko'nikmalarni egallamasdan turib, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda faoliyat olib borib hamda ularni boshqarib bo'lmaydi.

Har qanday konflikt insonlar va individning ruhiy holatidagi qarama-qarshiliklar hosilasidir. Borliqdagi har bir predmet va hodisa u yoki bu ko'rinishdagi qarama-qarshiliklarga ega. Qarama-qarshi xossa va xislatlarning o'zaro bir-birini istisno etishlari asosida konflikt vujudga keladi. Konflikt esa, albatta boshqa holatga, bosqichga, sifatga o'tish zaruriyatini tug'diradi [4].

Konfliktlar tasnifi

Konfliktlarni tasniflashda albatta ularning o'ziga xosligini inobatga olish zarur. Shu nuqtayi nazardan uni:

shaxsning ichki qarama-qarshiliklari va kurashi;

shaxslararo;

shaxs va guruh o'rtasidagi;

guruuhlararo;

davlatlararo (yoki davlatlar koalitsiyalari o'rtasidagi) konfliktlarga bo'lish mumkin.

Shaxsdagi ichki qarama-qarshilik uning asabiylashishi, o'z hayotiy faoliyatidan qoniqmasligi, bir qarorga kela olmasligi natijasida paydo bo'ladi. Masalan, Zigmund Freydning psixoanaliz nazariyasiga ko'ra [5], ichki konflikt

“Men” va “O‘ziga yuqori baho berish”dan kelib chiqadi. Mazkur konfliktlar ruhiy asosga ega bo‘lib, shaxsning o‘ziga past yoki juda yuqori baho berishidan kelib chiqadi. Ular konstruktiv va destruktiv xarakterga ega bo‘lib, shaxsning ruhiy va jismoniy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, oly o‘quv yurtining talabasi o‘zidagi mavjud bilimga ko‘ra, allaqachon yetuk mutaxassis sifatida biror-bir tashkilot yoki korxonada ishlashi, yoxud doktoranturada o‘qishi lozimligini his qiladi. Ammo hali oly o‘quv yurtini bitirmaganligi va qo‘lida diplomi bo‘lmaganligi sababli u ich-ichidan siqiladi, talaba bo‘lib o‘zining darajasiga teng keladigan yaxshiroq ish izlashga intiladi. Yoki inson o‘zi yashayotgan jamiyat rivojidan qoniqmaydi. Boshqa, rivojlangan davlatga ko‘chib ketgisi keladi, ammo uning moddiy ahvoli bunga yo‘l qo‘ymaydi. Natijada unda yuzaga keladigan ichki konflikt, uni turli yo‘llarga boshlaydi (yaxshi ish topishga intilish, o‘z ustida ishlash, yaqinlari bilan pul ustida janjallashish, qarz olish va hokazo).

Shaxslararo konflikt. Bu ikki va undan ortiq shaxs o‘rtasidagi konflikt bo‘lib, hayotda turli sabablarga ko‘ra tez-tez uchrab turadi. Bunga misol qilib, yigitlar o‘rtasida bir qizning muhabbatni uchun kurash (yoki aksincha), rahbar va xodim o‘rtasidagi kelishmovchilik, qo‘snilar o‘rtasidagi konflikt, jamoat transporti yo‘lovchilari o‘rtasidagi tushunmovchilik va hokazolarni ko‘rsatish mumkin. Bunday konfliktlar jamiyatning har bir jabhasida: iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy va boshqalarda sodir bo‘lishi mumkin. Shaxslararo konfliktlarda insonlarning shaxsiy sifatlari, ularning aqliy salohiyati, tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxs va guruh o‘rtasidagi konflikt. Guruhlar o‘zida bir qancha munosabatlarni mujassam etadi va albatta unda rasmiy va norasmiy yetakchi bo‘ladi. Shu sababli guruh ichida konfliktga borish xavfi kuchayadi.

Shaxs va guruh o‘rtasidagi konflikt konstruktiv va destruktiv bo‘lishi mumkin. Birinchi holatda u shaxs va guruh o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qilsa, ikkinchisida guruh o‘rtasidagi tarqoqlikka olib keladi.

Guruhraro konflikt. Mazkur konflikt turli xil guruhrar manfaatlarining to‘qnashuvni natijasida yuzaga keladi. Aksariyat holatda bunday konfliktlar ijtimoiy guruhrar ichida yuz

beradi. Masalan, maktabdagagi sinflar, talabalar guruhlari, ishlab chiqarish brigadalari, OTM kafedralari, siyosiy partiylar, etnik jamoalar, diniy tashkilotlar orasida. Ijtimoiy konfliktlarni K.Marks [6] va uning izdoshlari tadqiq etishgan bo‘lib, ularning fikricha, konflikt asosida iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, irqiy va boshqa kelishmovchiliklar yotishi mumkin.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, dunyodagi asosiy konfliktlar guruhrararo xarakterga ega. Bularga asosan etnik, irqiy, diniy va madaniy belgilari asosida yuzaga keladigan konfliktlar kiradi. Ko‘p holatlarda konfliktlar etnik guruhlarning elementar ehtiyojlarini qondirmaslik, ya’ni ularga ma’lum bir maqom, madaniy o‘ziga xoslik, fikr, so‘z, din erkinligining berilmasligi natijasida kelib chiqadi.

Davlatlararo konflikt. Bunday konfliktlar asosan alohida davlatlar va koalitsiyalar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar oqibatida yuzaga kelishi kuzatiladi. Ularning sabablari turlicha, ya’ni iqtisodiy, siyosiy, g‘oyaviy, hududiy va boshqalar bo‘lishi mumkin. Albatta, davlatlararo konfliktlar asosida, birinchi galda, mamlakatlar manfaatlarning bir-biriga ziddigi yotadi. Bunday konfliktlarning eng xavfli tomoni – harbiy harakatlar boshlangan taqdirda odamlarning ommaviy ravishda qirilishidir. Davlatlararo konfliktlarni muvofiqlashtirish va jahonda tinchlikni saqlashda Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlikparvar faoliyati muhim rol o‘ynaydi. Uning asosiy vazifalaridan biri sayyoraning xavfli nuqtalarida tinch aholini o‘limdan va turli xavflardan saqlashdir.

Hech bir inson o‘zini konfliktlardan doimiy muhofaza qilinganman deb hisoblay olmaydi. Chunki konfliktlar ba’zan qo‘qqisdan, hech kutilmagan holda vujudga kelishi hamda inson hayot tarzini tubdan o‘zgartirib yuborishi mumkin. Konflikt har bir inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, hech bir inson konfliktlardan o‘zini “kafolatlanganman” deb ishonch bilan ayta olmaydi. Har birimiz bolalik davrlarimizdan konfliktli vaziyatlarga tushamiz va bu holatlardan chiqib ketish yo‘llarini, usullarini qidiramiz. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, konflikt ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Chunki u ko‘pchilik insonlarning kundalik turmush tarziga oid voqeа va hodisalarни qamrab oladi hamda konflikt rivojidan har bir inson,

yaqin qarindoshlar, mehnat jamoasi o‘rtasidagi tinch va totuvlikka asoslangan osuda hayot tarzi zarar ko‘rishi mumkin.

Ulg‘ayganimiz sari konfliktli voqeal, hodisalar o‘z kuchi va ta’sirini ham kuchaytirib boradi. Ammo biz konflikt nimaligini bilamizmi?! Har doim ham konfliktli vaziyatga tushib qolganda o‘zimizni to‘g‘ri tutamizmi? Konflikt bizning hayotimiz uchun tahdidlimi? Konfliktning o‘z ichki tabiat qanday? Konfliktidan qanday qutulish, ya’ni undan qanday chiqib ketish kerak? Ziddiyat qanday qonuniyatlar asosida rivojlanadi? Nizoni rivojlantiruvchi omillarni oldindan bartaraf etsa bo‘ladimi? Inson ziddiyatlarsiz yashashga o‘rganishi mumkinmi?! Bu kabi savollar butun bir vujudimizni qurshab oladi.

Konfliktlogiya, yoki konfliktlar yechimi sohasi yangi rivojlanib kelayotgan va taraqqiy etayotgan fan sohalaridan biri hisoblanadi. Shu bois, konfliktlogiya sohasining nazariy asoslari, uning milliy xususiyatlari, ijtimoiy o‘ziga xosliklari, konfliktlarning jamiyat hayoti bilan aloqadorligi, shaxslararo konfliktlar, konfliktlarning huquqiy aspektlari, mehnat jamoasidagi konfliktlar masalalari ko‘pchilik tadqiqotchilarni qiziqtiradi. Ko‘rinib turibdiki, konfliktologiyaning o‘z ichki yo‘nalishlari ko‘p. Konfliktologik kayfiyat va xususiyatlarni o‘rganish jamiyatdagi inqirozlarning kelib chiqishi va ijtimoiy to‘qnashuvlarning oldini olishga ko‘mak beradi.

ADABIYOTLAR

1. Андреев В.К. Конфликтология: искусство спора, ведения переговоров, разрешения конфликтов. – Казань, 1992. – С. 47.
2. Лебедева М.М. Политическое урегулирование конфликтов: Подходы, решения, технологии. – М., 1997. – С. 78.
3. Ансупов А.Я., Шипилов А.И. Конфликтология: Учебник для вузов. – М.: ЮНИТИ, 2000. – С.11.
4. Qo‘sxoqov S. Dialektika va bilish nazariyasi. <http://uz.denemetr.com/docs/769/index-314213-1.html?page=7>
5. Лукин Ю.Ф. Конфликтология: управление конфликтами: Management of the conflicts: учебник для вузов / Ю.Ф.Лукин. – М.: Академический проект; Гаудеамус, 2007. – С. 19.
6. The Context of Social Psychology // Ed. by J. Israel, H. Tajfel. – London, 1972. P.6.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada davlat imijini yaratish bo'yicha nazariy qarashlar, imij tushunchasi va uning davlat uchun ahamiyati, shuningdek, Yangi O'zbekistonning siyosiy imijini xalqaro miqyosda ko'tarish yo'llari va buni amalga oshirish uchun belgilangan vazifalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: imij, siyosiy imij, tashqi siyosat, tashqi siyosiy imij, Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi.

YANGI O'ZBEKISTONNING XALQARO MAYDONDAGI IJOBIY IMIJINI YARATISH MASALALARI

*ABDULLAYEV
Mirzohid Aljon o'g'li,
mustaqil izlanuvchi*

АННОТАЦИЯ

В статье описаны теоретические взгляды на создание имиджа государства, понятие имиджа и его значение для государства, а также пути повышения политического имиджа Нового Узбекистана на международном уровне и задачи для его реализации.

Ключевые слова: имидж, политический имидж, внешняя политика, внешнеполитический имидж, стратегия действий, стратегия развития.

ANNOTATION

This article describes the theoretical views on creating a state image, the concept of image and its importance for the state, as well as the ways to raise the political image of New Uzbekistan at the international level and the tasks set for its implementation.

Key words: image, political image, foreign policy, foreign political image, action strategy, development strategy

So'nggi yillarda O'zbekiston o'z milliy manfaatlariga asoslangan holda ochiq, o'zaro foydali va konstruktiv tashqi siyosat olib bormoqda. Yangi O'zbekistonning zamonaviy tashqi siyosati dunyoda va mintaqada shiddat bilan o'zgarayotgan vaziyat hamda mamlakat ichidagi keng ko'lamli o'zgarishlarga asoslanib shakllanmoqda. Bunda davlatning tashqi siyosatini olib borishda, albatta, davlatning ijobjiy imijini shakllantirish va xalqaro maydonda ilgari surish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Suveren O'zbekiston o'zini dunyo hamjamiyatining teng huquqli va teng ovozli subyekti sifatida taqdim etish barobarida, rivojlanishning o'ziga xos, betakror yo'lini tanladi. Bugungi kunda davlatning imiji uning xalqaro maydondagi salmog'ini, obro'sini va milliy manfaatlarini himoya qilish qobiliyatini tobora ko'proq belgilab bermoqda. Ijobiy imij:

- 1) qo'shimcha iqtisodiy imtiyozlar olish imkonini beradi;
- 2) mamlakatning xalqaro maydondagi mavqeyini va siyosiy jarayonlarga ta'sirini oshiradi;
- 3) rivojlanayotgan mamlakatlar uchun o'zlarining "yumshoq kuchini" oshirish va jahon hamjamiyatida ko'proq namoyon bo'lish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Avvalo, "imij" tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak(ing. image, lot. imago – timsol, ko'rinish) – shaxs, hodisa, narsaning ommalashtirish, reklama qilish va h. k. maqsadlarda odamlarga hissiy-ruhiy ta'sir ko'rsatishni ko'zlab shakllantiriladigan qiyofasi; targ'ib qilish vositalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatning imijini shakllantirish borasidagi tadqiqotlar nisbatan anchayin kech rivojlangan.

Amerikalik siyosatshunos olim U.Lipman mamlakat qiyofasini shakllantirishning nazariy asoslarini dastlab o'rgangan olim hisoblanadi[1;7]. Keyinchalik imij masalasidagi g'oyalar E.Bernays va S.Anholt tomonidan ishlab chiqilgan. Bu soha yana rivojlanishda davom etdi. Mamlakat imijini shakllantirishning eng zamonaviy va mashhur nazariyasi

S.Anholtning "milliy brendlash" nazariyasidir. Ushbu model hozir amalda eng samarali hisoblanadi. Unga ko'ra, imij yaratish bu obyekt haqida iste'molchilar ongida barqaror g'oyalar yaratishga qaratilgan faoliyat turidir.

Bundan tashqari, yana rus olimi E.Galumov mamlakat qiyofasini belgilash va targ'ib qilishning keng qamrovli konsepsiyasini taklif etadi. Uning konsepsiyasiga ko'ra, tasvirni shakllantiruvchi omillarning uchta guruhi mavjud:

1. Shartli statik omillar:

- tabiiy salohiyat;
- milliy-madaniy meros;
- tartibga solinmagan geosiyosiy omillar;
- mamlakat taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi tarixiy faktlar;
- boshqaruv shakli va davlat tuzilmasi.

2. Dinamik sotsiologik omillar:

- jamiyatning ijtimoiy-psixologik holati;
- jamoat birlashmalari faoliyatining mohiyati va tamoyillari, shakllari;
- ijtimoiy-siyosiy integratsiya;
- jamiyat taraqqiyotining axloqiy jihatlari.

3. Dinamik institutsional omillar:

- iqtisodiyotning barqarorligi;
- huquqiy maydon;
- funksiyalari, vakolatlari va davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari;
- jamiyat hayotining turli sohalari;
- hokimiyat tuzilmasi samaradorligi [2;15].

Galumovning fikrimi tahlil qiladigan bo'lsak, undan shunday xulosa qilishimiz mumkin:

Davlatning xalqaro miqyosda imijini ko'tarish uchun bir qancha islohotlar amalga oshirilishi lozim bo'ladi. Islohotlarni amalga oshirishning dastlabki bosqichida, birinchi navbatda, normativ-huquqiy baza shakllantirilishi lozim. Bu jarayon mamlakatimizda bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelmoqda.

Masalan, davlatning ijobjiy imijini xalqaro miqyosda ko'tarish va tashqi siyosiy faoliyatning asosiy vazifalari 2017-yil 7-fevralda tasdiqlangan "2017–2021-yillarda O'zbekistonni yanada rivojlanirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" va "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"da chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan. Yuqoridaqilarga asosan, tashqi siyosat sohasiga oid quyidagi eng muhim ustuvor

yo‘nalishlar shakllantirildi. Jumladan, Harakatlar strategiyasining 5.2-bandiga asosan:

- davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning to‘laqonli subyekti sifatida o‘rni va rolini yanada mustahkamlash, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O‘zbekiston atrofida xavfsizlik, barqarorlik va do‘stona qo‘sningchilik munosabatlari mintaqasini yaratish;

- O‘zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, dunyo hamjamiyatiga mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar to‘g‘risida obyektiv axborotni yetkazish;

- O‘zbekiston tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining me‘yoriy-huquqiy bazasini, shuningdek, xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal etish [3].

Bundan tashqari, **Taraqqiyot strategiyasining**^[4] 93–98-maqsadlarida Yangi O‘zbekistonning xalqaro miqyosda imijini oshirish uchun bir qancha vazifalar belgilab berildi. Jumladan, “Mamlakatning xalqaro munosabatlardagi teng huquqli subyekt sifatidagi rolini oshirish”ga bag‘ishlangan 93-maqsadda:

hamkor mamlakatlar bilan hamda xalqaro tashkilotlar doirasida mintaqaviy va global masalalar bo‘yicha muvozanatli, doimiy muloqot olib borish, ular bilan ikki va ko‘p tomonlama uchrashuvlar o‘tkazish, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda hamda turli darajadagi maslahatlashuvlarni tashkil etish;

yetakchi davlatlar bilan keng qamrovli hamkorlikni strategik darajaga olib chiqish hamda ular bilan kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitimlarni kelishish;

yirik tadbirdorda (xalqaro tashkilotlar doirasida va xorijiy hamkorlar bilan sherikchilik asosida hamda ikki tomonlama hamkorlik darajasidagi konferensiya, forum, seminar va davra suhbatlari) mintaqaviy va xalqaro masalalar bo‘yicha O‘zbekiston pozitsiyasi hamda umumjahon miqyosidagi tashabbuslarini ilgari surish;

“O‘zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti organlari va instituti, global va mintaqaviy iqtisodiy, moliyaviy va gumanitar tashkilotlardagi faoliyatini kuchaytirish”ga bag‘ishlangan 96-maqsadda BMT organlari va instituti bilan, global va mintaqaviy iqtisodiy, moliyaviy va gumanitar tashkilotlardagi faoliyatini kuchaytirish, BMTning “Inson huquqlari yo‘lida harakatga da’vat” tashabbusini



ilgari surish uchun barcha sheriklar bilan yaqin hamkorlikni davom ettirish orqali global olamda O'zbekiston imijini ko'tarish belgilandi.

Shu bilan birga, tashqi siyosatni olib borishdagi asosiy e'tibor siyosiy, savdo-iqtisodiy, ijtimoiy-gumanitar va boshqa sohalarga, shuningdek, O'zbekiston atrofida tinch, barqaror hamda xavfsiz muhitni shakllantirishga qaratilmoqda.

O'zbekiston imijini jahon miqyosida ko'tarishning samarali yo'llaridan yana biri bu xalqaro savdo tashkilotlariga a'zo bo'lish va ular bilan birgalikda integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish hisoblanadi. Buni amalga oshirish davlat rahbari tomonidan Taraqqiyot strategiyasining 97-maqsadida aniq ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra:

Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish, Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi bilan barqaror munosabatlarni davom ettirish, eksportni qo'llab-quvvatlash va subsidiyalar berishning muqobil yo'llarini ishlab chiqish va yana bir qancha vazifalar belgilab qo'yildi.

Bundan tashqari, davlatning xalqaro miqyosda imijini oshirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni katta. Bu yo'nalish 97-maqsadda o'z ifodasini topgan. Jumladan:

jahondagi yetakchi axborot agentliklari bilan hamkorlikni yanada jadallashtirish;

O'zbekiston imijini jahon sahnasida ilgari surishni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar majmuyini tayyorlash va amalga oshirish, mamlakatimizda islohotlarning borishi, jamiyatni demokratik yangilash jarayonlari haqida xolis axborot tarqatishni samarali davom ettirish;

xorijiy davlatlarda o'zbek tili, madaniyati va milliy an'analarimizni keng ommalashtirish, gumanitar aloqalarni mustahkamlashdan iborat bo'lgan Alisher Navoiy xalqaro institutini tashkil etish;

xorijda keng axborot kampaniyasini o'tkazish, jumladan, nufuzli xorijiy ommaviy axborot vositalarida O'zbekiston haqidagi materiallarni e'lon qilishni tashkil etish uchun O'zbekiston Respublikasining asosiy diplomatik vakolatxonalariga moliyaviy resurslar ajratish;

Yevropa mamlakatlarining siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy, ishbilarmon, madaniy-gumanitar va tahliliy doiralari vakillari bilan doimiy muzokaralar olib borish, ularga O'zbekistonda olib borilayotgan keng ko'lamlili islohotlar to'g'risida xolis axborot yetkazish;

xorijda keng maqsadli targ'ibot tadbirlarini, jumladan, "O'zbekiston madaniyati kunlari", davra suhbatlari, ko'rgazmalarini o'tkazish;

chet ellarda O'zbekistonning yutuqlarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish uchun "Vatandoshlar" resurslarini jalb qilish;

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarni xalqaro mediamakonda xolisona yoritishga qaratilgan hamkorlikni kuchaytirishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilandi.

Mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarining o'zaro hamkorligi va sohada mavjud muammolarni o'rganish, ularni bartaraf etish hamda istiqbollarni belgilab olish uchun qulay mediamaydon yaratish ishlari amalga oshirilmoqda. Buning uchun xalqaro axborot bozorlariga chiqish, O'zbekistonning ijobiy imijini ilgari surish mexanizmlari, vositalari va kanallarini birgalikda ishlab chiqish, xalqaro maydonda PR-sheriklik loyihibarini amalga oshirish maqsadida yetakchi xorijiy ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro aloqalarini rivojlantirish va hamkorlik aloqalarini o'rnatish lozim bo'ladi [5].

Yuqorida islohotlarning amaliy ifodasi sifatida bir qancha ishlarni olib borilmoqda. Xususan, hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasining qirqdan ziyod davlatda faoliyat olib borayotgan elchixonalari tomonidan ana shu mamlakatlardagi mahalliy OAV vakillari uchun matbuot anjumanlari, brifinglar, press-turlar tashkil qilib kelinmoqda.

Shuningdek, turli mahalliy tillarda O'zbekiston hayotiga doir press-relizlar, anonslar, byulletenlar va boshqa shakllardagi axborotlar tayyorlanib, ular muntazam ravishda ommaviy axborot vositalariga tarqatilmoqda. Bulardan tashqari, barcha diplomatik vakolatxonalarining rasmiy saytlari faoliyat ko'rsatayotir. Ular sayt foydalananuvchilarini mamlakatimiz rahbari olib borayotgan siyosat, islohotlar samarasini va boshqa faoliyat qirralari bilan muntazam tanishtiradi.

So'nggi yillarda keng ko'lamlili demokratik islohotlar, axborot globallashuvi jarayoniga mos ravishda yangi O'zbekistonning o'z mukammal qiyofasi, yangicha media imijini yaratish borasida salmoqli ishlarni amalga oshirildi. Bu jarayonda mediamakonda O'zbekiston mavzusining alohida mavqe va miqyosga ko'tarilgani, mamlakatimizning ichki va tashqi imijini

yaxshilash bilan bog'liq vaziyat ilmiy-amaliy va ijodiy masala sifatida mutaxassislar tomonidan tadqiq etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, MDH va Sharq mamlakatlari, xususan, Rossiya, Qozog'iston, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Malayziya, Hindiston, Turkiya, Misr, BAA kabi davlatlarning ommaviy axborot vositalarida O'zbekistonga doir xabarlar va maqolalar tez-tez e'lon qilib borilmoqda. Biroq G'arb davlatlari, xususan, AQSH va Buyuk Britaniya OAVlarida O'zbekistonga oid salmoqli tahlilchy chiqishlar yetarli darajada emas [6].

Bundan tashqari, Jahan mediamakonida O'zbekiston tutgan yo'lning o'ziga xosligi, uning afzalliklari hamda yutuqlari to'g'risida ko'plab materiallar e'lon qilindi. O'sha matbuot materiallari o'tgan tarixan qisqa davrda Vatanimizning ichki imiji shakllanishida katta ahamiyat kasb etdi. Ichki imij negizida tashqi imij barpo etildi. Ta'kidlamoq zarurki, mamlakatimizda taraqqiyotning o'ziga xos milliy modelini muvaffaqiyatli amalga oshirish barobarida davlat, davlat rahbari va xalq imiji yaxlit bir jarayon, voqelik sifatida shakllandi, rivojlandi va dunyo jamoatchiligi tomonidan tan olindi. O'zbekistonning o'zigagina xos bo'lgan taraqqiyot modelining hayotga joriy etilishi natijasida ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan sovet tizimi o'rniغا milliy davlatchilik asoslari bilan bog'liq mustahkam huquqiy baza yaratildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Prezident Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari – bizning bevosa qo'shnilarimiz bilan do'stona, yaqin qo'shnichilik va o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish hamda mustahkamlashni asosiy ustuvor vazifa sifatida belgilab berdi.

Davlat rahbari tomonidan yurtimizning xalqaro darajada obro'sini oshirishga qaratilgan bir qancha ishlar amalga oshirildi. Jumladan:

O'zbekiston Prezidenti tashabbusi asosida keyingi besh yilda mintaqaning barcha mamlakatlari bilan oliy darajadagi tashriflar almashinuvi amalga oshirildi. Mintaqadavlatlarining yetakchilari o'rtasidagi o'zaro ishonchga asoslangan siyosiy muloqot doimiylik kasb etdi. Bunday aloqalar natijasida Markaziy Osiyo davlatlarini qiziqtiradigan xavfsizlik, chegaraviy masalalar, iqtisodiyot, investitsiya, turizm, madaniyat, sog'liqni saqlash va

ekologiyaga oid o'zaro, mintaqaviy hamda xalqaro ahamiyatga molik muhim qo'shma qarorlar qabul qilindi.

So'nggi yillardagi amaliy ishlar natijasida O'zbekistonning mintaqadagi barcha davlatlar bilan munosabatlari yanada yaxshilandı, xususan, o'zaro tashqi aloqalar qaytadan yo'lga qo'yildi hamda chegaralar ochildi. Bu esa qo'shnichilik aloqalarini yanada kuchaytirdi, shuningdek, xalq diplomatiyasi, gumanitar yordam va madaniy hamkorlikning qaytadan jonlanishiga turtki bo'ldi.

Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo-iqtisodiy sohalardagi munosabatlar izchil rivojlanmoqda. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasini tahlil qiladigan bo'lsak, **2016-yilda 2,5 mlrd dollar, 2017-yilda 2,7 mlrd dollar, 2018-yilda 4,0 mlrd dollar, 2019-yilda 5,2 mlrd dollar** va pandemiya sharoitiga qaramasdan, **2020-yilda 5,0 mlrd** dollarni tashkil qilgan. Dinamik jadvalga e'tibor beradigan bo'lsak, **2016-yildan 2020-yilgacha** tashqi savdo hajmi ikki baravarga oshdi. Bu esa hukumatning faol tashqi siyosati mahsulidir.

Bundan tashqari, koronavirus pandemiyasi tufayli iqtisodiy faollikning umumiyy susayishi sabab 2020-yil yakunlariga ko'ra Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tovar aylanmasi qisman, ya'ni 2019-yildagiga nisbatan 5,4 foiz pasaydi, biroq O'zbekistonning umumiyy tovar aylanmasida Markaziy Osiyo davlatlari ulushi 12,4 foizdan 13,6 foizga oshdi [7].

O'zbekiston tashqi siyosatining zamonaviy ustuvor yo'nalishlari haqida gapirganda, mamlakatimizning yetakchi xorijiy davlatlar va nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan strategik aloqalari rivojlanib borayotganiga alohida to'xtalib o'tish lozim.

Xususan, O'zbekiston yetakchi davlatlar bilan "Markaziy Osiyo + Rossiya Federatsiyasi", "Markaziy Osiyo + Xitoy Xalq Respublikasi", "S5 + 1" (AQSH), Markaziy Osiyo + Hindiston, "Markaziy Osiyo + Yaponiya", "Markaziy Osiyo + Koreya Respublikasi", "Markaziy Osiyo + Yevropa Ittifoqi" hamkorligi doirasida mintaqaviy muloqotning turli formatlarini rivojlantirishda faol ishtiroy etmoqda. Bu esa Markaziy Osyoning yetakchi xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy va xavfsizlik sohalaridagi aloqalarining tizimli ravishda olib borilayotganini ko'rsatadi.

Ko'rileyotgan amaliy chora-tadbirlarga qaramasdan, mamlakat imijini xalqaro maydonda ko'tarishga bir qancha muammolar salbiy ta'sir etmoqda.

Jumladan, sud-huquq tizimidagi muammolar sababli mamlakatdagi va chet eldag'i investorlarning O'zbekistonga investitsiya olib kirishga qiziqishlari biz istagan darajada yuqori emas.

Xususan, O'zbekistonda hali ham korrupsiyon jinoyatlar darajasi yuqoriligidcha qolmoqda. Transparency International xalqaro tashkilotining 2021-yil uchun Korrupsiyani qabul qilish indeksida O'zbekiston 180 davlat ichida 28 ball (Turkmaniston – 19, Tojikiston – 25, Qirg'iziston – 27) bilan 140-o'rinni egalladi (Pokiston, Mavritaniya va Myanma davlatlari ham O'zbekiston bilan bir xil ball to'plagan) [8].

O'z navbatida, bu ko'rsatkich xalqaro banklar va valyuta fondlarining O'zbekistonga nisbatan ishonchi mustahkamlanishiga salbiy ta'sir etadi.

Bundan tashqari, davlat hokimiyyati organlaridagi ortiqcha byurokratiya va qog'ozbozlik, kredit olish bilan bog'liq muammolar ham tashqi imijni ko'tarishda asosiy to'siqlardan bo'lib qolmoqda.

Xalqaro Doing Business 2020-yilgi reytingida O'zbekiston 69,9 ball bilan 69- (Qozog'iston – 25, RF – 28) o'rinni egallagan [9].

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, ayni paytda hanuzgacha ishlatalmagan zaxiralar va qator dolzarb masalalar borki, ulardan foydalanish yoki hal etish orqali mamlakat

imijini shakllantirish ko'pchilikning yagona maqsad yo'lida birlashuviga bog'liq. Chunki ayovsiz raqobat davrida mamlakatning ijobjiy imiji va brendini kuchaytirishga yo'naltirilgan navbatdagi sifat bosqichiga chiqish uchun davlat, fuqarolar, ishbilarmon doiralar bir yoqadan bosh chiqarishlari shart.

Avvalambor, ijobjiy imijni shakllantirishga tizimli va kompleks yondashuv talab etilmoqda. Bu sohada tushunchalarni umumlashtirish, ustuvor yo'nalishlar, maqsad va vazifalarni belgilab olish, amalga oshirish uslublari va shakllarini ishlab chiqish va ularni so'zsiz bajarishimiz kerak. Ya'ni, ushbu jarayonni nazariy konseptual jihatdan qamrab oluvchi hujjat qabul qilinishi lozim bo'ladi. Shuningdek, davlat imijini shakllantirish va ilgari surish jarayonini tadqiq etib borish, bu borada hukumatning mas'ul mansabdor shaxslariga sohaga oid boshqaruva qarorlarini qabul qilishda tegishli takliflarni ishlab chiqish uchun "aql markazi" tashkil etish, yoxud yurtimizda faoliyat olib borayotganlari bilan ushbu vazifalarning kelishib olinishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ana shu ishlarni amalga oshirish uchun nafaqat davlat mablag'lari, balki mamlakatdagi yetakchi ekspertlar hamda biznes doiralar imkoniyatlaridan ham keng foydalanish mumkin. Bundan tashqari, fuqarolik jamiyatining barcha qatlami "imij siyosati"ni amalga oshirishda faol ishtirok etishi maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" 07.02.2017-yildagi PF-4947-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 28.01.2022-yildagi PF-60-son Farmoni.
3. Николаева Ю. Межкультурная коммуникация и международный культурный обмен: учебное пособие. – М., 2009. – С. 35.
4. Галумов Э.А. Имидж против имиджа. – М.: Известия, 2005. – С. 371.
5. <https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekiston-imiji-xalqaro-maydonda-qanday-yuksaladi>.
6. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/01/25/corruption-index-2021/>.
7. <https://archive.doingbusiness.org/yen/data/yexploreconomies/uzbekistan>.
8. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/07/13/central-asia/>.

ANNOTATSIYA

Bugun dunyo shiddat bilan virtuallashib bormoqda. Shu sababdan mazkur maqlolada dunyoning virtuallashuvi va uning yoshlarning axloqiy tarbiyasiga ta’siri tahlil etilgan. Shuningdek, maqlolada virtual olam atamasining mazmuni, virtuallashuv jarayonlari qanday maqsadlarni amalga oshirish oqibatida shakllanayotganligi, uning ta’sirida yoshlarning axloqiy tarbiyasidagi o’zgarishlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Virtuallashuv, virtual dunyo, virtual olam, axloq, manipulyatsiya, egosentrizm, infologema, ijtimoiy tarmoq, kiberjinoymatchilik.

BUGUNGI DUNYONING VIRTUALLASHUVI VA YOSHLARNING AXLOQIY TARBIYASI

MADRAXIMOV

*Alisher Usibjon o‘g‘li,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar
instituti kichik ilmiy xodimi,
mustaqil izlanuvchi*

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются виртуализация мира и ее влияние на нравственное воспитание молодежи. Также описывается значение термина “виртуальный мир”, как формируются процессы виртуализации в результате реализации целей, и изменения в нравственном воспитании молодежи под его влиянием.

Ключевые слова: виртуализация, виртуальный мир, виртуальная вселенная, мораль, манипуляция, эгоцентризм, инфологема, социальная сеть, киберпреступность.

ANNOTATION

Today the world is rapidly becoming virtual. For this reason, this article analyzes the virtualization of the world and its impact on the moral education of young people. The article also describes the meaning of the term virtual world, how virtualization processes are formed as a result of the implementation of goals, and changes in the moral education of young people under its influence.

Key words: virtualization, virtual world, virtual universe, morality, manipulation, egocentrism, infologem, social network, cybercrime.

Internetning kashf etilishi texnika taraqqiyotida yangi davrni, ya'ni axborot asrini boshlab berdi. Shuningdek, uning ixtirosi natijasida insonlarning kundalik dunyosida yangi – “virtual” dunyo paydo bo‘lishiga olib keldi. Go‘yoki insonlar ikkita olamda yashayotgandek.

Virtuallashuvning ijobjiy tomonlari bisyor, shu bilan birga, bugungi dunyoning geosiyosiy va geomafkuraviy kurashlar hamda butun jahonda turli tajovuzkor, buzg‘unchi g‘oyalarning ham virtual olamda tarqalishi, afsuski, hech kimga sir emas. Bu haqida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rnlidir: “Hozirgi globallashuv davrida, inson ongi va qalbi uchun kurash kechayotgan bir paytda turli g‘oyaviy tahdid va xurujlar jamiyatimizning ma’naviy hayotiga ta’sir ko‘rsatishning kuchli quroli sifatida namoyon bo‘lmoqda” [1. B-263].

Yoshlar tarbiyasi azaldan dolzarb va ahamiyatli masala bo‘lib kelgan. Ayniqsa, yoshlarning axloqiy tarbiyasi masalasi turli darajadagi jamiyat va falsafa, pedagogika, psixologiya, shuningdek, ritorika kabi fanlarning ixtisoslashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan gumanitar bilimlarning birlashmasidan iborat bo‘lgan.

Yoshlar axloqiy tarbiyasi bilan bog‘liq muammolar va axborot tahdидlaridan yoshlarni asrashga qaratilagan ilmiy-nazariy qarashlar hamda mamlakatimiz ma’naviy hayotini yangi davrga olib chiqish borasidagi fikrlar O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov va zamonaviy jamiyatda yoshlar tarbiyasi hamda axloqiy madaniyatini yuksaltirish borasidagi g‘oyalarga ilmiy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiluvchi fikrlar O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev asarlarda keng talqin qilingan.

XX asrning mashhur fizik va faylasuflari K.F.Vayszekker, P.Devis, E.Kassirer, V.Klifford, A.Pays, I.R.Prigojin, I.L.Rozental, K.Xyubner va boshqalar ilmiy ishlarida “virtual olam” tushunchasining “moddiy olam” va “virtual olam” g‘oyalari bilan tuslanishi va hatto taqqoslanishi borasidagi g‘oyalari rivojlantirilgan. E.Bexer [2] inson jismi “virtual” shaklga ega ekanligi borasidagi farazni ilgari suradi.

MDH tadqiqotchilari N.Viner, S.I.Orxov, D.I.Dubrovskiy, R.F.Abdelyev, M.B.Ignatev va boshqalar “virtual olam” va internetga tobelik muammolarini o‘rganib chiqqan bo‘lib, ularning asarlari virtualistikaning butun muammolarini dolzarblashtirish va uni yalpi ilmiy fan sifatida shakkantirishga turtki bergen.

V.Kovalevskaia [5], Y.A.Shapavalovlar [6] ning ishlarida “virtual olam” chuqur tahlildan o‘tkazilgan. I.G.Korsunsev ishidagi subyektlarni his qilishdagi mavjudlik tahlili [7], K.Yangning ishlaridagi internetga tobelik alomatlarining ishlab chiqilganligi va unga ta’rif berilganligi [8] eng katta yutuqlardan deb hisoblash mumkin.

Mamlakatimizda virtual olamning ma’naviy-axloqiy jihatlarini o‘rgangan olimlar qatoriga L.A.Muhammadjonova, B.Parfiyev, M.Erkayev, T.Do‘schanov, O.Muhammadjonov, A.Erkayev va A.Tulyayev kabilarni kiritish mumkin.

Bilamizki, internet bu – virtual olamning asosini tashkil qiladi. Ana shu olam bugun butun borliqning turish-turmushiga daxl qilmoqda. Albatta, o‘z kelajagi va hayotiga befarq bo‘limgan inson haqqoniy hayot bilan virtual olamni bir-biridan farqlay oladi. Ilm-ma’rifat istaganlar bugun internet orqali bilmaganini o‘rganib olayotgan bo‘lsa, kimplardir bu “o‘rgimchak to‘ri”da qandaydir tuzoqqa tushib qolmoqda.

Virtual olam o‘ziga xos global axboriyya-raqamli qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Bugungi yoshlar bolalik chog‘idanoq bir marotaba bo‘lsa ham bu olamga qadam qo‘yadi va undan qaytib chiqishga qiynaladi yoki qaytib chiqishi juda amrimaholdir. Umuman olganda, hozir internetdan foydalanmaydigan insonlar, xususan yoshlar deyarli yo‘q.

Virtual olam borasidagi turlicha ta’riflar va munosabatlarni uchratishimiz mumkin. Uning mazmuni va mohiyatini bilish dolzarb masala sanaladi. Jumladan, virtual olam – bu kompyuter texnologiyalari yordamida qurilgan, sun‘iy ravishda yaratilgan muhitdir [10].

Virtual olam tushunchasi voqelik (virtual corporation) tushunchasi bilan ham bir xil mazmunga ega bo‘lib, multimedia – operativ vositalar yordamida “ekranli dunyoda” ifodalananuvchi mavjud dunyoga aynan kirish va ishtirot etish holatini (illyuziya) amalga oshiruvchi kontaktiv axborot o‘zaro harakatining yangi texnologiyasidir. Bu undan foydalanuvchi tasavvurida yaratiladigan anchagina abstrakt –

nisbiy dunyodir. Sinonimlari sifatida olamning kompyuter modeli, elektron olam kabilarni keltirish mumkin. Olamdagisi narsa va hodisalarini sezish hamda ishonarli bo‘lishi uchun virtual olam xossalari va ta’sirlarini kompyuterda sintez qilish real vaqtida amalga oshirilishi lozim. Virtual olam obyektlari o‘zini moddiy olam obyektlari kabi tutishi kerak. Foydalanuvchi virtual olam obyektlariga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim.

Hozirgi yoshlarning barchasi virtual, ya’ni kiber madaniyatga allaqachon oshnoldirlar. Hattoki ayrim yoshlar o‘rtasida “virtual hayotda bo‘lmasang, demak sen hayotda ham yo‘qsan” degan iboralar ham paydo bo‘lib ulgurdi. Shunday bir holatda umuminsoniy qadriyatlar, odatiy yashash tarzi va insoniylik fazilatlari virtual dunyoga singishi bir qancha muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Virtual dunyo insonni manipulyatsiya qilmoqda. Manipulyatsiya – bu fikriy qaramlik orqali o‘ziga bo‘ysundirish demakdir. Mutaxassislar fikricha, virtual dunyoda insonning vaqtini idrok qilish tizimi buziladi, ijtimoiy faolligi kamayadi. Eng dahshatlisi, bu jarayonda virtual vositalarning salbiy ta’siri ma’naviy-axloqiy tanazzul bilan chegaralanib qolmay, ko‘p kasalliklarni ham keltirib chiqaradi.

Hozirgi kunda virtuallashuv jarayoni quyidagi maqsadlarni amalga oshirish oqibatida shakllanadi:

- virtual muloqot, ya’ni Internet megapolisida axborot-kommunikatsiya texnikalari vositasida foydalanuvchilar o‘rtasida ma’lumotlar almashish, bir-biriga psixologik yoki ijtimoiy ta’sir ko‘rsatish, aloqa o‘rnatish;

- ermak va hordiq chiqarish (do‘stlar bilan tarmoqli o‘yinlarni o‘ynash hamda videorolik yoki boshqa turli mavzulardagi rasmlarni tarqatish uchun);

- bilish maqsadida (global tarmoqdagi elektron kutubxonalar va axborotlar bazasidan ma’lumotlar olish uchun);

- boshqa maqsadlarda, masalan, turli ijtimoiy yoki fiziologik ehtiyojlarni qondirish va hokazolar [9].

Quyida dunyoning virtuallashuvi natijasida yoshlarning axloqiy tarbiyasi borasidagi ba’zi bir o‘zgarishlar bilan tanishib chiqsak (1-rasm).

Egosentrizm

Yoshlar virtual dunyoga kirar ekan ularda o‘ziga xos virtual autizm, ya’ni o‘z olamiga singish, muloqotdan qochish, o‘z muammolari qozonida o‘zi “qovurilish” jarayonlari asta-sekin rivojlanma boshlaydi. Bu ayniqsa o‘smirlar uchun xavflidir. Ular dardini yaqinlari, ota-onasiga emas, balki mutlaqo begonalarga onlayn tarzda to‘kib sochadilar. Bundan aksariyat holatda “virtual dunyodagi yaxshi odamlar” samarali foydalanishadi. O‘smirni osongina boshqarish imkonini paydo bo‘ladi.

Ijtimoiy tarmoqlar ekstremizmi

Virtual dunyo hozirgi kunda “ijtimoiy tarmoqlar ekstremizmi” degan yangi tushunchani paydo qildi. Inson ichidagi barcha noroziliklarini ijtimoiy tarmoqlarda birovlarni qoralash, ayplash, haqorat qilish orqali to‘kib sola boshladи. Aksariyat holatda real hayotda bu narsalar o‘z ifodasini topmaydi. Ammo internetdagi anonimlik bunga yo‘l qo‘yib beradi. Sankt-Peterburg universitetining dotsenti Anastasiya Grishanina o‘tkazgan tadqiqotlar natijasida, aynan ijtimoiy tarmoqlardagi “ekstremist”larning 75% 18–30 yoshdagi foydalanuvchilar ekanligi ma’lum bo‘ldi [11].

Nosog‘lom axborotlarga ishonish

Yana bir muammo shundan iboratki, virtual olamning o‘ta keraksiz axborotlarga to‘laligidir. Ish stolimiz ustidagi kompyuterga

Virtuallashuv

Egosentrizm

**Ijtimoiy
tarmoqlar
ekstremizmi**

**Nosog‘lom
axborotlarga
ishonish**

Infologema

**Fiziologik
muammolar**

**Kiberjino-
yatchilik**

1-rasm. Virtuallashuvning yoshlar axloqiga ta’siri.

yoki qo'limizdagi telefonga shunchaki elektron qurilma sifatida qaray olmaymiz. U axborot olish, almashish va uzatishning eng samarali, qulay vositasidir. Uning multimedia (tasvir, ovoz, matn) xizmati va boshqa qator qulayliklari insoniyatni virtual olamga ohanrabodek tortib oladi.

Bugun inson o'ziga yog'ilayotgan barcha axborotni saralab, qaysi foydali, qaysi esa foydasiz, xavfli ekanligini ajratishga vaqt va imkoniyati yo'q. Inson psixologiyasi shundayki, aksariyat holatda, o'ziga qiziq tuyilgan sensatsion axborotni o'zlashtiradi. Ko'pincha bu axborot insonning o'ziga xavf solishi, asabiylashtirishi, organizm faoliyatining ma'lum miqdorda buzilishiga olib kelishi mumkin. Yoshlarda esa, ularning maksimalistligini inobatga oladigan bo'lsak, nojoiz "qahramonliklar" ko'rsatishiga turtki bo'ladi.

Infologema

Bugungi kunda virtual olam tadqiqotchilar yangi "infologema" tushunchasini ilgari surishmoqda. Bu tekshirib bo'lmaydigan haqiqatga yaqin, ammo aslida yolg'on, soxta qarashlar, konsepsiylar demakdir. Infologema

– bu haqiqiy voqealarni mafkuraviy afsonalar, siyosiy tashviqot uydirmalari sifatida aks ettiruvchi yolg'on, buzib ko'rsatilgan yoki to'liq bo'lmanan ma'lumotlar [3]. Ko'pincha aynan ana shunday yolg'on qarashlar yoshlarni ularni takrorlashga undaydi. Infologemalar avvalo yoshlarda boshqalarga, yaqinlariga, vataniga nisbatan nafratni, dushmanni, o'zining barcha xatoliklari va omadsizliklarining aybdorini topishga bo'lgan harakatni shakllantiradi. Bundan ko'pincha zo'ravon ekstremizm va terrorizm namoyandalari foydalanishadi.

Fiziologik muammolar

COVID-19 pandemiysi natijasida 2020-yilda o'z-o'zini izolyatsiya qilish, maktablarni bekor qilish va bolalarining uyda va onlaynda ko'proq vaqt o'tkazishi bilan virtual o'yinlarga sarflanadigan vaqt ko'paydi. Tadqiqotlarga ko'ra 2020-yili video o'yinlarni o'yashga sarflangan vaqt soatiga 19% ga oshgani aniqlandi. Bu insonlarning jismoniy ko'rinishiga qanday ta'sir qiladi?

Britaniyalik olimlar kibersport bilan doimiy shug'ullanuvchi insonlarning taxminiy protatipini yaratishdi. Unga ko'ra virtual o'yinlarga



2-rasm. Virtual o'yinlarga mukkasidan ketgan insonlarning tashqi ko'rinishi.

mukkasidan ketgan o'yinbozlarning 2040-yilga kelib taxminiy ko'rinishi quyidagicha bo'lar ekan (2-rasm) [12].

Bir kunda yoshlar o'rtacha 6 soatdan 18 soatgacha virtual o'yinlarga vaqt sarflaydi. Ba'zan bu raqamlar oshib ketadi. Uning natijasida uyqu yetishmasligi va suvsizlanish, D vitaminini yetishmasligi, ko'z zo'riqishi va "pleysteyshen bosh barmog'i"ning zararlanishi kabi jismoniy muammolar yuzaga keladi.

Virtual o'yinlarga mukkasidan ketish JSST (Jahon sog'lioni saqlash tashkiloti) tomonidan rasmiy psixologik kasallik sifatida tan olingan. Virtual o'yinlarda ko'p o'tiruvchi insonlarda quyidagicha belgilari kuzatiladi:

- ko'zning qizarishi, ya'ni ko'zning zo'riqishi: uzoq vaqt davomida kompyuter oldida o'tirish va gajetlardan foydalanish ko'zning zo'riqishiga sabab bo'ladi, bu esa ko'zlarning qurishi va qizarishi sifatida namoyon bo'ladi.

- bosh suyagidagi chuqurlik: 20 yildan ortiq vaqt davomida to'plangan barqaror, yengil bosim, uzoq vaqt stressda bo'lish, naushniklardan ortiqcha foydalanish bosh suyagida chuqurcha hosil bo'lishiga, sochlar to'kilishi va teri holatining o'zgarishi kabi deformatsion o'zgarishlarga olib kelishi mumkin;

- nintendo artriti: nintendo artriti, ya'ni "nintendinit" – bu qo'llarda yara va chaqalarni keltirib chiqaradigan takrorlanadigan shikastlanishning yangi turi;

- dumaloq yelkalar: vaqt o'tishi bilan astasekin rivojlanadigan holat, bo'yinning haddan tashqari cho'zilganligi, yumaloq yelkalar, ya'ni yelkalarning kichiklashishi hamda yo'qolib borishiga olib keladi. Natijada yelka sohasining bo'yin sohasiga qo'shilib ketishi yuz beradi.

Kiberjinoyatchilik

Bugungi kun yoshlarida internet va turli gajet hamda kompyuterdan samarali foydalanish ko'nikmalarini tug'ilgan vaqtidan shakllanmoqda. Bu albatta yaxshi, lekin ularda to'kis va farovon hayotga intilish istaklari ham mavjuddir. Bu ikkala omilni qo'shsak, natija ba'zan yaxshi, ba'zan yomon oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Mutaxassislar fikricha, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ayni paytda "kiberjinoyatchilik" deb nomlangan jinoyatlarga yo'l ochmoqda. Virus va boshqa zararli dasturlar, qonunga zid axborotlar tayyorlash va tarqatish, elektron xatlarni ommaviy tarqatish, xakerlik hujumi, veb-saytlarga noqonuniy kirish, firibgarlik, mualliflik huquqini buzish, kredit kartochkalari raqami va bank rekvizitlarini o'g'irlash kabi jinoyatlar shular jumlasidandir. Shunday buzg'unchilikni o'z oldiga maqsad qilib qo'yanlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ustalik bilan foydalanib, jamiyatga ham, ko'plab shaxslarga ham moddiy va ma'naviy zarar keltirmoqda. Bunday jinoyatlarni amalga oshirayotganlarning aksariyatini yoshlar tashkil etmoqda.

Umuman olganda, xulosa qilib shuni aytish mumkinki, virtual dunyo bugungi kunga kelib insoniyatga juda ham keng imkoniyatlarni va qulayliklarni ochib bermoqda. Virtual dunyodagi shaxsning anonimligi, dunyoning turli nuqtalaridan kira olish imkoniyati, har qanday foydalanuvchi (jinsi, yoshi, millati, dinidan qat'i nazar) bilan muloqotga kirishish, o'zini realizatsiya qila olish, hayotdagi axloqiy qoidalarning internetda yo'qligi va unga bo'ysunmaslik, javobgarlikdan qochish kabi masalalar yoshlarning axloqiy tarbiyasiga ta'sir etuvchi jiddiy xavflarni yanada kuchaytiradi.

Amerikalik olim E.Toffler "Uchinchi to'lqin" asarida "Insoniyat ortda qoldirgan yo'l uch bosqichdan iborat", degan fikrni ilgari suradi. Ya'ni, qishloq xo'jaligi, sanoat hamda hozirgi axborot tamaddunlari [4. B-94]. Mantiqan o'ylab qaralsa, hozirdanoq to'rtinchchi to'lqin sifatida virtual dunyodagi axborot madaniyati yuzaga chiqmoqda. Yoshlarda axborotdan foydalanish madaniyatining yetishmasligi turli muammolarni keltirib chiqarmoqda. Endilikda odamlarning, oilalarning, milliy qadriyatlarning – insoniyatning rivoji va istiqboli madaniyatga bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Becher E. Einfhrung in die Philosophie. – Munhen, 1949.
3. Баранова Н. Классические технологии информационно-психологической войны. <https://nicbar.ru/politology/study/kurs-informatsionnaya-vojna-v-sisteme-politicheskikh-otnoshenij/109-lektsiya-2-klassicheskie-tehnologii-informatsionno-psikhologicheskoy-vojny>
4. Эльвин Тоффлер. Третья волна. – Москва: Изд-во ACT, 2004.
5. Ковалевская Е.В. Компьютерные виртуальные реальности: философский анализ: автореф. дис. канд. филос. наук: 09.00.01. – М., 1998.
6. Шаповалов Е.А. Философские размышления о виртуальной реальности // Вестник СПбГУ. Серия 6. 1996. Вып. 2.
7. Корсунцев И.Г. Рефлексия и виртуальная реальность // Философские исследования, 1997. № 3.
- 8 Yung K. Caught in the Net: How to Recognize the Signs of Internet addiction and a Winning Strategy for Recovery. – N.Y., 1998.
9. Плещаков В.А. Киберсоциализация человека: от Homo Sapiens’а до Homo Cyberus’а. – Москва, 2012.
10. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%92%D0%B8%D1%80%D1%82%D1%83%D0%B0%D0%BB%D1%8C%D0%BD%D1%8B%D0%B9_%D0%BC%D0%B8%D1%80
11. <https://elibrary.ru/item.asp?id=49390638>
12. <https://www.designboom.com/art/meet-michael-lifelike-representation-future-gamer-in-2040-04-11-2020/>

ANNOTATSIYA

Maqolada ekologik tahdidlar jamoatchilik xavfsizligiga jiddiy tahdid solayotganligi, bunday xavf-xatarlar orasida ekologik terrorizm, yadroviy terrorizm va ekotsid kabi jinoyatlar ham mavjudligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ekologiya, texnogen hodisalar, ekologik tahdidlar, ekologik xavfsizlik, ekologik terrorizm, yadroviy terrorizm va ekotsid.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется тот факт, что экологические угрозы представляют серьезную угрозу общественной безопасности, и к таким угрозам относятся такие преступления, как экологический терроризм, ядерный терроризм, экоцид.

Ключевые слова: экология, техногенные явления, экологические угрозы, экологическая безопасность, экологический терроризм, ядерный терроризм и экоцид.

ANNOTATION

The article analyzes the fact that environmental threats pose a serious threat to public safety, and such threats include such crimes as environmental terrorism, nuclear terrorism, ecocide.

Key words: ecology, man-made phenomena, environmental threats, environmental safety, environmental terrorism, nuclear terrorism and ecocide.

Bugungi kunda jamoat xavfsizligiga ekologik tahididlari jiddiy xavf solib, dunyo xalqlarini tashvishga solayotgan umumbashariy muammoga aylandi. Ekologik talofatlar, ekologik terrorizm, yadroviy terrorizm, ekotsid xavfidan atrof tabiiy muhitning holati va sifatini muhofaza qilish, aholining qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlash, ayniqsa, ekotizm busbutunligini saqlash va ushbu xavf-xatarlarning oldini olish hamda unga qarshi kurash eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qoldi.

Ushbu muammoni ijobjiy hal etish maqsadida bugungi kun yangi islohotlar bosqichida mamlakatimizda bir qator keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" [1]da ko'rsatilganidek, "odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlash, atrof muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytirish, atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarning oldini olish, favqulorra vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish" kabi chora-tadbirlarning belgilanishi mamlakatimizda aholini ekologik xavf-xatarlardan himoya qilishda muhim rol o'yamoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-dekabrdagi "Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi sohasida davlat boshqaruvi va nazorati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5594-sон farmoni [2] asosida Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasining tashkil etilishi, unga radiatsiya va yadro xavfsizligini ta'minlash, sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi, istirohat bog'lari attraksionlarini ekspluatatsiya qilishga oid qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshirish va atom energiyasidan foydalanish sohasini litsenziyalash kabi vazifalarning yuklatilganligi ushbu muammoning tashkiliy jihatlarini hal etishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Ekologiya huquqiga oid maxsus ilmiy adabiyotlarda bildirilgan fikrlarga ko'ra, jamoat

xavfsizligiga xavf-xatar soluvchi tabiatni muhofaza qilish borasidagi ishlar uncha qoniqarli emas, eng dolzarb muammolar ekologik xavfsizlikni ta'minlashda kamchiliklarning mavjudligi, ekologik xavfli chiqindilar to'planib qolishi holatlarining ko'p uchrashi, ular bilan xavfsiz muomala qilish bo'yicha chora-tadbirlarning sust darajasida amalga oshirilishi, iqtisodiy manfaatlarning tabiatni muhofaza qilish manfaatlardan ustun qo'yilishi, ekologik xavfli chiqindilarni boshqarish, yig'ish, zararsizlantirish va ko'mish vazifasini amalga oshirishning talab darajasida emasligi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlarning yetarli darajada moliyalashtirilmasligi, tizimga doir mavjud qonunchilik bazasining o'ta tarqoqligi, sohada yuz beradigan huquqbazarliklar uchun yuridik javobgarlikning sustligi yoki muqarrar emasligi, shuningdek, ushbu muammolarni hal etishga bag'ishlangan maxsus ilmiy tadqiqotlarning yetarli darajada olib borilmayotganligidan iborat.

Davlat va huquq nazariyasiga oid ilmiy adabiyotlarda to'g'ri ta'kidlanganidek, "ekologik (tabiiy) va texnogen xavf-xatarlar jamoat xavfsizligining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ularga qarshi kurash dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Ekologik xavfsizlik masalasi atrof muhitni muhofaza qilish bilan bir qatorda har qanday davlat uchun, shuningdek, har qanday huquqiy tartibga solish mexanizmlari uchun alohida ahamiyat kasb etadigan ijtimoiy muammodir" [3. 3-b].

Ekologik va texnogen hodisalar tufayli vujudga keladigan ekologik xavf-xatarlar va undan himoyalanish, ya'ni shaxs, jamiyat va davlatning ekologik xavfsizligini ta'minlash O'zbekistonda davlat faoliyati va huquq funksiyalarining asosiy qirralardan birini tashkil etadi. Bu masala huquqiy tartibga solishning qat'iy va doim kuchli e'tibor bilan amalga oshirilishining obyekti hisoblanadi.

Avvalo shuni aytish kerakki, ilmiy adabiyotlarda ekologik xavfsizlik tushunchasi masalasida turli va bir-biriga qarama-qarshi fikrlar uchraydi. Vaholanki, jamoat xavfsizligini ta'minlashda ekologik xavf-xatarlarning oldini olishga xizmat qiladigan ekologik xavfsizlik va unga yondosh bo'lgan tushunchalarning mukammal tavsifi hamda ularning harakatdagi qonunchilikda mustahkamlanishi muhim

ahamiyat kasb etadi. Masalan, Sh.Jo‘rayevning fikriga ko‘ra, ekologik xavfsizlikni ta’minlash talablari, tegishli adabiyotlarda ta’qidlanganidek, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish (ekologiya) ning bir qismi bo‘lib hisoblanmaydi yoki uning tarkibida amalga oshirilmaydi. Ushbu sohadagi huquqiy munosabatlarni ekologik huquqiy munosabatlarning aynan o‘zi deb hisoblash to‘g‘ri emas, chunki ekologik xavfsizlik shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligining bir yo‘nalishidir [4. 3-b.]. Ammo bu fikrga qo‘shilish qiyin. Chunki, ekologik xavfsizlikni ta’minlash konstitutsiyaviy, ma’muriy, fuqarolik, jinoiy huquq sohalari bilan bir qatorda ekologiya huquqining ham muhim obyektlaridan biri hisoblanadi.

J.Xolmo‘minovning ta’rifiga ko‘ra, ekologik xavfsizlik – atrof tabiiy muhit holatinig organizmlarning hayotiy zarur ehtiyojlariga javob bera olishi yoki insonlar uchun sog‘lom, toza va qulay tabiiy sharoitga ega atrof muhit holatidir [5. 11-b.]. A.K.Golichenkovning ta’rificha, ekologik xavfsizlik atrof tabiiy muhitning shunday sifatiga erishish va saqlab turishdirki, bunda uning omillari ta’siri inson salomatligi va uning tabiat bilan hamohang bo‘lgan samarali faoliyatini ta’minlaydi [6. 37-b.]. G.P.Serov ekologik xavfsizlikka boshqacha ta’rif beradi. Uning fikriga binoan, ekologik xavfsizlik “himoyalangan tabiat obyektlari tomonidan bo‘ladigan xavfdan shaxsning, aholining, hududning, sanoat va tabiat obyektlarining himoyalanganlik holatidir”[7. 224-b.].

Ekologik xavfsizlik – atrof tabiiy muhit (ekologiya) obyektlarining xavfli tarzda sifati buzilishining, agar shunday xavf vujudga kelgan bo‘lsa, odamlarga, jamiyatga, ayrim hududlarga salbiy ta’sirining oldini olishga qaratilgan faoliyatdir. Ekologik xavfsizlik deganda inson, tabiat, jamiyat va davlatning manfaatlari atrof tabiiy muhit obyektlarining sifati buzilishi natijasida yetkazilgan yoki yetkazilishi mumkin bo‘lgan zararning oldini olish va bartaraf qilish holati tushuniladi [8. 12-b.].

Ekologik xavfsizlikni ko‘philik mualliflar tabiatni muhofaza qilish deb tor tushunadilar. Vaholanki, ekologik xavfsizlikning obyekti ancha keng bo‘lib, u tabiiy xavf-xatar natijasida inson, jamiyat va davlatning ekologik manfaatlariiga jiddiy zarar yetkazishi, jamoat xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi bilan izohlanadi. Shundan

kelib chiqib, ekologik xavfsizlikni inson, jamiyat va davlatning ekologik manfaatlari, jamoat xavfsizligi, atrof tabiiy muhitning, xususan, moddiy madaniy meros obyektlari sifati buzilishi natijasida yetkazilgan va yetkazilishi mumkin bo‘lgan zararning oldini olish va bartaraf qilish holati, deb tushunish kerak.

Yuridik ma’noda ekologik xavfsizlikni ta’minlash deb, favqulodda yuz beradigan tabiiy yoki texnogen ekologik halokat natijasida atrof tabiiy muhit obyektlari orqali insonlar sog‘lig‘i, hayoti va mulkiga, shuningdek, jamiyat va davlat manfaatlariiga talofat yetkazilishining oldini olishga va kelib chiqqan oqibatlarni bartaraf etishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy choradadbirlarni amalga oshirishga aytildi [8. 13-b.].

Ekologik xavfsizlikka tahdid solayotgan eng dahshatli xavf-xatarlar sirasiga ekologik terrorizm, yadroviy terrorizm va ekotsid kabi jinoyatlarni sanab ko‘rsatish mumkin. Avvalo, ekologik terrorizm tushunchasi mazmunini ochib berish uchun terrorizmnинг umumiy tushunchasi xususida aniq tasavvurga ega bo‘lish muhim sanaladi. O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonunda terrorizm to‘la izohlangan. Unga ko‘ra, terrorizm – siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog‘lig‘iga xavf tug‘diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy obyektlarning yo‘q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlat, xalqaro tashkilot, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakatlar sodir etish yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilish, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suvereniteti, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putur yetkazish, qurolli mojarolar chiqarishni ko‘zlab ig‘vogarliklar qilish, aholini qo‘rqtish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo‘rlik, zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqtish yoki boshqa jinoiy qilmishlardir. Terrorchilik harakati deganda esa, garovda ushlab turish uchun shaxslarni qo‘lga olish yoki ushlab turish, davlat yoki jamoat arbobining, aholining milliy, etnik, diniy, boshqa guruhlari, chet davlatlar va xalqaro tashkilotlar vakillarining hayotiga tajovuz qilish, davlat yoki jamoat ahmiyatiga molik obyektlarni

bosib olish, shikastlantirish, yo'q qilish, portlatish, o't qo'yish, portlatish qurilmalarini, radioaktiv, biologik, portlovchi, kamyoviy, boshqa zaharlovchi moddalarni ishlatish yoki ishlatish bilan qo'rqtish, yer usti, suv va havo transporti vositalarini qo'lga olish, olib qochish, shikastlantirish, yo'q qilish, aholi gavjum joylarda va ommaviy tadbirlar o'tkazilayotganda vahima ko'tarish va tartibsizliklar keltirib chiqarish, aholi hayotiga, sog'lig'iga, jismoniy yoki yuridik shaxslar mol-mulkiga avariyalari, texnogen xususiyatli halokatlar sodir etish yo'li bilan zarar yetkazish yoki xavf tug'dirish, tahdidni har qanday vositalar va usullar bilan yoyish tarzida terrorchilik tusidagi jinoyatlarni, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalarida belgilangan terrorchilik tusidagi boshqa harakatlarni sodir etish tushuniladi.

Bugungi kunda dunyoning barcha mamlakatlarini qamrab olgan terrorizm uyushgan jinoyatchilikning o'ta og'ir turlaridan biriga aylanib, unga qarshi keskin kurash olib borish eng dolzarb vazifalardan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasida ham bu baloga qarshi kurashishni ta'minlashga qaratilgan huquqiy asoslar yaratilgan, unga qarshi kurashni amalga oshiruvchi davlat organlari tizimi shakllantirilgan. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonuni qabul qilinib, 1-moddasida ushbu Qonunning asosiy vazifalari shaxs, jamiyat va davlatning terrorizmdan xavfsizligini ta'minlash, davlatning suverenitetini va hududiy yaxlitligini himoya qilish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni saqlashdan iborat ekanligi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi g'arazli maqsadlar ko'zlangan terroristik xarakterdagi jinoyatlardan ogohlantirish, oshkor qilish va oldini olish vositalari yordamida terrorizm bilan kurashni olib boradi. Terrorizm, shu bilan birga ekologik terrorizm bilan ham kurash nafaqat uning namoyon bo'lishini, vujudga kelishini qayd etish, balki birinchi navbatda ogohlantiruvchi choralarini kuchaytirish va kengaytirish holatida amalga oshiriladi. Ammo hali obyektlar va yuqori xavfdagi korxonalar, aholining hayot ta'minotini muhofaza qilish tizimining texnik mustahkamlanishiga yetarli darajada e'tibor berilmayapti.

O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasi orqali quroq, o'q-dorilar, portlovchi, radioaktiv, biologik, shuningdek, kamyoviy yoki boshqa zaharlovchi moddalarning, terrorchilik harakatini sodir etish maqsadida ishlatilishi mumkin bo'lgan predmet yoki materiallarning noqonuniy olib o'tilishining oldini olish, uni aniqlash va chek qo'yish choralarini ko'radi; O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlarida giyohvandlik vositalari, psixotrop va portlovchi moddalar, portlatish qurilmalari, quroq-yarog'lar, qurollar va o'qdorilar, yadroviy, biologik, kamyoviy yoki boshqa turdag'i yalpi qirg'in qurollari, terrorchilik harakatlarida ishlatilishi mumkin bo'lgan materiallar va asbob-uskunalarni noqonuniy olib o'tishga urinishlarning oldini olish, aniqlash va ularga chek qo'yish choralarini ko'radi.

Turli davlat organlari, maxsus xizmatlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning terrorizmga qarshi kurash sohasidagi harakatlarini muvofiqlashtirish va o'zaro hamkorlik qilishi to'g'risidagi masalani hal etish alohida muhim hisoblanadi. Shunday organlarga O'zbekiston Respublikasining Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi, Tabiat resurslari, Favqulodda vaziyatlar va Sog'liqni saqlash vazirliklarini kiritish mumkin. Yuqorida ko'rsatilgan organlarning o'zaro hamkorligi terrorchilar uchun "mo'ljal" bo'lishi mumkin bo'lgan obyektlar ro'yxatini ochish va aniqlash uchun zarur. Ayniqsa, bu diversiyalarga tegishli bo'lib, masalan ekologik terrorizmning shunday turli ko'rinishi sifatida tabiiy sabablar ostiga yopinib olishi mumkin bo'lgan bakteriologik diversiyani ko'rsatish mumkin. Shu munosabat bilan monitoring va nazorat tizimiga kiruvchi muassasalarni maxsus tayyorlash va ta'minlash talab etiladi.

Hozirgi vaqtida ekologik terrorizm bilan muvaffaqiyatli kurashish maxsus usul va texnik vositalar yig'indisini kompleks uyg'unlashtirish, yaxshi o'rgatilgan xodimlarni tayyorlash, atrof tabiiy muhit monitoringi va huquqni muhofaza qilish organlari bilan o'zaro hamkorlikni kuzatuvchi yagona axborot markazini yaratish maqsadga muvofiqli. Terroristik aksiyalarning oqibatlari keng miqyosdagi talofatlar, favqulodda ekologik vaziyatlar bo'lishi mumkin. Shu munosabat

bilan kuch ishlatish choralaridan tashqari tegishli huquqiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va targ‘ibot-tashviqot choralarini ta‘minlovchi yagona davlat tizimini tashkil etish ko‘zlangan maqsadga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda “ekologik terrorizm” tushunchasi me’yoriy-huquqiy hujjatlarda yuridik jihatdan hali mustahkamlanmagan. Ilmiy adabiyotlarda “ekologik terrorizm” tushunchasidan tashqari “ximik”, “biologik”, “yadroviy”, “texnologik” terrorizm kabi tushunchalar ham uchraydi. Terrorizmning bu kabi chegaralanishi yo quroldan (vositalar, moddalar) foydalanish turlari bo‘yicha, yoki terroristik akt qaratilgan (atom obyekti, ximik yoki biologik xavfli ishlab chiqarish turlari) usul bo‘yicha amalga oshiriladi.

Bizningcha, sanab ko‘rsatilgan terrorizm turlarini “ekologik terrorizm” tushunchasiga birlashtirish zarur. Shunday qilib, ekologik terrorizm deganda, odamlar hayoti va sog‘lig‘i, o‘silik va hayvonot dunyosi uchun jamoat xavfsizligini buzish maqsadida xavftug‘diradigan, atmosfera havosi, tuproq, yer yoki suvlarni ekologik xavfli moddalar orqali zaharlash yo‘li bilan atrof tabiiy muhitga ta’sir etishga qaratilgan ijtimoiy xavfli xatti-harakat yoki harakatsizlik tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida ekologik terrorizm va uning

yo‘nalishlari hisoblangan yadroviy terrorizm, ekotsid jinoyatlari uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan. Ushbu jinoiy xatti-harakatlar bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ushbu qonunda katta bo‘shliq mavjud. Ekologik terrorizm va uning yo‘nalishlari hisoblangan yadroviy terrorizm, ekotsidning “oddiy” terrorizmdan eng muhim farqi – bu odamlarga o‘lim xavfini keltirishi mumkin bo‘lgan atrof tabiiy muhitni ifoslantirishga yo‘naltirilganligi hamda ijtimoiy xavfli sanalishidadir.

Terrorizm jinoyati uchun jinoiy javobgarlikni belgilashga bag‘ishlangan umumiy normalar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining “Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar” tahriridagi II bo‘limidan joy olgan. Ushbu bo‘limning VIII bobi “Tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar”ga bag‘ishlangan bo‘lib, uning 155-moddasida o‘rmatilishicha, terrorizm – xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putur yetkazish, urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, aholini qo‘rqitish maqsadida davlat organini, xalqaro tashkilotni, ularning mansabdor shaxslarini, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir faoliyatni amalga oshirishga yoki amalga oshirishdan tiyilishga majbur qilish uchun



zo‘rlik, kuch ishlatish, shaxs yoki mol-mulkka xavf tug‘diruvchi boshqa qilmishlar yoxud ularni amalga oshirish tahdidi, shuningdek, terrorchilik tashkilotining mavjud bo‘lishi, ishlab turishi, moliyalashtirilishini ta’minlashga, terrorchilik harakatlarini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko‘maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag‘-vositalar va resurslar berish yoki yig‘ishga, boshqa xizmatlar ko‘rsatishga qaratilgan faoliyatdir.

Harakatdagi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining XIV bobi “Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar” uchun jinoiy javobgarlikni belgilashga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ekologik jinoyatlarning turi sifatida “atrof tabiiy muhitni ifloslantirish” jinoyati ham mavjudligi (196-modda) ko‘rsatilgan. Atrof tabiiy muhitni ifloslantirish deganda, yerlarni ifloslantirish yoki buzish, suv yoki atmosfera havosini ifloslantirish odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoki boshqacha og‘ir oqibatlarga sabab bo‘ladigan harakatlarni sodir etish tushuniladi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, O‘zbekiston

Respublikasi Jinoyat kodeksining hech bir moddasida aynan ekologik terrorizm va uning ko‘rinishlari hisoblangan yadroviy terrorizm, ekotsid huquqbuzarliklari uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan. Ekologik terrorizm va uning yo‘nalishlariga oid jinoyatlar ushbu Kodeksdan o‘rin egallagan ekologik jinoyatlar mazmunidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Masalan, ushbu Kodeksning 14-bobida “xo‘jalik faoliyatida o‘simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalari, mineral o‘g‘it, o‘sish biostimulyatori yoki boshqa kimyoviy dorilarni ishlab chiqarish, saqlash, tashish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish odamlarning ommaviy kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoki boshqacha og‘ir oqibatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘lsa”, jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining ekologik jinoyatlarga oid moddalarida ekologik terrorizm va uning boshqa turlari bilan bog‘liq barcha jinoiy qilmishlar batafsil nazarda tutilmaganligini inobatga olsak, fikrimizcha, ushbu Kodeksda ekologik terrorizm va uning yo‘nalishlari hisoblangan yadroviy terrorizm, ekotsid jinoyatini sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik masalasi ham ko‘rib chiqilishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017. 6сон. 70-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-dekabrdagi “Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi sohasida davlat boshqaruvi va nazorati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5594-son farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.12.2018 yil. 06/18/5594/2269-son.
3. Jo‘rayev Sh.Yu. O‘zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta’minlashning nazariy-huquqiy masalalari: yurid. fan. nomz. diss. ...avtoreferati. – Toshkent, 2012. – B.3.
4. O‘zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta’minlashning nazariy-huquqiy masalalari: yurid. fan. nomz. diss. ...avtoreferati. – Toshkent, 2012. – B. 3.
5. Xolmo‘minov J.T. Ekologik tahidlarning oldini olish va bartaraf etish huquqiy muammolarning ilmiy-nazariy tahlili. Monografiya. – T.: TDYU, 2016. – B. 11.
6. Голиченков А.К. Экологический контроль: теория, практика правового регулирования: Ав-тореферат дисс. на соис. учен. степ. докт. юрид. наук. – Москва, 1992. – Б. 37.
7. Серов Г.П. Правовое регулирование экологической безопасности при осуществлении промышленной и иных видов растительности. – Москва: Ось-89, 1998. Б. 224.
8. Xolmo‘minov J.T. Ekologik tahidlarning oldini olish va bartaraf etish huquqiy muammolarning ilmiy-nazariy tahlili. Monografiya. – Toshkent.: TDYU, 2016. – B.12.



“TASHKENT LAW SPRING” (“TOSHKENT HUQUQ BAHORI”) III XALQARO YURIDIK FORUMI DOIRASIDA SUD EKSPERTIZA YO‘NALISHI BO‘YICHA ERISHILGAN YUTUQLAR

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tashabbusi bilan 2023-yilning 17-18-may kunlari Toshkent shaxrida bo'lib o'tgan “Tashkent law spring” (“Toshkent huquq bahori”) III Xalqaro yuridik forumi doirasida sud ekspertiza faoliyatiga oid bir qator quyidagi tadbirdar tashkil etishga muvaffaq bo'lindi.

Joriy yilning 17-may kuni O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymanova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazida Armaniston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Belarus, Turkmaniston Respublikalari sud ekspertiza muassasalari rahbar va yetakchi ekspertlari, REGULA Forensic Group mutaxassislari hamda O'zbekiston Respublikasi davlat va nodavlat sud ekspertiza vakillari ishtirokida “Sud ekspertizasi faoliyatidagi dolzarb masalalar va islohotlar” mavzusidagi xalqaro “davra suhbati” tashkil etildi.

Ma'lumot uchun, tadbirda Armaniston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasining Milliy ekspertiza byurosi direktori Agram Ovsepyan va direktor o'rinosari Patvakan Voskanyan, Belarus Respublikasi sud ekspertizasi Davlat Qo'mi-

tasining Ilmiy-amaliy markazi boshlig'i Vadim Poznyak va ilmiy xodimi Aleksey Shostir, Turkmaniston Ichki ishlar vazirligi Kriminalistik tadqiqotlari markazi boshlig'i Xudayberdi Miradov va bo'lim boshlig'i Bekturdi Shamiev, Qozog'iston Respublikasi Adliya vazirligining Sud ekspertizalari markazi direktor o'rinosari Ilyas Ismailov, REGULA Forensic Group kompaniyasidan direktor o'rinosari Igor Zagrebaylov va yetakchi mutaxassis Igor Duboyskiy, Ozarbayjon Respublikasi Adliya vazirligining Sud ekspertiza markazi bo'lim boshlig'i Djabir Axmet (onlayn) shuningdek O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, Elektron texnologiyalarni rivojlantirish markazi, Ichki ishlar vazirligi Ekspert-kriminalistika bosh markazi, Qurolli kuchlar Sud-tibbiy ekspertiza markazi, Davlat bojxona qo'mitasi Markaziy bojxona laboratoriysi va X.Sulaymanova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi rahbarlari va 200 dan ortiq ekspert xodimlari oflaysen va onlaysiz ishtirok etishdi.

Tadbirda “O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi faoliyati”,



“Belarus Respublikasi sud ekspertizasi Davlat Qo‘mitasining Ilmiy-amaliy markazining faoliyati”, “Turkmaniston Ichki ishlar vazirligi Kriminalistik tadqiqotlari markazi faoliyati”, “Armaniston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasining “Milliy ekspertriza byurosi” faoliyati”, “Qozog‘iston Respublikasi Adliya vazirligining Sud ekspertizalari markazi faoliyati”, “REGULA Forensic Group kompaniyasining faoliyati” va “Standartlashtirilgan sud ekspertizasi faoliyati sohasidagi integratsiya muammolari” mavzularida ma’ruzalar tinglandi.

Shuningdek, Sud ekspertizasi sohasidagi qonunchilikdagi islohotlar, Sud ekspertizasi sohasidagi ilmiy-uslubiy faoliyat, Sud ekspertlarini tayyorlash va malakasini oshirish masalalari, Giyohvandlik vositalarini tekshirish, Sud ekspertiza faoliyatini zamonaviy moddiy-texnik ta’minlash, Sud ekspertriza faoliyatini standartlashtirish va sifatini boshqarish, Sud-ballistik va trasologik ekspertizasi imkoniyatlari, Sud xatshunoslik ekspertizasi imkoniyatlari, Odam DNKsini sud-biologik ekspertizi imkoniyatlari mavzusi bo‘yicha muhokamalar bo‘lib o‘tdi.

Bundan tashkari, xorijiy mutaxassis ekspertrilar tomonidan Markaz va respublika sud ekspertiza muassasalari vakillariga “Sud ekspertizalarini

tashkil etish va o‘tkazishning dolzarb muammo-lari”, “Sud ekspertiza faoliyatida maxsus jihozlar va dasturlarning roli”, “Turkmaniston Ichki ishlar vazirligi Kriminalistik tadqiqotlari markazida maxsus tadqiqotlarni tashkil etish va o‘tkazishning zamonaviy imkoniyatlari”, “O‘rganilayot-gan ob‘ektlarning zarbli maydalanishning sovuq qurollariga tegishliliginini aniqlashning uslubiy yondashuvlari” mavzulari bo‘yicha mahorat darslari o‘tkazildi.

Shu bilan birga, xorijiy ekspert va mutaxassislarga Markaz muzeyi va laboratoriyalarining faoliyati yaqindan tanishtirildi.

Shu kunning o‘zida,

- O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respubliki sud ekspertizasi markazi va Armaniston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasining “Milliy ekspertriza byurosi” davlat notijorat tashkiloti o‘rtasida sud ekspertizasi faoliyati sohasida o‘zaro hamkorlik to‘g‘risida MeMORANDUM;

- O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi va Belarus Respublikasi sud ekspertizasi Davlat Qo‘mitasining Ilmiy-amaliy markazi o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida BITIM;

- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi va Qozog'iston Respublikasi Adliya vazirligining Sud ekspertizalari markazi o'rtaida 2023-yilga mo'ljallangan hamkorlik DASTURI imzolandi.

"Tashkent law spring" III xalqaro yuridik fomuning ikkinchi kuni, ya'ni 18-may kuni Inter-Continental Tashkent (Trilliant) mehmonxonasida "Sud ekspertizani rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari" mavzusida sessiya tashkil etildi.

Tadbirda Armaniston, Qozog'iston, Belarus, Turkmaniston Respublikalari sud ekspertriza muassasalarini rahbar va yetakchi ekspertlari, REGULA Forensic Group mutaxassislarini hamda O'zbekiston Respublika sud ekspertiza muassasalarini vakillari "O'zbekistonda sud ekspertizasi: kecha va bugun. Islohotlar samarasи", "Sud-ekspertlik faoliyatining ilmiy ta'minoti", "Turkmaniston Ichki ishlar vazirligining Kriminalistik tadqiqotlar markazi – jinoyatchilikga kurashishning muhim bo'g'ini", "Armaniston Respublikasi Milliy ekspertiza byurosida zamonaviy sharoitlarda maxsus bilimlarni qo'llashning tashkiliy-protsessual jihatlari va xususiyatlari", "Kozog'iston Respublikasida sud-ekspertlik faoliyatini isloh qilish istiqbollari", "Hujjatlar texnik ekspertrizalarni o'tkazish uchun laboratoriyalarni jihozlanishi", "Sud ekspertizasi jinoyat protsessida tortishuv prinsipi va tomonlar tengligini ta'minlovchi vosita sifatida" mavzulari bo'yicha ma'ruzalar qilib, sessiya ishtirokchilari tomonidan berilgan savollarga javob berishdi.

Ma'lumot uchun, sessiyada O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertriza markazi direktori Akram Xalilov Armanis-

ton Respublikasi Milliy fanlar akademiyasining Milliy ekspertiza byurosi direktori Agram Ovsepyan, Belarus Respublikasi sud ekspertizasi Davlat Qo'mitasining Ilmiy-amaliy markazi boshlig'i Vadim Poznyak, Turkmaniston Ichki ishlar vazirligi Kriminalistik tadqiqotlari markazi boshlig'i Xudayberdi Miradov, Qozog'iston Respublikasi Adliya vazirligining Sud ekspertizalari markazi direktor o'rnbosari Ilyas Ismailov, REGULA Forensic Group kompaniyasi yetakchi mutaxassisasi Igor Duboyskiy, NLC PARTNERS advokatlik firmasining boshqaruvchi hamkor, Qozog'iston Respublikasi advokatlar xay'ati Ilmiy maslahat kengashi a'zosi, advokat Veronika Kim asosiy spiker sifatida ishtirok etishdi.

Sessiya yakunlari bo'yicha sud ekspertiza faoliyatini rivojlantirish yuzasidan bir qator takliflar ishlab chiqilib, bu yo'nalishda hamkorlikda ishslash lozimligi to'g'risida kelishib olindi.

Shuningdek, 2023 yil 19 may kuni O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi va Belarus Respublikasi sud ekspertizasi Davlat Qo'mitasining Ilmiy-amaliy markazi o'rtaida:

- "Hayvonlar biomateriallarini identifikatsiya qilish";

- "Dendrologiya" ekspertizasi turlarini yaratish va amaliyotga joriy etish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini hamkorlikda o'tkazish yuzasidan QO'ShMA DASTURLAR tasdiqlandi.

Forum doirasida o'tkazilgan tadbir tafsilotlari OAV hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritildi.

X.Sulaymanova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi





“TASHKENT LAW SPRING” (“TOSHKENT HUQUQ BAHORI”) III XALQARO YURIDIK FORUMIDAN LAVHALAR



